


Ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar ssenariysi

"Ta'lim tizimida ma'naviy- ma'rifiy tadbirlar ssenariysi" metodik qo'llanmasi yurtimizda nishonlanib kelinayotgan turli bayramlarga doir tadbirlarni nishonlash bo'yida ssenariylardan iborat. Metodik qo'llanmadan maktab, kollej-litsey va oliy ta'lim sohasida ma'naviy- ma'rifiy tadbirlar jarayonida foydalanish mumkin. Ushbu metodik qo'llanmada har bir bayram uchun alohida ssenariylar to'liq aks etgan bo'lib, tadbirning boshlanish jarayonidan to yakuniy qismigacha bo'lgan chiqishlarni to'liq qamrab olgan. Har bir bayram sanasiga munosib tarzda she'r, qo'shiq, raqs va badiiy chiqishlar tanlab olinib ssenariyga kiritilgan.

Zaripova Aziza Kahramonovna • 1996-yil 25-mayda Buxoro viloyati Buxoro shaxrida tug'ilgan. • U hozirda Buxoro davlat universiteti filologiya fakultetining 2 kurs talabasi. • 5 ta tezisi xalqaro va respublika ilmiy anjumanlar to'plamida nashr bo'lgan.



978-613-9-41340-9

Globe
EDIT

Metodik qo'llanma.

Aziza Kahramonovna Zaripova

Globe
EDIT



Aziza Kahramonovna Zaripova

Ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar ssenariysi

Metodik qo'llanma

Aziza Kahramonovna Zaripova

Ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar ssenariysi

FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY

Aziza Kahramonovna Zaripova

Ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar ssenariysi

Metodik qo'llanma

FOR AUTHOR USE ONLY

Imprint

Any brand names and product names mentioned in this book are subject to trademark, brand or patent protection and are trademarks or registered trademarks of their respective holders. The use of brand names, product names, common names, trade names, product descriptions etc. even without a particular marking in this work is in no way to be construed to mean that such names may be regarded as unrestricted in respect of trademark and brand protection legislation and could thus be used by anyone.

Cover image: www.ingimage.com

Publisher:

GlobeEdit

is a trademark of

International Book Market Service Ltd., member of OmniScriptum Publishing Group

17 Meldrum Street, Beau Bassin 71504, Mauritius

Printed at: see last page

ISBN: 978-613-9-41340-9

Copyright © Aziza Kahramonovna Zaripova

Copyright © 2020 International Book Market Service Ltd., member of OmniScriptum Publishing Group

FOR AUTHOR USE ONLY

Aziza Zaripova Qahramonovna

**TA'LIM TIZIMIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY
TADBIRLAR SSENARIYSI**

Metodik qo'llanma

Ushbu metodik qo'llanma BuxDU o'quv-metodik kengashining 5-sonli
(26.02.2020) yig'ilish qaroriga ko'ra nashrga tavsiya etilgan.

Mas'ul muharrir: f.f.n., dotsent N.O.Safarova

Taqrizch: f.f.f.d.,dotsent G.I.Toirova

MUSTAQILLIK – ENG OLIY NE'MAT

1-boshlovchi: Azaliy haq gapni yashirib nechun

Zavol yo'q eng asl iste'dod uchun

Agarda koinot tegirmon bo'lib

Olamni yanchsa ham qolgay u butun

2-boshlovchi: Assalomu alaykum, davramiz ko'rki aziz mehmonlar!

1-boshlovchi: Assalom, kelajagimiz egalari qadrli tengdoshlar!

1-2boshlovchi: "Mustaqillik-eng oliy ne'mat" mavzusida o'tkazilayotgan shodiyona davramizga xush kelibsiz!

1-boshlovchi: O'zbekistonim! Ozod diyorum! Seni ta'riflash, madh etish uchun qalamim oqiz.

2-boshlovchi: Ona- Vatan! Biz seni oltin-u kumushga, beg'ubor qishga, oppoq saharga, fayzli bahorga qiyoslaymiz.

1-boshlovchi: Yo'q-yo'q! Sen bularning baridan a'lo, baridan suyuk, baridan buyuksan.

2-boshlovchi: Men seni erta bahorda gullarga keragidan ortiq o'rangan, ularni tashlab yubora olmay meva hosil qilgan daraxtga, suvi o'zaniga simay o'ynoqlab borayotgan azim daryoga o'xshatgim keladi.

1-boshlovchi: Hurriyat epkinlari bog'ingdadir, tomingdadir,
Yulduzing, qutlugl hiloling subhi oqshomingdadir
Fayzi-la, fazl-u farog'at tinch-u oromingdadir
Ey Vatan, jon-u dilim, jon-u dilim nomingdadir
Yetti osmon jilvasi bir nurli ayyomingdadir.

2-boshlovchi: Bog'im ichra gullagan zardoli, jiydam sen o'zing
Sunbul-u rayhon iforli gul qasidam sen o'zing
Rishtayi jonim o'zingsan, nuri diydami sen o'zing
Ey Vatan, jon-u dilim, jon-u dilim nomingdadir
Yetti osmon jilvasi bir nurli ayyomingdadir.

Men ilk bora yorug' dunyoga kelib Ona atalmish eng ulug' Vatanimni ko'rdim.
Oppoq sut ila Vatan mehri qalbinga jo bo'ldi.

Ulgayib Vatan naqadar kengligiga amin bo'ldim. Hovlidagi har bir daraxt, har bir giyoh, non yopiladigan tandir, g'ichirlab ochiladigan eshik, kelinchaklar, bo'y yigitlar bolajonlar, kekxa, yosh jam bo'ladigan besh vaqt azon eshitiladigan mahallam ana shunday mahallalarni birlashtirgan shahrim, Buxoroi sharifim, mustaqillik nasimi-la yorilgan respublikam-O'zbekistonim, tarix silsilalaridan besh azamat shoxini omon olib o'tgan qadim chinorim-Turkistonim ekanligini anglab etdim.

1-boshlovchi: 1-sentabr 1991-yil! Bu oltin sana tarix sahifalariga zarhal harflar bilan yozildi.

Yangi betin ochdi dunyo daftari
O'zbekni ko'rdi boz jahon minbari
Tan oldi, qutladi, ellarning bari
Qaytadan kuylangan sirli doston-bu O'zbekiston-bu.

2-boshlovchi: Mustaqillik! Qutlayman seni
Bor san'atim, bayotim bilan
Mustaqillik! Asrayman seni
Kerak bo'lsa, hayotim bilan

1-boshlovchi: Tarixini bilmagan inson komil inson sanalmaydi. Mana shunday faraxbaxsh kunlarda moziyga bir nazar solsak.

2-boshlovchi: Yana keldim, ey Tarix bobo,
Sendan yana talab qilurman
O'z, haqqimni qilmoqni davo
Haqiqatning yo'li bilurman.

1-boshlovchi: Vatanimiz tarixi...Bu juda uzoq, juda go'zal, juda ayanchli.

2-boshlovchi: Juda uzoqligi shundaki, hali hech kim yurtning kelib chiqishini to'la bila olgani yo'q.

1-boshlovchi: Juda go'zalligi shundaki, qadim Turon zaminim jahon oynasining jannati yanglih' ko'zga tashlanmoqda.

2-boshlovchi: Tarixning inson qoni-la yozilgan "Urush" sahifasi qanchadan-qancha shahar-u qishloqlarni kultepaga aylanishi dahshat emasmi?

1-boshlovchi: U 70 yil sobiq ittifoq tarkibiga "qo'shib olingan" holatda kun kechirdi. Ollohg'a ming bora shukur, bugun qo'l-oyog'imiz ko'z ilg'amas kishanlardan ozod. Xalqimiz shod yashamoqda.

2-boshlovchi: 70 tomirimda suron uyg'ondi
Kiprigimga qadar bo'ron uyg'ondi
70 yil uxlagan Turon uyg'ondi
Emaklagan xalqmi, mening o'zbekim.

1-boshlovchi: O'zbekiston olloh suygan yurt
Ogohlikdan ortiq kuygan yurt
Dunyo bu kun qo'lingni tutar
Sen dunyoni qo'llarini tut

(Qo'shiq) (O'quvchilar chiqishi)

1. O'zligini kuylar baralla
O'zbekim deb suylar baralla
Istiqboling kuylar baralla

Ko'ring bu kun O'zbekistonni.

2. E'tiborda har bir tirik jon
Izzatdadir hazrati inson
Nurli yo'lda beqiyos inson
Ko'ring bu kun O'zbekistonni.

3. Yal-yal yonar milliy libosi
Sarxush qilar hurlik sabosi
Bordir uning mehriyosi
Ko'ring bu kun O'zbekistonni.

4. Har bir qalbda faqat shukrona
Turfa millat, maslak yagona
Barcha o'zdir, yo'qdir begona
Ko'ring bu kun O'zbekistonni.

5. Gulga to'lgan hatto cho'llari
Dil yayratar ravon yo'llari
Mehr tutar saxiy qo'llari
Ko'ring bu kun O'zbekistonni.

6. Yigitlari alpomish salvat
Oy qizlarin husni bir davlat
Kelajagi chin buyuk davlat
Ko'ring bu kun O'zbekistonni.

7. O'zbekiston olloh suygan yurt
Ogohlikdan ortiq kuygan yurt
Dunyo bu kun qo'lingni tutar
Sen dunyoni qo'llarini tut

1-boshlovchi: Xorazmiy bo'lmasa sanarmidingiz
Ham paxta, ham oltin karvonlarimni
Oyning gardishiga qo'narmidingiz
Beruniy bermasa narvonlarimni

2-boshlovchi: Mustaqillik uchun, vatanimizning buyuk kelajagi uchun,
Yo'l boshchimizning yo'l - yo'riqlarini amalga oshirish uchun fikrlayotgan fidoyi
marifatparvar insonlar, fikrchan ma'naviyatchilar soni kun-sayin oshib bordi.

1-boshlovchi: Ular 70 yil ozodlikni kutgan insonlar ruhi pokini bugun shod etib,
mustaqilligimizni sharafllovchi asarlar bitmoqdalar.

Fitrat-u Cho'lponlar, Qodiriy-u Usmon Nosirlar istiqbol shamolidan to'yib nafas
olmoqchi edilar. Mustaqillik bayramini yuksak-yuksaklarga ko'tarib, g'alaba qo'shig'ini
kuylashni istardilar. Ammo Vatan istiqboli uchun misilsiz jasorat namunalarini
ko'rsatgan insonlardan faqatgina xotira qoldi. Ular orzu qilgan baxt bizga in'om qilindi.
Zero, u azaliy orzulari hisoblanib kelingan.

2-boshlovchi: Ularning pok ruhi moviy, tiniq samoda yonib turuvchi yulduzlardir.

1-boshlovchi: Sarbador ataldik, tirildik, o'ldik

Otildik, osildik, bukilmadik lek
Och bo'ldik, to'q bo'ldik, qanoat qildik
Birovning nomiga tikilmadik hech.

2-boshlovchi: O'zbekiston nurli o'lka, mening diyorim
Dunyo uzra mustaqillik bo'ldi shiorim
Istiqboling qutlamoqda yer yuzi
To'tiyodir ko'zimga istiqlol so'zi.

1-boshlovchi: Yerlarimning, kirlarimning cheki yo'q.
Yarimman, butunman, o'zimga to'qman.
Ko'ksimni ming joyidan teshsa hamki o'q?
O'zimga mag'rurman, o'zimga bekman.

2-boshlovchi: G'ururimni bo'yin o'lchab boradi
O'tgan yillarimning har bir qadami
Bayramlar quvonchi ko'ksim yoradi.
Men endi erki bor yurtning odami

FOR AUTHOR USE ONLY

"BIRINCHI QO'NG'IROQ" BAYRAMI

..... Bugun yangi o'quv yilining birinchi kuni, katta-yu, yosh, o'qituvchiyu-o'quvchi-barcha-barcha shod.

Maktab hovlisi bayramona bezatilgan. Hammayoq orasta. Devorlarda quyidagi shiorlar osilgan:

“Istiqlol muborak, O'zbekistonim!”.

“Vatan mustaqillik nuriga to'lsin!”.

“Jahon xaritasi mukammal bo'lsin!”.

“Yangi o'quv yilingiz muborak bo'lsin!”.

“Birinchi qo'ng'iroq....”

Tantanalarga ota-onalar, homiy tashkilot vakillari, mahalla vakillari, faxriy o'qituvchilar taklif etiladi.

1-suxandon: Aziz yurtdoshlar! Bugun elimizda yana katta bayram – Mustaqillik bayrami. Mustaqillik va bilimlar kuni bayramidir. Bayram muborak, aziz do'stlar!

2-suxandon: Mustaqillik kuylayman seni

Bor ovozim, kuylarim bilan.

Mustaqillik, asrayman seni

Kerak bo'lsa, qo'llarim bilan.

Mustaqillik kuylayman seni

Bor san'atim, hayotim bilan.

Mustaqillik, asrayman seni

Kerak bo'lsa, hayotim bilan.

1-suxandon: Hurmatli mehmonlar, qadrli o'qituvchilar, aziz ustozlar!

Assalomu alaykum! Bugun biz uchun haqiqiy bayram. Bugun yangi o'quv yili boshlandi. Birinchi qo'ng'iroq chalindi. Ona maktab o'z egalarini bag'riga oldi.

(Maktab haqida she'r o'qiladi).

Bugun ko'pgina uka va singillarimiz birinchi marotaba maktab ostonasiga qadam qo'ydilar. Ular ilk bor maktab, o'qituvchi-ustoz bilan yuzma-yuz kelmoqdalar. Bu jajji kichkintoylar maktabimiz dargohiga ta'lim-tarbiya olgani qadam qo'ydilar. Keling, biz bugun ularga mustahkam bilim olishlarida iroda tilab qolamiz.

2-suxandon: Bugun yurtimiz qo'sha-qo'sha bayramlarning guvohi bo'layapti. Bugungi chalinayotgan karnay-surnay sadosiga jo'r bo'lib, yangi o'quv yili boshlanayotganidan darak beruvchi maktab qo'ng'iroq ham jaranglaydi.

(“Salom maktabim” qo'shii ijro etiladi).

1-suxandon: Mustaqil mamlakatimizning eng yosh avlodi bugun intiqlik bilan, qalblarda hayajon, qo'llarda guldasta bilan maktab ostonasiga ilk qadamlarini qo'yyaptilar. Ularning ota-onalari esa kamoli ishonch bilan, kelajakka katta umid bilan

ajoyib, mehribon, bilimdon, jonkuyar ustozlar qo'llariga farzandlarini topshiradilar. O'z navbatida bolalar ham ustozlariga minnatdorchilik izhor etadilar.

(Kichkintoylarning chiqishi).

Tinchlik:

2-o'quvchi: Tinchlik bo'lsin doimo,

Osmon bo'lsin musaffo.

Quyoshdek kulsin dunyo,

Urush bo'lmasin aslo.

O'quvchilar va'dasi:

O'qiyman! Maqsadim-maktabimizning faxri, a'lochisi, erkasi bo'lmoq!

Shul qutlug', tarixiy, tabarruk yerning,

Munosib va mag'rur egasi bo'lmoq!

1-suxandon: Yurakka va keyin daftarga eng avval "Vatan" so'zini bitamiz.

VATANIM

Vatan-bu ozodlik degani.

Vatan-bu ona tilingda o'ylamoq.

Vatan-bu ona tilingda so'zlamok.

Qani bolalar, birgalashib hayqiring:

"O'zbekiston – mening Vatanim".

(O'zbekiston haqida qo'shiq ijro etiladi).

2-suxandon: Tabrik uchun so'z 11-sinf o'quvchilariga (11-sinf o'quvchilari so'z oladilar):

1-o'quvchi: Bu kun o'zgachadir,

jilvali olam,

Bu kun o'zgachadir

quvonch gullari.

Hattoki quyosh ham

jilmayganicha,

Uzatar ta'zim-la

nurli qo'llarin.

2-o'quvchi: Bu olam, siz borsiz

aziz ustozlar,

Shunchalar jilvali,

shunchalar erka,

Ana ko'ryapsizmi olam gullarin

Sizga uzatmoqda, qalblari tilka.

Ona tilim – a'lo tilim.

1-suxandon: Endigi tabriklash uchun so'z navbati mahallamiz oqsoqoliga.

(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining xalq ta'limiga oid moddasi haqida gapirib o'tadi).

2-suxandon: Navbat 10-sinf o'quvchilariga ("Tanovar" raqsi ijro etiladi).

1-suxandon: So'z boshlang'ich sinflar bo'yicha ilmiy bo'lim mudiriga beriladi.

2-suxandon: Endi azizlar, tabriklash navbatini ukajonlarimizga beramiz.

(So'z 3-sinf o'quvchilariga beriladi).

Maktabni sog'inib.

1-o'quvchi: Soh'inibman maktabim,

Rosayam, buni qarang.

Yurakdan chiqar gapim,

Yurgan ekanman arang.

2-o'quvchi: Qalbimdagi zavqimni

Qandayin bayon qilay?

Etishsang-chi, zo'r ekan

Sog'inanda har qalay.....

3-o'quvchi: Sog'intirgan birinchi;

O'qituvchim aslida

Yo'l-yo'rig'in bajardim

Ta'tilda – yoz faslida.

4-o'quvchi: Ikkinchi sog'inganim;

Sinf dosh – tengqurlarim

Ularni ko'rganimda

To'lganday bo'ldi bag'rim.

5-o'quvchi: Birimizga – birimiz,

Gap bermasdan shu asno

Yalab – yulqishar edik

Sog'inib do'st-u – oshno.

6-o'quvchi: Sinfimiz eshigichi,

Ochganday bo'ldi quchoq,

Soglinchu – sevinchimni

Ta'riflash qiyin shu choq.

7-o'quvchi: Qo'niroq jaranglari,

Musiqaday jonga huzur.

Ortiqroq aytgan bo'lsam,

Sog‘inchim, uzr-uzr.

8-o'quvchi: O'qishga sho'ng'ib ketdik,
Bo'lib dengizchi, g'avvos.
Fan durlarin terishga
Qo'ydik yanada ixlos!

1-suxandon: Muallimlarni tabriklash uchun so'z navbati 5-sinf o'quvchilariga.
(Quddus Muhammadiyning “Muallim” she'ridan o'qiladi).

1-o'quvchi: Dorga yoysam ro'molimni ohorlab,
Bulbul kuyga solar uni saharlab.
Suv sepaman eshigimga tong bilan,
Muallimim o'tadilar nahorlab.

2-o'quvchi: Muallimim mening shirin qalamim,
Tong mashqidan elga bergan salomim.
Muallimim fayzi bilan orasta,
Kelajagim, el-u yurtim, oromim.

3-o'quvchi: Muallimim – ko'kragimda maqtovim,
Muallimim – mening hayot maktabim.
Muallimim aqli bilan orasta,
Xayolginam, orzuginam, matlabim.

4-o'quvchi: Olqish sizga, mehringizga muallim!
Mehrigiyo zehningizga muallim!
Olqish, quyosh tarovati misoli,
Mehringizga, sehringizga muallim!

2-suxandon: 1-sinflarni tabriklash uchun so'z 11-sinf o'quvchilariga beriladi.

1-suxandon: Birinchi qo'ng'iroqni chalish 11-sinfning a'lochi o'quvchisi bilan 1-sinf o'quvchisiga topshiriladi.

Bayroqdor guruh chiqib ketadi.

11-sinf o'quvchilari 1-sinf o'quvchilariga esdalik sovg'alari berib, maktabga olib kiradilar. Shu vaqtda musiqa yangraydi.

Hamma o'quvchilar o'z ustozlari boshchiligida sinflariga yo'l oladilar.

TA'ZIM SIZGA USTOZLAR!

(1-oktabr - O 'qituvchilar va murabbiylar kuniga bag 'ishlangan bayram ssenariysi)

Maktab zali va sahnasiga bayramona tus beriladi. Zal devoriga o 'qituvchilar va murabbiylar haqida hadislar, hikmatli so 'zlar, allomalar so 'zlaridan namunalar va bayramga bag'ishlangan devoriy gazetalar ilinadi, sahna chiroyli guldastalar va gulchambarlar bilan bezatiladi, uning ortiga ekran o 'rnatiladi.

Bayramga taklif qilingan mehmonlar, fidoyi ustozlar hurmat bilan kutib olinadi. Magnitofon tasmasidan ustozlar haqidagi kuy taralib turadi.

Sahnaga boshlovchi qiz va yigit bayramona libosda ko 'tariladi.

Boshlovchi qiz: Assalomu alaykum, aziz va mo'tabar, mehri daryo ustozlar-u murabbiylar!

Boshlovchi yigit: Assalomu alaykum, hurmatli mehmonlar! Ustozlar va murabbiylarimizga bag'ishlangan bayramimizga xush kelibsiz!

Boshlovchi qiz:

Jahonda bo'Imasa muallim agar,

Hayot ham bo 'Imasdi bunchalar go 'zal

Boshlovchi yigit:

Olamda eng ulug' zot, qalbi oftob muallim,

Oftob kabijonlarga bergay odob muallim.

Boshlovchi qiz: Bu yorug' olamda biror kimsa yo'qki, unga ma'rifat va bilim dunyosi eshiklarini ochib bergan, qalbiga yuksak insoniy fazilatlarni singdirgan komil va orif inson bo'lishida zahmat chekkan ustoz va muallimlarga cheksiz minnatdorchilik tuyg'usi bo'Imasa.

Boshlovchi yigit: Muallim - matonat timsoli. U mehr-muhabbat, ezgulik ramzi. Bolaning murg'ak qalbiga ezgulik urug'ini qadaydigan, ilmga tashnalik, ota-ona va Vatanga mehr hissini uyg'otadigan xoksor inson ham muallimdir. (Tabrik uchun so 'z rahbarga beriladi. U bayram kechasiga tashrif buyurgan mehmonlarni, ustozlarni bayram bilan qutlaydi).

Davlat madhiyasi yangraydi.

So 'ngra sahnapardasi ko 'tariladi va uning ortida turgan o 'quvchilar tabrigi boshlanadi.

1 -o' q u v ch i:

Otaday ulug' dir ustoz degan nom,

Uning har bir so 'zi - oltin qoida,

Piri komillarga cheksiz ehtirom,

Temur yotar mangu ustozpoyida.

2-o'quvchi:

O'zbekmanglayidan taralar ziyo,

Faxr etar ulug'lar bilan Vatanim.

Beruniy, Farg'oniy, Forobiy, Kubro,

Ahmad Yassaviylar ustozim manim.

3 - o'quvchi:

Nazmda - Navoiy, tibda - Ibn Sino,
Muhaddislararo Buxoriy ustoz.
Zamaxshariy - lison ilmida tanho,
Aljabr sahnida Xorazmiy mumtoz.

4-o' quvchi:

Alloma bo 'lsa ham ilmi nujumda,
Zamon Ulug'bekka qilmadi shafqat.
Isoni sotgani kabi Yahuda,
Gohi ustozga ham qilur xiyonat.

5-o'quvchi:

Oqibat o'zlaripastda qolsa ham
Shogirdlarga yelka tutar ustozlar.
To'zonli yo 'llarda chekib ranj, alam,
Gohi zahar-zaqqum yutar ustozlar,

6-o'quvchi

Eng og'ir damlarda vazminlik bilan,
Sabr ila matonat darsin o'tarlar.
Ezgulik singdirib dillarga har dam,
Kelajakka totli meva tutarlar.

7-o 'quvchi

Hayot ummonida bamisli mayoq,
Yiroqlarga nazar tashlar ustozlar.
Sodiq shogirdlarga berarkan saboq,
Doimo haq yo 'lga boshlar ustozlar!

(Sahnada turgan o 'quvchilar xori «Muallim» qo 'shig 'ini ijro etadi).

Boshda fikr nuri - gavhar,
Bolalarga ustoz, sarvar.
Qalbi toza gullar qadar,
Bu - muallim, muallim.
Darsida gar sezsa nuqson,
Yuragida turar to'fon,
Tunlar bedor qiynalganjon,
Bu - muallim, muallim.
Ishi bilan dili birdir,
Do 'stu yorga shirin tildir.
To 'lqin ursa Amu, Sirdir
Bu - muallim, muallim.
Mustaqillik xush zamona,

Xush zamonga u parvona.
Yurtim, elim deydi yona
Bu - muallim, muallim.

(Magnitofondan Ozodbek Nazarbekov ijrosidagi «Andijonchasiga» qo'shig'i yangraydi, o'g'ilva qiz bolalari raqsga tushadilar). Parda yopiladi.

Boshlovchi qiz: Maktab va muallim - insonning yuragiga, ko'ngliga yaqin tushunchalardir. Maktab inson bolaligining pokiza damlarini mazmunli o'tkazish uchun bag'ridan joy bersa, muallim bolaga o'z qalbidan joy beradi, - degan edi donishmandlardan biri.

Boshlovchi yigit: Inson bolasi tug'ilganidan unga onasining allasi ilk saboq bo'ladi. Ota-bobosining, momosining o'g'itlari ham o'ziga xos daryo. Biroq bolaning eng beg'ubor damlarida yana bir inson ro'baro' keladi, u birinchi muallimdir.

(Zalda magnitofon tasmasiga yozilgan «Ustozlar» qo 'shig'i jaranglaydi).

Boshlovchi zalda o 'tirgan o 'quvchilardan ikki nafarini sahnaga taklif etadi. Ularning ko'zlarini ro 'mol bilan bog 'laydi va shunday deydi):

- Oldingi qatorda sizlarning birinchi o'qituvchingiz o'tiribdilar. Siz ularni topishga harakat qiling.

Boshlovchi qiz: Hozirgi kunda Respublikamizda ko'p sonli yoshlarni o'z farzandidek sevadigan ming- minglab fidoyi o'qituvchilar mehnat qilmoqdalar. Ularning mehnatini igna bilan quduq qazishga menzash mumkin. O'zbek xalqida «Ustoz - otangdek ulug'» degan maqol bor. Bu maqolda olam-olam ma'no mujassam: agar ota-ona farzandni dunyoga keltirsa, uni kamolga yetkazadigan, yetuk inson qiladigan ustozdir.

Hazrat Alisher Navoiy:

Haq yo 'lida kim senga bir harf o 'rgatmish ranj ila,

Aylamak bo 'lmas ado oning haqin yuz ganj ila, - deganida juda haqli edilar.

Quyidagi «O'qituvchim - ustozim» qo'shig'ini bir guruh o'quvchi kuylaydi.

O'qituvchim, aziz ustozim,

Sizga doim qilurmiz ta'zim.

Dars berdingiz dildan quvonib,

Tinglagaymiz mehrga qonib.

N a q o r a t

Baxtimizga yashang bor bo 'ling,

Bizni ko'rib quvonchga to 'ling.

Ilm yo 'lin bizga ochdingiz,

Qalbimizga ziyo sochdingiz.

O 'qib bildik ilmlar tilin,

Hisobi yo'q jumboqlar sirin.

N a q o r a t

Baxtimizga yashang bor bo 'ling,
Bizni ko 'rib quvonchga to 'ling.

Boshlovchi yigit: Xalqimiz ustoz nomini hamisha ulug'lab, hurmat bilan tilga oladi, e'zozlaydi. Aslida bunday iliq munosabatlarning ildizi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Sohibqiron Amir Temur dorulbaqoga yuz tutganda o'zining xokini ustozining oyoq uchiga qo'yishlarini aytgan edi. Oradan 600 yildan ko'proq vaqt o'tgan bo'lsa ham sohibqironning tutgan yo'li butun dunyo xalqlariga namuna bo'lib qolmoqda. Demak, bizga dunyoni ilm-fan, madaniyat nuqtai nazaridan ta- nitgan ustozlarimizni, muallimu murabbiylarni e'zozlash ajdodlarimizdan merosdir.

(Ektranda maktab hayotidan lavhalar namoyish etiladi).

Boshlovchi qiz: Elni aziz qilar, elda azizlar. Muallimlar ...Qalbi ummon, mehri daryo tabarruk zotlar. Ular sabr-qanoatli, metin irodali, buyuk maqsadli insonlar. Ular fidoyi, tunlari shirin uyqudan voz kechib, kitob o'qib, daftar qarab bolajonlar qalbiga yo'l topishga, bilim sirlarini singdirishga intiladilar. Ular - bolajon, har bir qora ko'z shogirdini o'z farzandiday sevib, qalb qo'rini baxshida etadi. Ular - vatanparvar. «Bolajonlarim o'sib, ulg'ayib ona yurtga munosib farzand bo'lsin», - deb niyat qiladilar Ular izlanuvchan, ijodkor.

Boshlovchi yigit: Ular «Ta'lim to'g'risi»dagi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» «Harakatlar strategiyasi», «Besh tashabbus» asosida o'qitishning zamonaviy usullarini topishga intiladilar. Ular nigohidagi mehrni, e'zoz-u ehtiromni ko'rganda beixtiyor ta'zim bajo etamiz. Yo'llaringiz hamisha oydin, ezgu niyatlaringiz yo'ldoshingiz bo'lsin. Yuzlaringizda mehr nuri porlayversin, qalbingizdagi ezgulik chashmasi aslo qurimasin, aziz ustozlar!

Bir necha o'quvchi «Ustozlarim» qo'shig'ini ijro etadi.

Qaynoq qalbi - misli chiroq,
Fikri tiniq —jo 'shqin buloq,
Tongday tiniq tilaklari,
Yurgan yo 'li mangu porloq.
Mehrigiyo ustozlarim,
So'zi ziyo ustozlarim.
Pur ma'no bor so 'zingizda,
Quyosh balqir yuzingizda.
Bashar sizdan kamol topar,
Chechak unar izingizda.
Mehrigiyo ustozlarim,
So'zi ziyo ustozlarim.
Havas qilar sizga lochin,

Ko 'kka yozib keng qulochin.
Pok vijdon-u imon ila,
Oqlayapsiz el ishonchin.
Mehrigiyo ustozlarim,
So 'zi ziyo ustozlarim,

Boshlovchi qiz: Bobolarimiz qoldirgan me'ros ma'naviyat bulog'i. Ma'naviyatsiz esa kelajak yo'q.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning istiqbolimiz dasturi bo'lmish «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida shunday gaplar bor: «Biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib, o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi».

Boshlovchi yigit: o'qituvchi-jamiyatning yorqin siymolaridan biridir. Yozuvchi o'tkir Hoshimov: «Murg'ak bolaning oppoq qalb daftariga insonlik degan so'zni o'yib yozish huquqi faqat o'qituvchiga berilgan», - degan edi.

- Qadrlı o'quvchilar, kim o'zi sevgan o'qituvchisini chiroyli ta'riflaydi? olib zaldagilarning qarsaklari kuchiga qarab belgilanadi. (3-4-o'quvchi ta'rifi tinglanadi va g'olib rag'batlantiriladi).

Boshlovchi qiz: Xalqimiz o'qituvchi - millat tarbiyachisi, yosh avlod bog'boni deb bejiz aytmaydi.

Ustozlarning mas'uliyatli, ammo sharaflı kasblarini bir mash'alaga qiyos etish mumkin.

Boshlovchi yigit: Donolarimiz aytganidek, elni ma'rifat asraydi, u elni taraqqiy ettirib, ezgu niyati, orzu-umidiga yetkazadi. Demak, ustozlarimiz zimmasiga kelajagi buyuk davlatning komil, har tomonlama barkamol, ma'naviy pok, vatanparvar, mehnatsevar insonlarini yetkazib berishdek yuksak vazifa yuklangan.

Endi e'tiboringizga dars jarayonlaridan lavhalar havola etamiz.

Adabiyot darsida

(Sahnaga o'quvchi va o'qituvchi uchun o'rindiqlar qo'yiladi. Qo'ng'iroq chalinib sinfga avval o'quvchilar, so'ngra qo'lida «Adabiyot» darsligini ko'tarib o'qituvchi kirib keladi. Bolalar o'rinlaridan turib o'qituvchini kutib oladilar.O'qituvchi oldinda o 'tirgan o 'quvchini turg'azib yod olgan she 'rlaridan birini aytib berishni so 'raydi).

o'qituvchi: Juda yaxshi, endi shu she'rning ma'no sini o'z so'zlaring bilan aytib bergin.

o'quvchi: Aytolmayman.

o'qituvchi: Nega?

o'quvchi: o'qiyotganimda quloq solganim yo'q.

(Qo'ng'iroq chalinib, o'qituvchi o'quvchilar bilan xayrlashib chiqib ketadi).

Ona tili darsida o'qituvchi qo'lida «Ona tili» darsligi bilan sinfga kiradi.

o'qituvchi: Gulnora, qand so'zi ishtirok etgan gap tuzgin.

o'quvchi: Ertalab qahva ichdim.

o'qituvchi: Bu gapingda qand so'zi qani?

o'quvchi: Qahva ichida erib ketdi.(Parda yopiladi),

Matematika darsida

(Qo'ng'iroq chalinadi. Qo'lida «Matematika» darsligi bilan matematika o'qituvchisi sinfga kiradi va o'quvchilar bilan salomlashadi).

o'qituvchi: Agar sigir bir kunda 2 litr sut bersa bir haftada undan qancha sut sog'ib olish mumkin?

o'quvchi: Sigir haftada necha kun ishlaydi? (Qo'ng'iroq chalinib, o'qituvchi sinfdan chiqib ketadi).

Geografiya darsida

Qo'lida «Geografiya» darsligi bilan o'qituvchi sinfga kiradi.

o'qituvchi: (O'quvchiga murojaat etib) Yarim orol nima?

o'quvchi: o'rtasidan ikki bo'lingan orol.

(Qo'ng'iroq chalinadi va o'qituvchi sinfdan chiqib ketadi).

Zoologiya darsida

(Qo'ng'iroq chalinib, o'qituvchi qo'lida «Zoologiya» darsligi bilan sinfga kiradi).

o'qituvchi: Bobur, Afrikada yashaydigan 6 ta hayvonni ayt.

o'quvchi: Fil, karkidon, yo'lbars va 3 ta qoplon.

Fizika darsida

(Qo'ng'iroq chalinadi. O'qituvchi qo'lida «Fizika» darsligi bilan sinfga kiradi).

o'qituvchi: Bolalar, elektr lampasini yondirmoqchi bo'ldim, lekin u yonmadi.

Xo'sh, nima sabab bo'lishi mumkin?

o'quvchi: Elektr haqini to'lamagan bo'lsangiz kerakda. (Qo'ng'iroq chalinadi va o'qituvchi sinfdan chiqadi).

Boshlovchi yigit: Ustozlar haqida qancha gapirsak ham oz.

Boshlovchi qiz: Ha, juda to'g'ri, muallim - ustoz shunday mo'tabar zotki, uning nomi ham umri ham hamisha boqiydir.

Boshlovchi yigit: Biz kelajagi buyuk mustaqil O'zbekistonimizning egalarimiz. Qadrli ustozlar, sizlarning bergan ilmlaringizni o'z vatanimiz ravnaqi, osoyishtaligiga sarflaymiz.

Bir guruh o'quvchilar «Sizsiz, ustozlar» qo'shig'ini ijro etadilar.

Shogirdim obro'yim - yuzim degan zot,

Ishonchim, umidim - ko'zim degan zot.

Bolajonim — o'g'lim, qizim degan zot,

Bu sizsiz ustozlar - xokisolarim.

Sabr ham, toqat ham, bardosh ham sizsiz,

Goh quvonch, goh alam - ko'zyosh ham sizsiz,

Siz mening g'ururim iftixorlarim.

Boshlovchi qiz: Aziz va mehribon ustozlar, yana bir bor bayramingiz bilan chin qalbimizdan tabriklaymiz.

Boshlovchi yigit: Sizlarga sog'lik-salomatlik, barkamol avlodni tarbiyalash yo'lidagi mashaqqatli, lekin ulug' va sharaflı, savob ishlaringizda ulkan zafarlar va omadlar, oilangizga esa tinchlik, osoyishtalik, shodu xurramlik tilaymiz.

Boshlovchi qiz: Shogirdlaringiz va farzandlaringiz kamolini ko'rish barchangizga nasib etsin!

(Jonli ijroda «Muallimlar» qo 'shig'i yangraydi).

FOR AUTHOR USE ONLY

TIL - MA'NAVIYAT KO'ZGUSI

1-boshlovchi:

Assalom, ey ilm-u urfon bog'ining bog'bonlari,
Assalom, ey chin ma'rifat sohib-u davronlari.
Assalom, ey mehribonlar, so'zlari mehriyo,
Bugun yana yuz ko'rishdik, xush kelibsiz, marhabo.

2-boshlovchi:

Sizga ming ta'zim, tahsin, eng avvalo ustozlar,
Xush kelibsiz davramizga ming marhabo, ustozlar.
Ko'nglingizdan ko'nglimizga mehringiz topibdi yo'l,
Fayzingizdan kechamizga zavqu safo, ustozlar.

1-boshlovchi:

Assalomu alaykum muhtaram va aziz mehmonlar, qadri baland qadrdon ustozlar, aziz o'quvchilar!

2-boshlovchi:

Mana, yurtimiz bo'ylab muborak sana shodiyonasi kezmogda. 1989-yil 21-oktabrda o'zbek tili davlat tili deb e'lon qilindi. Mana bugun o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligiga roppa-rosa 31 yil to'ldi. Shu munosabat bilan "Til – ma'naviyat ko'zgusi" mavzusidagi bugungi adabiy-badiiy kechamizga xush kelibsiz, azizlar!

1-boshlovchi:

Til – millatning boyligi va bebaho mulki. Til – xalqning o'tmishi, buguni va kelajagini bog'lovchi ulug' karvon yo'lidir. Aslida noyob ijtimoiy-siyosiy hodisa bo'lgan til insonga tabiatning bebaho ehsonidir.

2-boshlovchi:

Til - ma'naviyat olamini tutib turuvchi ustun. Xalq hayotining oynasi, tiniq ko'zgusidir. Til millatning o'zligi, demak, til bayrami – millat bayrami, yurt shodiyonasidir. Mana shu shodiyona barchangizga muborak bo'lsin.

1-boshlovchi:

Ming bir eldan bizga nasib bo'lgan tilim,
Ming yillardan omon o'tib kelgan tilim.
O'zbekimni asl o'zbek qilgan tilim,
Tillar ichra o'zing buyuk zamonimsan.
Ona tilim, mening ikki jahonimsan.

2-boshlovchi:

Sen dildagi orzularga qanot berding,
Har mushkul-u xatolarda najot berding,
Yashash uchun hech tuganmas hayot berding.
Tillar ichra o'zing buyuk zamonimsan.
Ona tilim, mening ikki jahonimsan.

1-boshlovchi:

Bugun davramizga ona tilimizning jonkuyarlari, fidoyi va aziz insonlari tashrif buyurganlar. Marhamat, ular bilan tanishing. Mehmonlar tanishtiriladi va ularga so'z beriladi.

Qo'shiq.

Ona tili haqidagi she'rlar.

Ona tilim, onamdek pok tilimsan,
Yuragimda ungan alvon gulimsan,
Abdullosan, Mirtemirsan – dilimsan
O'tar o'g'li kuylab o'tgan yo'limsan
Shuurimsan, g'ururimsan, elimsan.
O'zga yurtida Furqatga g'urur bergan,
Muqimiyning she'riga shuur bergan,
Gulxaniylar yuragiga nur bergan
Chuchuk-chuchuk so'zlab topgan tilimsan
Bo'ynimdagi tumorimsan, gulimsan.
Navoiy ham sendan qonib kuyladi,
Shoh Bobur ham yonib-yonib kuyladi,
Ustoz Lutfiy gulga inib kuyladi
Bobolardan me'ros qolgan tilimsan
Qo'limdagi mushki anbar gulimsan.
Daholar ham qadring bilgan, suyganlar,
Qimmatingni dildan-dildan tuyganlar,
Sening bilan o'zga haykal qo'yganlar
Ming zarbadan omon olgan tilimsan
Buyuk karvon o'tgan oydin yo'limsan.
Qoshariyning kitobida tiriksan,
Yugnakiyning har bobida tiriksan,
Yassaviyning javobida tiriksan
Ona tilim, muqaddassan, buyuksan
Ma'volardan go'zalroqsan, suyuksan.

Matluba Samadova

Ona tilim

Ming yillarkim, bulbul kalomi
O'zgarmaydi yaxlit hamisha.
Ammo sho'rlik to'tining holi
O'zgalarga taqlid hamisha.

Ona tilim, sen borsan, shaksiz,
Bulbul kuyin she'rga solaman.

Sen yo'qolgan kuning shubhasiz,
Men ham to'ti bo'lib qolaman.

Abdulla Oripov

1-boshlovchi:

Ona tili kishilik jamiyatining, elatning, millatning, xalqning mohiyatini tayin etadigan, oddiy, ammo oliy omil ekanligi kunday ravshan. Ayni paytda, ona tili inson kamolotini ta'min etadigan, uni aqlan va ruhan harakatga keltiradigan benazir kuchdir.

2-boshlovchi:

Ona tili millatning ijodiy qudrati, aqliy salohiyatini doimiy ravishda qayrab turadi. Bu qudratu salohiyatni ona tilimizsiz tasavvur etish mushkul.

1-boshlovchi:

O'zbek tili asosan, VII-VIII asrlarda shakllana boshladi va XIV-XV asrlarda Lutfiy, Sakkokiy, Navoiy, Bobur ijodida o'zining yuksak cho'qqisiga ko'tarildi.

2-boshlovchi:

Bu rivojlanish Ogahiy, Mashrab, Furqat, Muqimiylar ijodida izchil davom etdi. Ammo sobiq sho'ro davrida o'zbek tili ikkinchi o'ringa surib qo'yildi. Ne-ne zabardast olimlarimiz, ijodkorlarimiz qatag'on qilindi.

“Kechir meni, ona tilim”

“Dutor chalib o'ltirsam...” Raqs.

2-boshlovchi:

Toshlar to'fonida bari tilimsan,
Ko'ksim changallagan qonli qo'limsan.
Oyga almashmasman, kunga bermasman.
Cho'lpon yuragida ungan gulimsan.

1-boshlovchi:

Qadrin so'rasangiz qarorim, tilim,
Ko'ngil osmonida chaqmog'im, tilim.
Nonidek totli-yu, cho'g'idek issiq,
O'zbek ko'ksidagi bulog'im, tilim.

1-boshlovchi:

O'zbek tilining rivojlanishiga behisob hissa qo'shgan buyuk shaxslar ko'p. Biroq buyuk mutafakkir A.Navoiy nomini alohida ta'kidlash joiz. Alisher Navoiy o'zbek adabiy tilining rivojlanishi, taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shdi. U “Xamsa”, “Xazoyin-ul maoniy”, “Majolis-un nafois”, “Mahbub-ul qulub” kabi qator asarlarini o'zbek tilida yaratib, ona tilimizning betakrorligi, go'zalligi, nafis-u jozibador ekanligini isbotlab berdi.

2-boshlovchi:

Mirzo Bobur aytganidek, “Alisherbek naziri yo'q kishi erdi. Turkiy tila bila to she'r aytibturlar, hech kim oncha ko'p va xo'p aytqon emas”.

Alisher Navoiy sahnada.
Hikmatli so'zlar.

Ko'ngil maxzanining qulfi tildir,
Va ul maxzanning kalitin so'z bil.
So'zdurki, nishon berur o'likka jondin,
So'zdurki, xabar berur jona jonondin,
Insonni so'z ayladi judo hayvondin
Bilkim, guhari sharifroq yo'q ondin.

“Sohibqironim” qo'shig'i.

A.Qodiriy haqidagi she'r
1-boshlovchi:
Qadrim so'raganda qayrog'im tilim,
Yorning ta'rifida qaymog'im tilim.
Yovning yuragiga titroqlar solgan,
Alpomish belida belbog'im tilim.

2-boshlovchi:
Yassaviy baytida tumorim tilim,
Navoiy nazmida sen orim tilim.
Kumushning vasfida betakror malak
Qodiriydan qolgan yodgorim tilim.

1-boshlovchi: Abdulla Qodiriy o'zining go'zal va betakror asarlari bilan o'zbek tilining imkoniyatlarini yana bir bor yoritib oldi. Uning “O'tgan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlari o'zbek tili bo'stonidagi muhtasham chinorlardandir.

E'tiboringizga “O'tgan kunlar” romanidan kichik bir ko'rinishni havola etamiz.

Muhammad Yusufning “Kumush monologi” she'ri.

Sizga bir armon bo'lay, zolim begim,
Jayron bo'lay quvlab yetib oling, begim.
Marg'ilonning yo'liga boshim qo'yib
Jon beray, Zaynab bilan qoling, begim.
Sig'madim kundoshning bu tosh shahriga,
Dosh berolmam bu qardoshlar zahriga.
Yordan ayrildim qaro yer bag'riga
Jo bo'lay, Zaynab bilan qoling, begim.

2-boshlovchi: Azizlar! O'zbek tili rivojiga o'z hissasini qo'shgan olim-u ulamolarimiz ko'pdir, ammo ular orasida buxorolik vatandoshlarimizning borligi biz uchun yuksak faxrdir.

Ona tilimiz nufuzini oshirish, nutqimiz sofligini ta'minlash yo'lida zahmat chekkan aziz insonlar – Mustaqim Mirzayev, Asqar G'ulomov, Abdullayev, Nazira Sattorovalar nomlarini alohida ta'kidlash joiz. Ilohim, o'tganlarni Olloh rahmat qilsin.

1-boshlovchi: Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, “Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir.”

2-boshlovchi: Darhaqiqat, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi bu Vatanimiz tarixidagi tom ma'nodagi buyuk tarixiy voqea edi.

1-boshlovchi: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan aniq belgilanib, mustahkamlab qo'yildi. Shu tariqa o'zbek tili mustaqil davlatimizning bayrog'i, gerbi, madhiyasi, Konstitutsiyasi qatorida turadigan, qonun yo'li bilan himoya qilinadigan muqaddas timsollaridan biriga aylandi.

“Ona tilim o'lmaydi” she'ri.

1-boshlovchi: Ona tilingizda ilk so'zlarni qachon eshitganligingizni eslay olasizmi? Keling, birga eslaymiz.

O'rikzor ichidan oy nurin to'kar,
Oq o'rik guliga shodlik baxsh etib.
Qaydadir bir inson zo'r qo'shiq kuylar,
Umidbaxsh dillarga orzu naqsh etib.

2-boshlovchi:

Olamga taralar bu mas'um qo'shiq,
Maysalar talpinar ushbu qo'shiqqa.
Bu qo'shiq yurakka atalgan tortiq,
Ona allasi bu kuylanmish ko'kdan.

“Alla” qo'shig'i.

1-boshlovchi: Tilimizning nafosati, go'zalligi va jozibasi har birimizning qalbigizga ilhom solishi tabiiy. Endi navbatni ijodkor o'quvchilarga bersak. Marhamat, ularni davraga taklif etamiz.

Qo'shiq..

1-boshlovchi:

Inson bo'lsang, asra tilingni,
Ranjitolmas hech kim dilingni.
Ona tiling senga yor bo'lsin,
Hayotingda madadkor bo'lsin.

Aziz mehmonlar, qadrlı o'quvchilar! Shuning bilan “Til – ma'naviyat ko'zgusi” mavzusida tayyorlagan adabiy-badiiy kechamiz o'z nihoyasiga yetdi. E'tiboringiz uchun tashakkur. Yaxshi kunlarda diydor ko'rishishni Olloh nasib aylasin.

ONA TILIM – SEN RUHIMNING QANOTI

1-boshlovchi: Onalar alla aytsa, tushib quyosh tinglaydi.
Otalar duo etsa, erib to-tosh tinglaydi.
Qalblarni tinglamang, ko'zdagi yosh yig'laydi.
Ularga tiz cho'kkanlar sizga assalom.

2-boshlovchi: Ustoz etagin tutgan shogird qachon xor bo'lgay,
Vatanim deb yonganlar qay zamon nochor bo'lgay.
Iymon tug'in tutganlarga dunyo qachon tor bo'lgay,
El-yurt dardin uqqanlar, sizga assalom.

1-boshlovchi: Assalomu alaykum ilm-u ziyo zarchashmasi bo'lmish aziz ustozlar!

2-boshlovchi: Assalomu-alaykum qalblarga ezgulik urug'in sochayotgan hurmatli hamkasblar!

1-boshlovchi: Bu turkiy zamin ne-ne sinovlarni boshidan o'tkazmadi, deysiz.

2-boshlovchi: Turk bosqini, mo'g'ullar zulmi, arab istilosi, rus istibdosi... Bardoshi asrlarga teng xalqimiz sabr otli daraxtdan o'ziga haykal qo'ydi go'yo.

1-boshlovchi: Qay bir bosqinchi millatning boshi uzra qonli shamshirni o'ynatar ekan, eng avvalo, ona tilimizni, dinimizni, ma'naviyatimizni yo'qotmoq istadi.

2-boshlovchi: Ha, ona tilimiz ajib bir gul ediki, g'unchasidan judo etdilar. Shunday bir daraxt ediki, quyosh tomon oshiqqan noydalarni chopdilar, ammo "kallaklangan tut" singari yana yuksaklarga intilaverdi.

1-boshlovchi: Ona tilimizni yo'qotmoq istagan kimsalar 72 tomirini yo'qotib bo'lmashligini, ona allasi bilan kirgan tilimizga muhabbat tuyg'usini qalbdan chiqarib bo'lmashligini qayerdan bilsin.

2-boshlovchi: Prezidentimiz aytganidek, "Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir".

1-boshlovchi: 1989-yil 21-oktabr. Bu kun xalqimiz tarixida o'zini tanigan kunlardan biri bo'lib qoldi.

2-boshlovchi: Bu kuni turli istibdodlar davrida toptalgan, xo'rlik zanjiri ila bog'langan ona tilimizga Davlat tili maqomi berildi.

1-boshlovchi: Ushbu tarixiy kunga bugun 31 yil to'ldi. Barchangizga g'urur va iftixor ramzi bo'lmish til bayrami qutlug' bo'lsin.

2-boshlovchi: Marhamat! Shu munosabat bilan tayyorlagan "Ona tilim – sen ruhimning qanoti" mavzusidagi bayram dasturimizni tinglab tomosha qiling.

-Men qadim Turkiy til, Turkona tilman,

Yofas, Abuturkda buyuk bir me'ros.

Alfozim chechakdir, sharqona tilman,

Latofat, nazokat, jarang menga xos.

O'rxun – Enasoydan toshlarga ko'chdim,

O'lim To'nyuquqning nidosi bo'lib,

Ne-ne to'fonlardan sog'-omon kechdim,

Temurdek mard o'g'il sadosi bo'lib.
Ey turkiy "Shohnoma" – "Qutadg'u bilig"
Hojib qalamida bitildi menda.
O'zim ulug' tilman, ulug' degulik.
To'maris, Shiroqning shiddati menda.
Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni"da men,
Alforizm jilosi, ko'rkini ko'rdim.
Har subhu sodiqda beshik tebratgan,
Ona allasida olamni ko'rdim.
Ulug' asar bitdi Ahmad Yugnakiy,
Mening alfozimdan terib chechaklar.
Ahmad Yassaviyning hikmatlarida,
Olloh kalomiga qondi yuraklar.
Rabg'uziy qissasin o'qigil o'lim,
Sen undan topasan dardingga malham,
Ular shunchaki bir qissalar emas,
Unda payg'ambarlar o'gitlari bor.
Bobong Xorazmiy Sir yoqasida,
"Muhabbatnomasin" yozib bitganda.
Shakardek til bo'lib, olamni tutdim,
Quvonchdan yig'ladim bolam, o'zim ham.
Sayfi Saroyi bu – tengi yo'q shoir,
"Guliston" ni bitdi men turkiy tilda.
Sa'diy o'gitlari joy topdi mangu,
Har turkiy yurag-u, har turkiy tilda.
Atoyi bobomning har bir baytida,
Jilo berdim o'zim ko'rk berdim, o'zim.
Lutfiy g'azallarining ajab taftida,
Yana jilolandim, toblandim o'zim. (S. Shukur)

1-boshlovchi: Til haqida Qonun bizga nima uchun kerak?

G'ururimizni namoyish qilish uchunmi?

Izzat-nafsimizni qondirish uchunmi?

2-boshlovchi: Yo'q bizga til haqidagi Qonun o'zligimizni saqlab qolish uchun, tilimizni yo'qotib yubormaslik uchun.

1-boshlovchi: O'zbek degan xalqning yo'q bo'lib ketmasligi uchun, milliyligimizni unutmasligimiz uchun kerak.

2-boshlovchi: Endi esa ona tilimizni madh etuvchi she'rlarni e'tiboringizga havola etamiz.

(Til haqida she'r)

1-boshlovchi:

Ming yillarkim bulbul kalomi.

O'zgarmaydi, yaxlit hamisha,

Ammo sho'rlik to'tining holi,

O'zgalarga taqlid hamisha

2-boshlovchi:

Ona tilim, sen borsan shaksiz,
Bulbul kuyin she'rga solaman.
Sen yo'qolgan kuning shubhasiz,
Men ham to'ti bo'lib qolaman.

Endi esa ona tilimiz orqali avloddan-avlodga yetib kelgan xalq qo'shiqlarini tinglab, dam oling. (Xalq termalari “Kelin salom”)

1-boshlovchi: Til – o'tgan avlodlar tajribasi, bilimlar natijalarini kelgusi avlodlarga yetkazuvchi ko'prik hamdir.

2-boshlovchi: Shuning uchun ham qo'lga qalam olgan ijodkor borki, onaga nisbat berilgan tilimizni madh etib she'rlar bitadi. Kelinglar, navbatni kursimiz tinglovchilaridan ijodkor o'qituvchilarga beraylik.

1-boshlovchi: O'zbek tilining rivojlanishida behisob hissa qo'shgan buyuk shaxslar ko'p. Bulardan tilimizning otasi M. Qoshg'ariy uning “Devoni lug'otit turk” lisoniy qomusimiz, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asarlarin diqqatga molikdir.

2-boshlovchi: Shu o'rinda o'zbek adabiy tiliga asos solgan, uni Davlat tili maqomiga ko'targan millat fidoiylaridan biri A. Navoiy.

1-boshlovchi: Biz har gal tilimizning raynaqi haqida gap ketganda Navoiy-u Boburlarni, Mashrab-u Ogahiyarni tilga olamiz.

2-boshlovchi: Bugungi muqaddas kunda ana shunday zukko shoirlarimiz mushoirasidan bahramand bo'lasiz.

1-boshlovchi: Marhabo, ey payki Sulton marhabo
Hududi mulki Sulaymon marhabo.

2-boshlovchi: Tal'atning farroh, muborak maqdaming,
Qildi kulbimiz Guliston marhabo.

1-boshlovchi: Xalq qo'shiqlari azal-azaldan millat yuragiga yaqin qo'shiqlar. Chunki ularda xalqning orzu-armonlari, quvonch va iztiroblari ona tilimizda o'z jilosini topgan.

2-boshlovchi: “Daryo toshqin” qo'shig'i kuylanadi jonli ijroda.

1-boshlovchi: Endigi navbat...

2-boshlovchi: Bu til Navoiyning latif navosini, Boburning Vatan sog'inchini, Qodiriy armonlari-yu Otabek va Kumushning dil nolalarini asrlar osha opichlab o'tgan tildir. Tinglang! Kumushning Otabekka maktubi shu tilda yangraydi.

(Kumush sahnasi, “Zolim begim” qo'shih'i)

1-boshlovchi: Ona tilimizga Davlat tili maqomi berilgach, 24-moddadan iborat Davlat tili haqidagi Qonun ishlab chiqildi.

2-boshlovchi: Keling, uning ba'zi moddalarini yodga olaylik.

1-modda: “O'zbekiston Respublikasining Davlat tili – O'zbek tilidir”

1-boshlovchi:

2-modda: O'zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi Respublika hududida yashovchi millat va elatning o'z ona tilini qo'llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga mone'lik qilmaydi.

2-boshlovchi:

4-modda: O'zbekiston Respublikasida Davlat tilini o'rganish uchun barcha fuqarolarga shart – sharoit hamda uning hududida yashovchi millatlar, elatlarning tillariga izzat va hurmat bilan munosabatda bo'lish ta'minlanadi.

1-boshlovchi: Notiq dedi: Taqdir shul, bu jahoniy iroda.
Tillar yo'qolur butkul, bir til qolur dunyoda
Ey Voiz pastga tushgin, bu gap chiqdi qayerdan.
Navoiy bilan Pushkin chiqib keldi qabrdan.

2-boshlovchi: Kim darg'azab, kim hayron, chiqib keldilar qator,
Dante, Shiller va Bayron, Firdavsiy, Balzak, Tagor.
Va'zingni qo'y birodar, sen aytganing bo'lmaydi.
Barcha dedi barobar – ona tilim o'lmaydi.

1-boshlovchi: “Faust” yondi gurillab, “Xamsa” o'tga tutashdi,
Bir sado jahon bo'ylab, taraldi, tolar oshdi.
Bu sado yangrar hamon sira ado bo'lmaydi.
Olam aytar: “Hech qachon ona tilim o'lmaydi”.

2-boshlovchi: Shuning bilan til bayramiga atab ona tili bo'limi tinglovchilari tomonidan tayyorlangan “Ona tilim – sen ruhimning qanoti” mavzusidagi tadbirimiz o'z nihoyasiga yetdi.

1-boshlovchi: Istardik-ki, tilimizning sofliqi, o'zbekona g'urur va faxr tuyg'usi sizni hech qachon tark etmasin.

Ikkala boshlovchi: Xayr, sog' va omon bo'ling!

Yurtlarni zabt etgan hazrat Navoiy Qalblarda naqsh bitgan hazrat Navoiy

Sahna bayramona ruhda bezatilgan. A.Navoiy portreti, asarlari va qimmatli so'zlari ko'zga yaqqol tashlanib turibdi. Magnitafon tasmasidan mumtoz kuy yangrab, A.Navoiy qalamiga mansub qo'shiqning bir qismi ijro etiladi va sahnaga ikki boshlovchi chiqadi.

I boshlovchi- Besh yarim asr naridan kelmoqda sado,
G'azal mulkida u tanho va yakto.
Bobomni eslabon deymiz “Bismillo”
Qutlug' yosh muborak, ey nurli daho.

II boshlovchi - Assalom, Navoiy! – deydi yosh avlod
Olqishlaydi xalqi baxtiyor.
Shoir, arzir qilsang iftixor,
So'zing yangrar, ko'ngillarda yod.

“Cho'li iroq” kuyi
I boshlovchi:
Shamni ko'r shamday bo'l, kuyib jism-u tan,
O 'zgalar bazmini qiladi ravshan.

II boshlovchi:
She'riyat-bu guliston azal,
Unda yashar xushxon bulbullar,
Yonib yashar unda millatim,
Elim degan buyuk shoirlar.

Drammaturg I.Sultonning “Navoiy” drammasidan parcha ko'rsatishdi. “Navoiy” monologidan parcha ijro etdi.

I boshlovchi:
Assalomu alaykum, qadri baland, aziz ustozlar! Aziz va muhtaram mehmonlar!
O'zbek xalqining buyuk iftixori, buyuk mutaffakkiri, turkiy tilni jahon aro tanitgan g'azal mulkining sultoni Nizomiddin Mir Alisher Navoiy tavalludini nishonlash mamlakatimizda eng yaxshi an'ana va katta shodiyonaga aylangan.

II boshlovchi: Hazrat Navoiy tavalludlari 9-fevralda bo'lsada, fevral oyining an'anaviy Navoiyxonlik oyligiga aylanib ketganligi be'jiz emas, albatta.

I boshlovchi: Alisher Navoiy dahosi-she'riyat olamining noyob durdonasi. Mo'jizalar olami ichra benazir mo'jizadir. Shunday sehrli tabiatning nodir tuhfasi, saxovat va adolat ramzidir.

Hazrat Navoiy adabiyotga shoir sifatida kirib kelib, she'riyat qasrini qurdi, g'azal mulkining sultoniga aylandi, qator dostonlar yaratdi, adabiyotshunos, tilshunos, davlat va jamoat arbobi sifatida dunyoga tanildi.

II boshlovchi : Bugungi tadbirimizning boisi va maqsadi ham osmonimiz uzra charaqlagan ma'naviyatimizning porloq quyoshi ziyosidan bahramand bo'lmoq, hazrat Navoiy xotirasini yodga olib, ruhi poklarini shod etmoq.

Marhamat, A.Navoiyning "Deyin" radifli g'azali kuyga solib ijro etiladi.

Qoshi yosinmu deyin, ko'zi qarosinmu deyin,
Ko'ngluma har birining dard-u balosinmu deyin?!
Ko'zi qahrinmu deyin, kipriku zahrinmu deyin,
Bu kudurat ora ruxsori safosinmu deyin?!
Ishqi dardinmu deyin, hajri nabardinmu deyin,
Bu qatiq dardlar aro vasli davosinmu deyin?!
Zulfi dominmu deyin, la'li kalominmu deyin,
Birining qaydi, yana birning adosinmu deyin?!
Turfa holinmu deyin, qaddi niholinmu deyin,
Movi(y) ko'nglak uzra gulrangi qabosinmu deyin?!
Charx ranjinmu deyin, dahr shikanjinmu deyin,
Jonima har birining javr-u jafosinmu deyin?!
Ey Navoiy, dema qosh-u ko'zining vasfini et,
Qoshi yosinmu deyin, ko'zi qarosinmu deyin?!

I boshlovchi:

Siz shoirsiz, siz vorissiz-dushmanga qalqon,
Iymondirsiz vijdondirsiz-siz aziz inson.
Qalblar aro ko'tarmoqda ruhingiz isyon,
Sizday mard zot tug'ilsa deb umidvor jahon.
Hazrat Navoiy, sizni yod etajakmiz,
Olam aro ruhingiz shod etajakmiz.

II boshlovchi:

So'zning qudratini jamlab qalamga,
O'zbeklar dong'ini yoydi olamga.
Ovrupo, Amriqo, Rumu Farangda
Turkiy so'z sehridan qoldilar tanda.
Yurtlarni zabt etgan Hazrat Navoiy,
Qalblarda naqsh bitgan Hazrat Navoiy.

I boshlovchi:

Kitobing kirmagan o'zbek elida xonadon yo'qdir,
Ruboiy, kuylaring yod bilmagan bir jonajon yo'qdir.
Yetuk avlodlaringdur ilm-u donishli, gumon yo'qdir,
Ko'ngillarni yortdik ma'rifatdan mohitob aylab.

II boshlovchi:

Baytingga bir bora qovushgan har lab,
Takrorlab ketgusin Mahshargacha to.
Qaratib turibsan bu yon,ne ajab,
Milliard martabali jahonni hatto.

I boshlovchi: Azizlar,haqiqatdan ham, Hazrat Navoiy ijodiyoti shunday bir dengizdirki,unga qancha chuqur sho'ng'isangiz, shuncha ko'p dur-u javohirga ega bo'lasiz. Navoiy ijodi bamisoli qaynoq buloqdirki, undan ichganingiz sayin ichgingiz kelaveradi.

II boshlovchi:

Ne mulk ichraki bir farmon yubordim,
Aning zabtiga bir devon yubordim.
Bu devon tutti ul kishvarni andoq,
Ki devon tuzmagan daftarni andoq.

Marhamat azizlar,sizlarni A.Navoiy she'riyati asosida mushoiraga taklif etamiz.
G'azallar:

"Bo'ldim sanga"

Ko'rgali husnungni zor-u muftalo bo'ldum sanga,
Ne baloliq kun edikim, oshno bo'ldum sanga:
Har necha dedimki, kun-kundin uzay sendin ko'ngul,
Vahki, kun-kundin batarrak muftalo bo'ldum sanga.
Men qachon dedim, vafo qilg'il manga - zulm aylading,
Sen qachon deding, fido bo'lg'il manga - bo'ldum sanga.
Qay pari paykara dersen, telba bo'lding bu sifat,
Ey pari paykar, ne qilsang, qil manga, bo'ldum sanga.
Ey ko'ngul, tarki nasihat ayladim, ovora bo'l,
Yuz balo yetmaski, men ham bir balo bo'ldum sanga.
Jomi Jam birla Xizr suyi nasibimdur mudom,
Soqiyo, to tarki joh aylab gado bo'ldum sanga.
G'ussa changidin navoye topmadim ushshoq aro,
To Navoiydek asir-u benavo bo'ldum sanga.

"O'n sakkiz ming olam oshubi agar boshindadur."
O'n sakkiz ming olam oshubi agar boshindadur,
Ne ajab, chun sarvinozim o'n sakkiz yoshindadur.
Desa bo'laykim, yana o'n sakkiz yil husni bor,
O'n sakkiz yoshinda muncha fitnakim, boshindadur.
O'n sakkiz yil, dema, yuz sakson yil o'lsa, uldurur,
Husn shohi, ul balolarkim ko'zu qoshindadur.
Hayrat etmon husnu naqshidaki, har hayratki bor,
Barchasi ezid taolo sun naqqoshindadur.

Tan anga siym-u, ichinda tosh muzmar ko'nglidin.
Aqlg'a yuz hayrat ul oyning ichu toshindadur.
May ketur, ey mug'ki, yuz hayrat aro qolmish Masih,
Bul ajablarkim, bu eski dayr xuffoshindadur.
To Navoiy to'kti ul Oy furqatidin bahri ashk,
Har qachon boqsang, Quyosh aksi aning yoshindadur.

"Kelmadi" radifli g'azali qo'shiq qilib kuylanadi,raqs ijro etiladi.

Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro' kelmadi,
Ko'zlarima kecha tong otquncha uyqu kelmadi.
Lahza-lahza chiqdim-u, chektim yo'lida intizor.
Keldi jon og'zima-vu, ul sho'xi badxo' kelmadi.
Orazidek oydin erkonda gar etti ehtiyot,
Ro'zg'orimdek ham o'lg'onda qorong'u kelmadi.
Ul parivash hajridinkim, yig'ladim devonavor,
Kimsa bormukim, anga ko'rganda kulgu kelmadi.
Ko'zlaringdin necha su(v) kelgay, deb o'lturmang meni
Kim bori qon erdi kelgan, bu kecha su(v) kelmadi,
Tolibi sodiq topilmas, yo'qsa kim qo'ydi qadam,
Yo'lgakim, avvalqadam ma'shuqe o'tru kelmadi.
Ey Navoiy, boda birla xurram et ko'nglung uyin,
Ne uchunkim, boda kelgan uyga qayg'u kelmadi.

O'quvchilar ishtirokida "Farhod va Shirin" dostoni talqini

I boshlovchi:

Navoiy dan o'qib borsang she'r,
Tunda seni to'xtatmas mirshab.
Misralarda uyg'onar mehr,
Har bir bayti yo'llarga o'xshab.

II boshlovchi:

Navoiydan o'qib borsang she'r,
To'xtatmaydi chegarachilar.
Baytlar tomgan labingni bossang,
Bu yerlarga gullar ochilar.

"Munojot" g'azali o'quvchilar tomondan ijro etiladi.

I boshlovchi:

Alisher Navoiy so'zi bilan aytilganda har bir she'r-oyat, yurakdan aytilgan duodir. Bu muqaddas oyatlar insoniyatni haq yo'lga boshlaydi, bu mustajob duolar bashariyat ahlini ezgu ishlarga da'vat etadi. Mushoirada davom etadi.

II boshlovchi:

Xo'p el bila suhbat tutibon xo'p o'lg'il,
Yaxshini talab qilg'ilu matlub o'lg'il.
Shirin so'z ila xalqqa mag'rub o'lg'il,
Yumshoq de hadisingni-yu mahbub o'lg'il.

I boshlovchi:

Besh asrkim nazmiy saroyini,
Titratadi zanjirband bir sher.
Temur tig'i yetmagan joyni,
Qalam bilan oldi Alisher.

II boshlovchi:

Darhaqiqat, Temur tig'i yetmagan joyni qalam bilan egallagan A.Navoiy ijodiy me'rosi-o'lmas va boy xazinadir.

Navoiyning 8 ta devoni mavjud bo'lib, u lirikaning 16 janrida barakali qalam tebratdi, zullisonayn shoir sifatida taniladi.

Uning 30ga yaqin turli mavzularda: axloqiy-ta'limiy, falsafiy, tarixiy mavzularda yozgan asarlari ma'lum va mashhurdir.

O'quvchilari chiqishlari namoyish qilinadi.

I boshlovchi:

Men ushoq bir zotman tarix oldida,
Sira mangulikni qilmasman da'vo.
Axir, mangulik, bu-millat qalbida,
Yashamoqdir dunyo turguncha to.

II boshlovchi:

Bor ekan toki zulm, toki qabohat,
Inson yuragini tark etmagay she'r.
Asrlar qarida sog'-u salomat
Siz chiqib kelasiz, ustoz Alisher!

Sahnaga A.Navoiy kirib kelib, g'azal aytadi.

Zamondoshlari Boyqaro, Xondamiz, Jomiy, Bobur, Samarqandiyning fikrlari ular siymosida aytiladi.

Alisherbek naziri yo'q kishi erdi. Turkiy til birla to bir she'r aytibtur, hech kim oncha ko'p va xo'p aytgan ermas.

Z.M.Bobir.

A. Navoiy turk lisonining o'lik jasadig'a Masih anfosi bila ruh kiyurtdi.

H.Boyqaro.

To qiyomatgacha va qiyomatda ham ulug' hazratning yaxshi ishlari zamon varaqalarida, kecha va kunduz sahifalarida mangu qolur.

Xondamir.

Bu qalam sohibiga falakdan ofarinlar yog'ilsin. Xayriyatkim, u o'z asarlarini turkiyda bitdi. Agar forsiyda bitganda biz forsiygo'ylarga so'z aytishga imkon qolmas edi.
A.Jomiy.

Bu ulug' amir din-u davlat homiysi, shariat hamda millatning pushti panohohidur.
Davlatshoh Samarqandiy.

I boshlovchi:
Jahonki,muqaddas,neni ko'ribdi,
Bariga onasan,ey,qodir hayot!
Besh yuz yil naridan boqib turibdi,
Shu nurli yuzlarga nuroniy bir zot.

II boshlovchi:
Shu buyuk o'g'lingni ardoqlab dildan,
Xalqim,sajda qilsang,arzigay,tamom.
Uning nomi bilan birga bitilgan.
Dunyo daftariga o'zbek degan nom.

I boshlovchi:
"O'zbek ham ulug', uning tili ham, dini ham, o'zligi ham buyukdir"-degan edi prezidentimiz I.Karimov.

A.Navoiyning o'zbek tilini rivojlantirishdagi hissasi beqiyos. Muhokamat ul-lug'atayn"da esa turkiy tilni bag'oyat boyligini isbotlab berdi.

Onajon tilim
Sen Mahmud Qoshg'ariy kashf etgan dursan?
"Devoniy lug'atut turk"kitobida.
Qorong'u zulmatni yoritgan nursan,
Turkiy zabon xalqim mehr oftobida.
Seni ardoqlab Hazrat Navoiy,
Turkiygo'y shoirilar bazmini qurdi.
Adolat tug'ini tutib fidoyi,
G'azal maydonida doim ot surdi.
Seni forsiyo'ylar dag'al deb gohi,
Hazrat Navoiyga otdilar piching.
Toki til bor ekan xalq umri boqiy.
Deya turkiy tilning ko'rsatdi kuchin.
Sensiz men go'yo qo'l -oyoqsiz qulman,
Sensiz men yo'limni yo'qotgan gado.
Sensiz na kofir, na musulmondurman,

Seni yo'qotgan kun bil men ham ado.
Balki rost,yo g'alat, ne bo'lganda ham,
Bu til ajdodlarim tebratgan beshik.
Mayli bu tilni ko'rsinlar baham,
U alla o'z onam kuylagan qo'shiq.
U onam tilidir ,onam tilidir,
Avlod-ajdodlarim dilidan chiqqan nido.
Elimning serjilo mehr gulidir,
Mo'jiza kashf etgan chin aks - sado.
Sen borki, imoni butundir o'zbek,
Sen bilan daryodek jo'shqindir dilim.
Sen kiprik ostida posbon ko'zgudek,
Millatim faxrisan onajon tilim!

(Meli Boboqulov)

II boshlovchi:

"Tilimiz o'n sakkiz ming olamdan boyroq bo'lgan shunday bir xazinaki, uning har bir dur-u gavhari osmon yoritqichlaridan porloqroq, shunday bir gulzorki, uning har bir guli chaman lolaridan a'loroqdir" degan edi A.Navoiy.

I boshlovchi:

Jahon shoirlari tursa gar qator,
Siz mudom ularga sarvarsiz,boshsiz.
Bu kun yuragimda g'ururim bisyor,
O'zbek manglayiga bitgan quyoshsiz.

II boshlovchi:

Nafasdan chayqalganda zamon to'rt taraf,
Sizni jalb etoldi na toj-u na taxt.
Sizga muxlislikning o'zi bir sharaf,
Sizni anglamoqning o'zi ham bir baxt.

"Navoiy"dramasidan parcha

Tong paytida Navoiy shiyponda o'tirib,she'r yozish bilan mashg'ul.
Navoiy : Ey,Nasimiy subh ahvolim diloromima ayt.
Zulfi sunbul, yuzi gul, sarvi gulandomima ayt.
Kom talxi boda zahri ashk gulgun bo'lganin,

Guli:(paydo bo'ladi Navoiyni tinglaydi so'ng ilova qiladi.)
La'li rangin jabzi shirin sho'x xudkomima ayt.

Navoiy: Ko'zimning nuri kel,toza gulim kel,
Ko'ngil bog'ida sayroq bulbulim kel.

Guli:Ko'rib gulzor ichinda sizni yolg'iz,
Indamay so'roqsiz men behayo qiz ,
Kechirgaysiz kelishga jur'at etdim.

Navoiy:Ko'ngil armoni kel, maqsadga yetdim,
Nechun bezovtasan, barvaqt turibsan,
Malak yanglig' o'zing tanho yuribsan.

Guli: Sahar chog'i turib shirin azaldan,
Eshtmak odatim bo'lgan g'azaldan.

Navoiy: Quloq soldingmi?

Guli:Yolg'iz men emas gul, samo, yer, aftoda bulbul.
Butun jonli va jonsiz tinglaydi jim,
Azaldin bu kabi zavq olmagan kim.
Azalkim so'zlagay mehri vafodin,
Azalkim so'zlagay ishqdin,safodin.
Azaldin bu kabi zavq olmagan kim.

Navoiy: Ko'ngil ilhomchisi sensan azizam,
Bularning barchasi senga atalgan.

Guli: Xudo bilsin so'zingiz balki yolg'on.

Navoiy:Nechuk,xo'sh?

Guli:So'ngi chog'da kamnamosiz,
G'arib,bechora men yer,siz samosiz.

Navoiy: Yoningda bo'lmoq orzuyim erta-yu kech,
Faqat naylayin ilojin tomadim hech.
Ariq qozmoqdamiz,cho'llarda ish ko'p,
Rabot-u,madrasa yo'llarda ish ko'p.
Yumush der yerdagi bar zarra tuproq,
Yumush der bog'dagi bar toza yaproq.

Guli:Kimki bo'lsa inson bo'lsa odam,
Xaloyiqning amin o'ylar damodam.

Navoiy:Vafodorim shuning uchun kamnamoman ,
Olur vaqtimni bu ishlar tamoman.

Guli: Alisher,chinakam shersiz,buyuk sher,
Ulug' ishlarni qilmoq istagan er.

Bo'lur sherday jasur qaytmas izidan,
Qilich kelganda ham qaytmas so'zidan.
Faqat ko'p essiz, ko'p dushmaningiz.

Navoiy: Yengur zulmatni nur, albatta, shaksiz.

Guli: Biroq hozircha zulmatning kuchi ko'p,
Haqiqat nurini so'ndirguvchi ko'p.
Kecha ko'rgan edim men bir yomon tush,
U tushni eslasam boshdan uchar hush.

Navoiy : Nechuk tush?

Guli: So'ramangiz.

Navoiy: So'yla, azizam.

Guli: Tilim bormaydi hech qalbim to'la g'am.
Yotibsiz yerdasiz, qo'l-bo'yin boli.
Va sizni qurshamish bir to'n picholi.
Yozib men sochlarimni yig'lar erdim,,
Jafo tig'ida bag'rim tilar erdim.
Cho'chib uyg'ondimu bildim banogoh,
Tush ekan shul mahal nola-yu on.
Ezar bag'rimni qattiq o'rtanur dil,
Misoli o'tga tushgan bir uzuq gul.

(Navoiy Gulining so'zidan qattiq ta'sirlanadi. Ammo ta'sirlanganligini yashirishga tirishib Gulini ovutishga harakat qiladi.)

Navoiy: Gulim behudaga bezovta bo'lma,
O'zingni qiynama, g'amlarga to'lma.
Dadil bo'lsang vahmning rangi so'lay,
Ishon, odatda tushning aksi bo'lg'ay.
Meni shersiz deding yovlar quyondir,
Quyoning ishi senga ayondir.

Guli: Durust. Shersiz faqat zarjirband sher.

Navoiy: (g'oyat ta'sirlanib)
Ajab zanjirband sher, yengaman der.

Guli: Essiz men sizni ranjitdim.

Navoiy: (O'zining yangi devonini Guliga taqdim etadi.)

Guli:(devonni olib)Jonim bilan.

Navoiy:Yangi bitilgan, sening ishqing bilan o'sgan, yetilgan.

FOR AUTHOR USE ONLY

DUNYONI QALAM BILAN OLGAN SHOIR

A.Navoiy tavalludining 571 yilligiga bag'ishlangan adabiy kecha ssenariysi

Maktab zali quyidagicha bezatiladi:

To'rd Alisher Navoiy portreti, devorlarga uning hikmatli so'zlaridan namunalar yozib osib qo'yiladi, zalning bir burchagida Navoiy asarlari, maktab o'quvchilarining tayyorlagan devoriy gazetalari, referatlar, asarlariga ishlangan rasmlar ko'rgazmasi tashkil etiladi. (Zalda Navoiy hlazallariga bastalangan kuy va qo'shiqlar yangrab turadi)

1 - boshlovchi:

Besh asrkim nazmiy saroyini
Titratadi zanjirband bir she'r
Temir tig'i yetmagan joyni
Qalam bilan oldi Alisher

2 — boshlovchi:

Benazir inson, daho, shoir, davlat arbobi, munaqqid, faylasuf, tarixchi, ilm fan homiysi, ma'naviyat va ma'rifat targ'ibotchisi sifatida Mir Alisher Navoiy butun hayoti va ijodini insoniyat kamoloti el - yurt ravnaqi, millat taraqqiyoti uchun bag'ishladi

3 - o'quvchi:

Tilimizning mo'jizalarini amalda ko'rsatib berdi. Buyuk bobomiz shaxsiyatga xos shu jihatlarning o'ziyoq Navoiyni muntazam o'rganish Navoiyni anglashga urunish uchun asos bo'la oladi albatta.

4 - o'quvchi:

Istiqlol ulug' bobomizning me'rosini bizga aslicha qaytib berdi. Mafkura poligonlaridanda qudratliroq ahamiyat kasb etayotgan bugungi shiddatkor davrda bizga Navoiy asarlari yod g'oyalardan qalqon bo'la oladi desak mubolag'a bo'lmas.

5- o'quvchi

(Yosh avlodga Navoiy asarlarini chuqurroq o'rgatish uchun) Ha, bu "Zanjirband sher" ning she'rlari necha asrlarki jahonni maftun etib kelmoqda. U kishining g'azallari porloq quyosh singaridir, betakror nazmi oldida hatto Sa'diy va Hofizning she'riyat osmonidagi yulduzlari xira tortdi.

6- o'quvchi

"Nizomiy panjasiga panja urib" bunyod qilgan "Xamsa" si panj ganj shuhratiga soya soldi.

(Raqs- kecha kelgumdur debon)

7-o'quvchi.

She'r "Bobokalonim "

Kirgim kelar g'azal bo'stoningizga,

Yurak yutib nazm-u dostoningizga

Munavvar nurlardan qamashib ko'zim

Qoqilib ketarman ostonangizda,
Sirqirab ketadi alamdanda jonim
Bo'ylashga bo'y yetmas Bobokalonim!

8-o'quvchi:

Buyuk shoir haqida u kishining do'sti, maslakdoshi Husayn Boyqaro o'zining
" Risola " kitobida bunday degan edi:

(sahnaga H. Boyqaro qiyofasidagi o'quvchi chiqib keladi;)

Mir Alisher turk tilining o'lgan jasadiga masih nafasi bilan ruh jon kirgizdi... U har
bir she'r turi maydoniga topqir otini surar ekan, o'sha mamlakatni til qilichi bilan o'ziga
tobe etdi. Uning nazmini maqtashga til nuqsonli va qalam ojizdir va bu kun nazm
dunyosining ruboiy maskanida qahramon udir va uni bu mamlakatni qo'lga kiritgan
sohibqiron desa bo'ladi

(Sekin sahnadan chiqadi)

10- o'quvchi

Bobo, " Bobo desam" tilim kuyadir,
Dovoningiz tutgan qo'lim kuyadi
Xoki poyingizni ko'zga surmakka
Izm so'ray desam tilim kuyadir
Me'rosidan mahrum gumroh zabonim
Qoshingizda zabun bobokalonim...

11- o'quvchi

Umr 30 yoshga bo'ylab boradir
Yitgan umr glamgin kuylab boradir
Boy berilgan fursat talangan karvon
Ko'ngil sahrosida bo'zlab boradir
Or - nomusdan kuyar xasta vijdonim
Daholarga daho bobokalonim

12-o'quvchi

Bu ne zamon bo'ldi yo'llar aldasa
Bu qay bahor bo'ldi gullar aldasa
Bobomeros duru javohirlarni
Zulmatga itqitgan qo'llar aldasa-
Ishonib topganga ezgu imonim
Dunyo bexabarman bobokalonim

O'quvchi

Besh yarim asrkim , bir Zot tuglilmish,
Charxi davron uzra hur zot tug'ilmish .
Turkiyda lol aylab ahli dunyoni,

Forsiyda xush zabon bir zot tug‘ilmish
She'riyat mulkining ulug‘ xoqoni
Hazrati Navoiy bobokalonim

O'quvchi
Bolam, nabiramga ko'rsatib shavqat
Nasib etsa bizni chetlab o'tgan baxt
Bu yurtning tunlarin nurga to'ldirsa
Moziyni yoritgan hisobsiz hikmat
Armonsiz bu baxtning bo'lmas poyoni
Sharqim, fozillaring bobokalonim.

Raqs – “Qaro ko'zim”

Boshlovchi-Alisher Navoiyning komil inson, she'riyat mulkining sultoni bo'lib yetishishida u yashagan davr muhitning ta'siri katta bo'ldi.

(Sahna ko'rinishi. Sahna xona ko'rinishida bezatilgan. Alisherning otasi G'iyosiddin kichkina, tog'asi shoir Mirsaid, kimyogar domla Murod va bir necha sipohlar davra qurib davlat ishlari yuzasidan bahs yuritib o'tiribdilar)

Kimyogar domla Murod:

Hazrat Ululhik falakiyot ilmini ko'p sa'y shijoat bilan tadqiqot qilibdurlar. Hazrat haqiqiy olimdurlarki, bu ilmida kashfiyot nuqtasiga yetibdurlar, riyoziyotda kamolot kashf etmish bir insondurlar. Davlat ishini ko'p a'lo bilurlar, lekin mushkulotlar, oyat behad.

(Shu payt 4 yoshlar chamasida sho'x Alisher to'ning etaklarini hilpiratib yugurib keladi)

Alisher: Asalomu alaykum

Majlis ahli: Vaalaykum assalom- o'quvchi

Sipohlarning biri (kulimsirab); Otni yaxshi ko'rurmisen Alisherbek?

Alisher: ko'p yaxshi ko'rurmen, lekin (otasiga termulib) ot choptirishdan fikr yugurtirish yaxshiroqdur.

Keksa barlos: ofarin, ofarin o'qiting o'g'lonni mulla qiling! Ilmning cho'qqisiga arziydi o'g'lingiz.

G'iyosiddin Kichkina: Niyatimiz xuddi shunday, o'qitmoqni orzu qilurmiz. Ziyrak bola picha sho'xligi bor.

Domla Murod: Bolaning sho'xi yaxshi, zeroiki, fikri ham yugurik bo'lur. Fikrning chaqnog'i-ilmning chaqmog'i

Sipohlardan biri: E,e bahodirlikka nima yetsin! Jangchi bahodir bo'lay o'g'lon!

Kuchi bo'lgan er yigit har narsaga yetkusidir. Egar-jabduq, o'q-yov bilimidan saboq bering janob bek!

Shoir Mirsaid (Alisherning tog'asi)-qani, jiyani, bir g'lazal o'qib yubor bilasanku?
(Alisher odob bilan otasiga qaradi)

G'iyosiddin Kichkina: o'qi o'g'lim, o'qi, ixlos bilan o'qi!

Alisher:

Ko'kardi chaman, gulzorim qani?

Zihi sarvi bo'yliq nigorim qani?

Topibdur bu kun vasli gul andalib,

Daryo, mening navbahorim qani.

Mavlono Lutfly hazratlari aytmişlar, bu she'rni. Men juda yoqtura men, ota, ne deysiz?

G'iyosiddin Kichkina (kulib): juda yaxshi o'g'lim, menga ham haddan ziyot ma'qul. Mavlono Lutfiy nihoyat hassos, nozik tafakkurli, har nechuk madhga Yarashuq bir shoirdurlar.

Keksabarlos: Yo rabbim! (yoqasini ushlab) Ko'ngullarimizni nurga to'ldirgan bu jujuqdan qanday burgut yetishur? Parvardigorim hamisha panoh bo'lay senga, omin! (Fotiha tortadi)

Shoir Mirsaid: (Alisherning yelkasiga mehr bilan qoqib) Barakallo ofarin jiyani, peshonangdan hamisha quyosh balqsin.)

(Mehmonlarga murojaat ila boqib) Forsiy she'rlardan ham ko'pini biladi, tangriga ming qatla shukrki, aql ham, hafiza ham joyda. She'riyat va ilm bobida kamol kasb etib, degan umidimiz bor. Turkiyda bisyor ma'nilari bor. Men sof turkiyda yozumen. Aksariyat shoirlar h'azallarini forsiyda yozurlar. Forsiy bor, go'zal til, lekin o'z turkiy tilimizda xalq yuragini topib, nafis she'riyat yaratmoq mumkin. Mavlono Lutfiyning turkiy she'rlari ko'pdurki, bu she'rlar dillarga quyosh kabi nur sochar.

O'quvchi —

"Agar bu zotni avliyo desak, u - avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak shoirlarning sultonidir. Inson qalbining quvonchi qayglusini ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan kam topiladi", - degan edilar yurtboshimiz shoir haqida.

O'quvchi - Darhaqiqat buyuk shoir ijodida adolat, insonparvarlik, mehnatsevarlik, saxovat, ishq - muhabbat, halollik, rostgo'ylik, ma'rifatparvarlik kabi eng go'zal fazilatlar tarannum etadi.

O'quvchi -

Barchamizga yod bo'lib ketgan:

"Odamiy ersang, demagil odami,

Onikim yo'q xalq g'amidin glami", - degan hikmatli so'zlari nafaqat go'zal tashbeh, aksincha ulug'shoirning imon - e'tiqodi, faoliyat mezonini hayot falsafasidir.

O'quvchi -

O'zingiz bir o'ylab ko'ring umr bo'yi yetim - yesir, beva - bechora, nogiron va muhtojlarga muruvvat ko'rsatib kelgan, el- yurt uchun o'z hisobidan, maktab - madrasalar, shifoxona va hammomlar, yo'l va ko'priklar qurilgan, bog' - ro'g'lar bunyod etgan, ilm-fan va madaniyat ahlining chinakam homiysi bo'lgan bu benazir zotning mana shunday savobli ishlari har birimiz uchun ibrat va saboq emasmi?!

Qo'shiq

She'r "Shukrona"

Shukr deyman: bu kun emas, besh yuz yil avval,

Navoiyni yaratibdi taqdiri azal.

Magar bizning asrimizda tug'ilaydi u,

Buyuk boshim yemirardi, shubhasiz, qayg'u

Balki qolib ketar edi she'rlari dilda:

Otilardi qonli o'ttiz yettinchi yilda.

Balki Usmon Nosir yanglig' tortgancha afg'on

Qo'lda kishan, armon bilan berar edi jon.

Tayr tilin o'qiy desam Alisher-murg'ak,

Tutqazardik qo'llariga ehtimol, ertak.

"Xamsa" bitmak o'rniga ham boshida oshub,

O'tar edi muharrirlar bilan olishib.

Nashriyotda navbat kutib o'tardi sarson,

Balki tuban shoirchalar qo'ymasdi omon.

Yo choychaqa topolmasdan men kabi pur g'am,

She'r yozish yo'q, mol boqardi shoiri olam.

Balki umri egatlarda o'tgan bo'lardi,

Balki orol bo'ylarida rakdan o'lardi...

Shum deyman, bu kun emas besh yuz yil avval,

Navoiyni yaratibdi taqdiri azal.

Ma'noin shirinu ranginam va turki behad ast

Forsiy ham la'lu durkoi samin chun banday ast

Go'yo dar rost bozori suxan bikushodam,

Yak taraf do'koni qarindiyu, yak so'zargar.

Ma'nosi: Turkiy tilda rang-barang shirin ma'noli she'rlarim behaddu hisobdur. Agar qarasang, forsiy she'rlarim ham la'lu gavhardur. Go'yo so'z bozorida do'kon ochganman, bir tomonda qandolat do'koni-yu, bir tomonda zargarlik. Alisher Navoiy lirikasi mavzu jihatdan juda boy va nihoyatda rang-barangdir sevgi va sadoqat, visol ishtiyoqi va hijron istirobi, jafo va do'stlik shafqat va marhamat, Vatanga va xalqga muhabbat, insof va adolat, mehnat va ma'rifat, odob va tavoze, himmat va saxovat halollik va to'g'rilik, tabiat ko'rki va insonning zavq shavqi Navoiy lirikasining mavzularidandir.

("Kecha kulgumdir debon ..." deb boshlanuvchi g'azalga bastalangan kuy jo'rligida bir o'quvchi uni ifodali o'qiydi)

1 — boshlovchi: "Xamsa" Navoiy ijodining qalbidir. Dunyo durdonasi bo'lgan "Xamsa" turkiy" til go'zalligining eng yorqin namunasidir.

Emas oson bu maydon ichra turmoq,

Nizomiy panjasiga panja urmoq

Kerak sher oldida sheri jangi,

Magar sher o'lmasa, bori palangi.

2-boshlovchi. Xa, Nizomiy "Xamsa"siga munosib javob yozmoq uchun naqadar katta zakovat egasi bo'lish kerakligini hazrat o'zigagina xos donolik bilan ilg'aganligini ana shu satrlardan ham bilish mumkin "Xamsa"chilik jahon ma'naviyati tarixida betakror hodisali. Turkiya adabiyotida Qutb va Xaydon xorazmiylar boshlab bergan xamsachilik an'anasiga o'zining kamolini Alisher Navoiy ijodida topdi.

1 – boshlovchi: Alisher Navoiy "Xamsasini" Besh dostonidan iborat

(Sahnaga beshta o'quvchi qo'llarida "Xamsa dostonlari bilan chiqib keladi)

1 - o'quvchi: Hayratul-abror "Xamsa" ning to'ng'ich dostonidir. Bu doston maqola deb ham yuritiladi. Uning sahifalari axloq, odob masalalari, shuningdek do'stlik vafodorlik, rostgo'ylik kabi yuksak insoniy fazilatlar bilan ota-onaga umuman insonga mehr va hurmat egallash masalalari o'z ifodasini topgan.

O'quvchi: Ilm, Navoiy senga maqsud bil endiki ilm o'ldi amal aylagil Saxiy bir podsho bor edi. Saxiyligidan butun xalqi hurmat qilardi. Uning bir quli bor edi. Xizmat darajasi bakovullik edi. Kunlardan bir kuni (Shoh ovqatlanmoqda oldida noz-ne'matlar. Shu payt shohga ovqat uzatayotgan xizmatkor uning boshiga bexosdan ovqatning ozginasini to'kib yuboradi) chetdan turgan boshqa xizmatkor: Oh,endi podshoh uni o'ldiradi. Gunohiga loyiq jazo shudir (Xizmatkor qo'rquvdan titrab turadi)

Shoh: seni kechirdim.

Vazir: Ey shoh saxiylikda beg'araz shoh, unga o'limdan boshqa narsa noloyiq emas, ediku!

Shoh: (Zavq bilan lutf qilib) xijolat o'zi uni o'ldirib bo'ldi. Hech kim o'lgan o'likni boshqatdan o'ldirmagan boshiga bo'lsa jazo tig'in totmagan. Xalq ichida kim eng gunohkor bo'lsa o'sha avf va inoyatga eng ko'p sazovordir.

O'quvchi: "Xamsa" dostoni Farhod va Shirindir. Farhod bu dostonning bosh qahramoni, u iste'dodli ilm-ma'rifatni sezuvchi insondur.

Jahonda qolmadi u yetmagan ilm.

Bilib taqiqni kasb etmagan ilm

O'quvchi:

Farhod faqat ilm-ma'rifatni egallash bilan chegaralanmay, turmushda kerak bo'ladigan ko'p kunlarni o'rganishga intiladi. Qilichbozlik, chavandozlik kabi hunarlarni o'rganadi. U o'zi egallagan barcha ilm va hunarlarni xalq manfaatlariga, baxt-saodati uchun sarf qiladi

O'quvchi: Hunarni asrabon netgumdir oxir

Olib tufroqamun etgumdir oxir

Bu asar sevgi va sadoqatni, mehnat va ijodkorlikni, vatanparvarlik va qahramonlikni tarannum etadi.

Sahna ko'rinishi (taxtda Xusrav o'tiribdi. Zanjir band qilingan. Farhodni olib kiradilar. Uni Xusrav so'roqqa tutadi)

Xusrav: Qaydin sen, ey majnuni gumrak?

Farhod: Majnun vatanin qayda ogah

Xusrav: Nedir senga olamda pesha?

Farhod: Ishq ichra majnunliq hamisha.

Xusrav: Bu ishdan o'lmas kasb ro'zi

Farhod: Kasb o'lsa basdur ishq so'zi.

Xusrav: Ishq o'tindin de fasona

Farhod: Qo'ymay kishi topmas nishona.

Xusrav: Kuymagingni ayla ma'lum!

Farhod: Andin erur jon ahli mahrum!

Xusrav: Qay chog'din o'ldum ishq aro mast?

Farhod: Ruh ermas erdi tanga payvast.

Xusrav: Bu ishqdi inkor qilg'il!

Farhod: Bu so'zdin istixfor qilg'il!

Xusrav: Oshiqqa ne ishq ko'p qilur zo'r?

Farhod: Furqat kuni ishq balusho'r

Xusrav: Ishq ahlining nadir hayoti?

Farhod: Vasl ichra jonon iltifoti

Xusrav: Ishq ichra qatling hokum etgum!

Farhod: Ishqida maqsudima etgum.

Xusrav: Bu ishqqa sendin yiroq qatl!

Farhod: Bu so'zlarindin yaxshiroq qatl!

Xusrav: (Mulozimlariga qarab) qal'a oldida bir dor qurilsin.

Buning, (Farhodni ko'rsatib) qo'llari kishatilangan holda dorga osilsin! Osilgandan so'ng xalq uni ko'klam yomg'irdek o'qqa tutsin. Odamlar ko'rib ibrat olsin.

Farhod: Ey azabnok shoh: bu bilan qasos olyapman, istagimga yetdim deb o'ylama! Sen nima hukm qilgan bo'lsang, bu mening tilagim edi. (Parda yopiladi)

O'quvchi: "Layli va Majnun" dostoni bu sharq afsonasi asosida birinchi bor turkiy tilda yozilgan asardir. Dostonning asosiy qahramoni ilm va donishlikni kasb qilib olgan qays qalbidagi tug'ilgan samimiy va solom insonniy muhabbat u yashagan jamiyat uchun yod edi.

O'quvchi: Jamiyat qaysining pokiza qalbidagi kechinmalarini anglamas edi. Bir-birini sevgan ikki yosh fojeasi shunday boshlanardi va doston voqeasi rivojlangan sari bu fojea chuqurlashib boradi. Bu muhabbat ikki yoshning halokati bilan yakunlanadi. Dostonda shaxs erkinligi qadr-qimmatini kuylanadi.

"Layli va Majnun" asaridan ko'rinish (sahnada zanjirband etilgan soch saqoli o'sgan Majnun. U nola qilmoqda.)

O vahki bu o'tdin o'ldi tobim

Yo'q yoki ichimda istirobin

Kulbamdada bu maskanimda bu o'z
Jonimda bu o't tanimda, bu o't.
O't ichra birovni kim solurlar
Bandani oyoini olurlar
O't banda ila bo'ldi jilvagohim
Bundami aziz emish gunohim

O'quvchi: "Sabbai sayyor" Alisher Navoiy "Xamsa" dostonining to'rtinchi ajoyib dostonidir. Shoir dostonida podshoh Bahrom timsoli orqali mamlakat boshqaruvchisining burchi haqida qarashlarini tartib qiladi. Bahrom taqdiridan o'rnak olishga chaqiradi.

Sahna ko'rinish: Shoh Bahrom qo'lida qadah: sharob ichib o'tiribdi. Yetti xil libosdagi yeti go'zal "munajat" kuyiga ohista xirom etadi.

O'quvchi: "Xamsa"ni tashkil qiluvchi oxirgi katta doston "Saddi Iskandariy"dir. Bu asarda Navoiy Iskandar siymosi orqali adolatli va ma'rifatli podshoh obrazini gavdalandirgan.

Adolatparvar hukmdor Iskandar dono va tadbirli podsho bo'lishiga qaramasdan doimo o'z yonida ulug' donishmandlarni saqlaydi. Iskandar faqat adolatli podshohgina emas balki umummadaniyat uchun keng yo'l ochib bergan marifatparvar hukmdor hamdir.

"Saddi Iskandariy" dan sahna ko'rinishi. (Sahnada shoh Arastu va Faridun)

Faridun: Ey hikmat ahliga fikri qonun bo'lgan hakamim! Biz ish yuzasidan ikki kimsa o'rtasida yuz bergan nizoni yo'qotish mumkinmi?

Arastu: Haddan tashqari nozik savol berding. Ba'zi nizolarni aql rad etgani kabi, ba'zilarni mabul ko'radi. Birovning nojo'ya bir ishi bolib uni qilmaslikning iloji bo'lmasa, ammo bu ishdan el-yurtdan katta zarar yetadigan tag'in qaltis janjal chiqadigan bo'lsa, birov shu ishni man etish imkoniyatiga ega bo'lsa-yu lekin o'zini chetga olsa u kechirarlik emas. Nizodan foyda ham zarar ham chiqishi mumkin. Madomiki, bu ishning janjali bo'lishi imkoniyati yo'q ekan. Shunday shartga rioya qilmoq kerak. U ham bo'lsa dushman bilan erishishga qodirmi? Agar uning ustiga g'alaba qozonishga ko'zi yetsa u paytgacha olishishga bel bog'lasa durus agar quvatini u bilan barobar hisoblasa mojaro chiqarib o'tirishning hojati yo'q unga kuchi yetmasligini his etsa nasib had bilan kifoyalangani yaxshidir. Kishi hamma ishda aqlini ishga solib o'z maqsadida erishi lozim

(parda yopiladi sahnaga Abdurahmon Jomiy qiyofasidagi o'quvchisi chiqib keladi)

Xush kelibnsiz Mavloni
1-boshlovchi
Bu beshlarga avval boshlab urib panja
Xush xabarlar keltirganing yurti ganja
Lekin turkiy tilga keldi bu naqish ajab
Bu so'zda damad bo'lgaylar

Ospondin maqto'v yovsin u qalamga
U qalamdan keldi go'zal so'z olamga
Dar tilga nazm injusin kelturganlar
So'zamonlik maydonida sen surdig ot
Qayta boshdan so'zning yuzi porladi bot
Sening aqlur fikring bilan safo topdi
Ey Navoiy, lutfing bilan navo topdi
(G'afur G'ulom tarjimasi)

(sahnaga Bobur siymosidagi o'quvchi kelib chiqib keladi)

2-boshlovchi: Bobur Navoiy ijodi haqida deydi: Alisherbek tengi yo'q, kishi edi Turkiy til bilan to she'r aytib turarlar hech kim ancha ko'p va xo'p aytgan emas. Olti masnaviy kitob nazm qilib tur beshi "Xamsa" javobida yana bir "Mantiq ut-tayr" vaznida "Lison ut-tayr" otliq. To'rt azliyot devoni tartib qilib tur. "G'aroyib us-siglar", "Navodir ush-shabob", "Badoye ul-vasad", "Favoyid ul-kibar" otliq yaxshi ruboiyoti ham bor"

1-boshlovchi: Shoir, buyuk davlat arbobi, ulug' donishmand Mir Alisher Navoiy bobomizning insoniyat uchun qilgan xizmatlari haqida qancha gapirsak, yo'llarimizni shamshiroq kabi asrlar osha yoritib beraveradi. Agar bobomiz ijodini bir ummon desak, bugun biz ummonning bir tomchisi haqida so'z yurutdik. Bu umr boqiy siymo obrazi ko'zimiz qarog'ida, qalbimiz ardog'ida yashay veradi.

Zal uzra "Qora ko'zim" glazali bilan qo'shiq taraladi. Kecha shu bilan tugaydi.

Umr karvon misol birma-bir o'tar
Yangi oy chiqar-u kun botar
Daqiqalar misol daryodek oqar
Navoiyning nomi abadiy yashar.
Asarlar yaraldi gavhar dur bo'lib
Lutfiyning Lutfiga sazovor bo'lib
So'z mulkining Sultoni Alisher bo'lib
Navoiyning nomi abadiy yashar.
Dil mulkidan dur tutgan Sulton Navoiy
Hikmat otliq nur tutgan osmon Navoiy
Taffakurning tog'iga chiqmoq istasang
Umring tilab qo'l cho'zgan imkon Navoiy
Go'zallik mevasi ko'kdan tushmagay
Turkiy tilda bol bergan bobon Navoiy
O'qiganga ming rahmat uqqanlar aytsin
So'z ila el qadriga qalqon Navoiy
Besh yuz yillar besh ming bor kelgaydir illo
Asrlarni qaritgan davron Navoiy.

AJDODLAR MARDONA RUHI SENG YOR
(Alisher Navoiy va Z. M. Bobur hayoti va ijodiga bag'ishlanadi)

I- Assalomdan boshlanur so'z,
Ko'hna bazm etsin davom.
Shu sababdan sizga deymiz,
Chin yurakda assalom

II- Assalom tonglarning toza marjoni.
Assalom shabnamning nurli shifosi
Assalom dillarning o'tli nidosi
Assalom samimiy gullar ziyosi.

I- Assalomu alaykum tomirlarida Navoiy, Bobur, Nodira, Uvaysiy, Qodiriy, Cho'lpon qonlari urayotgan, qalblari ilm-u ma'rifatga tashna yosh avlod diliga ilm nuralarini, ziyo chashmalarini ulashib kelayotgan aziz va muhtaram ustozlar, qadrli hamkasblar.

II- Bugungi «Ajdodlar mardona ruhi senga yor» deb nomlangan davra suhbatlari dasturimizga xush kelibsizlar.

I- Bugungi bayram kayfiyati, bugungi bayram shodiyonasi sizlarni yil davomida tark etmasin deymiz.

Men ilk bor maktabga qo'yganda qadam
Ilk bor alifbodan olganda ta'lim
Menga olam aro yuz ochgan odam
Ustoz muallimga qilurman ta'zim.

II- Yana bir bora igna bilan kuduk kazishdek mashakkatli, ammo, sharaflil kasb bulmish ukituvchi

va murabbiylar kuni bilan samimiy muborakbod etamiz.
Muallim xakida suzim ushbu
Muallim kamolot ichra kuzgudur
Ukidim Geradot tarixin kup bor.
Forobiy, Danteni takror va takror
Barini ukidim lol koldi aklim,
Bariga ustozsan, uzing muallim.

I- Biz bugun nazm gulshanining ikki xushxon bulbuli so'z mulkingning sultoni Nizomiddin Mir Alisher Navoiy hazratlari hamda shoh va shoir, mohir sarkarda Zahiriddin Muhammad Boburlarning hayot va ijod yo'li haqida dastur tayyorlaganmiz.

II- Marhamat tomosha qiling. Yaxshi hordiq chiqaring.

I- Kim seni tan olmas, qudrating uchun.
Ilm-u ma'rifating san'ating uchun.
Shu yetti iqlimni yetti o'lchasa
Yettisi teng kelmas shavkating uchun.
Nizomiddin Mir Alisher Navoiy hazratlari
Bu gulshan ichra yukdir baqo guliga sabot
Ajab saodat erur chiqsa yaxshilik birla ot.
deganlarida nechog'li haq ekanliklarini yana bir bor tan olmasdan bo'lmas.

Jahonki muqaddas neni ko'ribdi.
Bariga onasan ey qodir hayot.
Besh asr naridan boqib turibdi.
Nurli bu ko'zlarga nuroniy bu zot.

O'yin «Sohibqironim» qo'shig'i ga

Taniqli yozuvchi Uyg'un va adabiyotshunos Izzat Sultonovning «Navoiy» asaridan parcha.

Shoirning do'sti shoh va shoir Husayn Boyqaro va Alisher Navoiyning yurt tinchligi, yurt osoyishtaligi haqidagi suhbatlari tasvirlangan parcha ijro etiladi.

I- Inson qalbi bilan hazillashmang siz.
Unda millat yashar, unda til yashar
Uni jo'n narsa deb o'ylamang hargiz.
Hayhot ko'zg'almasin bu qalb dafatan

Endi navbat shohlik dardini, shohlik quvonchini she'rlarida, asarlarida aks ettira olgan ajdodimiz Zahiriddin Muhammad Bobur haqida.

II- Yillar to'fonidan jang bilan o'tgan
Charxning sitamidan goh qonlar yutgan
Hazrati Boburni madh etmay bo'lmas.

I- Armonli she'rlari dardlarga da'vo
Ona Vatan bo'lib eng buyuk ma'no
Boshidan kechirgan ming bir xil savdo
Hazrati Boburni madh etmay bo'lmas.

I. Bobur haqidagi she'rlar ijro etiladi.

II- Inson hech qachon boqiy umr ko'rmaydi. Faqat undan yaxshi nom, yaxshi iz qoldiradi. Shunday ekan, bu foniylar dunyoda faqat va faqat yaxshilik qiling.

Qo'shik «Yaxshilik» ijro etiladi

Z. M. Boburning hayot va ijod yo'li haqida ma'ruza.

Sahna ko‘rinishi. Iste’dodli yozuvchi P.Qodirovning «Yulduzli tunlar» romanidan Bobur va uning opasi Xonzodabegim o‘rtasidagi muloqot aks etadi.

II- Kuy avjida uzilmasin tor,
She'r yarmida sinmasin qalam.
Yashab bo‘lmay umrini zinhor.
Bu dunyodan ketmasin odam.

Qo‘shiq «Vatan»

Bobur g‘azallari, ruboiylaridan namunalar aytiladi.

She'r «Bobur armoni»

I- Avjiga chiqardi ulug‘ kuy maqom
To‘lishib borgandek ko‘kning hiloli
Bazmga sehrli nurin sochadi
Go‘yoki yuz ochdi misli yo‘q chaman.

II- Bu o‘tkinchi dunyoda oilamiz, yaqinlarimiz, Vatanimiz bag‘rida tinch-totuv va xotirjam umrguzaronlik qilib yurganimizga ne yetsin.

I- Shuning bilan «Ajdodlar mardona ruhi senga yor» deb nomlangan dasturimiz nihoyasiga yetdi. E'tiboringiz uchun katta rahmat.

SENI KUYLAYMAN HAYOT (HAMID OLIMJON)

H.Olimjonning yubileyiga bag'ishlangan og'zaki jurnal ssenariysi.

Kutubxonaning markazida H.Olimjonning portreti. “Hamid Olimjon o'zbek adabiyotining buyuk namoyondasi” mavzusida kitob ko'rgazmasi tayyorlangan. “H.Olimjon – baxt va shodlik kuychisi” mavzusida kartoteka mavjud.

Og'zaki jurnal 3 sahifadan iborat:

1 sahifa: Vatanparvar shoir.

2 sahifa: Derazamning oldida bir tup

O'rik oppoq bo'lib gulladi...

3 sahifa: Xalqqa ayting,

Men aslo o‘lganim yo‘q!

Boshlovchi 1: Vodiylarni yayov kezganda,
Bir ajib his bor edi menda.

Chappar urib gullagan bog'im,
O'par edim Vatan tuprog'im.
Odamlardan tinglab hikoya,
O'sar edi shoirda g'oya.
O'xshashi yo'q bu go'zal bo'ston,
Dostonlarga bitgan guliston.
O'zbekiston deya atalur,
Uni sevib el tilga olur.
Chiroylidir go'yo yosh kelin,
Ikki daryo yuvar kokilin.

Qoyali tog'lar turar boshida,
Gul vodiylar yashar qoshida.
Chor atrofda yoyganda gilam,
Aslo yo'qdir bundayin ko'klam.

Boshlovchi 2 : Bugun biz iste'dodli shoir, O'zbek lirikasi taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan Hamid Olimjonning yubileyiga bag'ishlangan “SENI KUYLAYMAN HAYOT” nomli og'zaki jurnalimizga xush kelibsiz.

Boshlovchi 1: Hamid Olimjon qisqa umr ko'rgan bo'lsa-da sermazmun asarlari bilan o'ziga abadiy haykal yaratib qoldirdi.

Og'zaki jurnalimiz 3 sahifadan iborat:

1 sahifa: Vatanparvar shoir.

2 sahifa: Derazamning oldida bir tup
O'rik oppoq bo'lib gulladi...

3 sahifa: Xalqqa ayting,
Men aslo o'lganim yo'q!

Boshlovchi 2: 1 sahifa: Vatanparvar shoir.

Boshlovchi 1: O'zbek xalqining iste'dodli lirik shoiri, dramaturg, olim va jamoat arbobi, adabiyotshunos, tarjimon Hamid Olimjon 1909 - yilning 12 - dekabrda Jizzax shahrida tug'ildi. She'rlari bilan 20 asr o'zbek adabiyotiga munosib hissa qo'shgan.

Boshlovchi 2: Hamid hali yosh edi, otasi uni otga mindirib, sayr qildirar edi. Otasi bilan otida sayr qilish gashtini olgan bola barvaqt turar, otga jajji qo'llari bilan o't-o'lan berar, so'ng otasiga yalinib, otga minar va bir oz xumordan chiqardi. 4 yoshida otasi vafot etgach bobosi – mulla Azim qo'lida tarbiyalandi.

Boshlovchi 1
Bola edik,
Tanlar olov
Qalb – qaynoq,
Ko'zlar – o'tkir,

Dillar – sof,
 Erkin-erkin o'ynardik...
 Hayot bilan
 Qaynar edi
 Kuy-qishloq.
 Bir yonda tog',
 Bir yonda bog'...
 Suv sochardi...
 Gul ochardi...
 Keng ko'chalar...
 Uzun yo'llar...
 Porlar edi
 Shamchiroq...
 Suv oqardi,
 Qo'ynida
 Ko'krak kerib
 Baliq kabi
 Sho'ng'ib o'tardik...
 Qizlar o'tsa,
 Orqasidan
 Olma otardik.
 Nurli, oydin kechalar,
 Porlar edi ko'chalar,
 To'planardik,
 “Yashshinmachoq” o'ynardik.
 So'ng charchardik,

Boshlovchi 2 : Hamid Olimjon so'z san'atiga qiziqishini onasi Komila ayaning qo'shiq, topishmoq, cho'pchak, ertak, va rivoyatlari hamda bobosi mulla Azim xonadoniga kelib turuvchi Fozil Yo'ldosh o'g'lining doston va termalari asosida shakllangan. Xalqning ijodiy fantaziyasidan sehlangan Hamid onasidan “Yoriltosh”, “Tohir va Zuhra”, “Oygul va Baxtiyor” haqidagi ertaklarini takror va takror eshitdi.

Boshlovchi 1: Bolalik kezlari xalq ijodi chashmasidan oziqlangan holda Hamid Olimjon keyinchalik yozgan edi:

Esimda o'sha damlar:
 O'zi uchar gilamlar,
 Tohir-Zuhra, Yoriltosh,
 Oyni uyaltirgan qosh,
 O't bog'lagan qanotlar,
 Beqanot uchgan otlar,
 Baxtiyor bilan Oygul,
 Qiz bo'lib ochilgan gul
 So'ylaguvchi devorlar,
 Bola bo'p qolgan chollar..

Buvimning har qissasi,
Har bir qilgan hissasi
Fikrimni tortar edi,
Havasim ortar edi,
Tinglar edim betinim,
Uzun tunlar yotib jim.

Boshlovchi 2: Bo'lajak shoirning shakllanishiga yana bir muhim omil bor - bu 1916 - yilda ro'y bergan, Jizzax qo'zg'olonidir. Jizzax shahrining to'pga tutilishi, Abdulhamid yashagan, u bolalik kezlarida dunyoda sharqirab oqqan soy-u beg'ubor osmondan boshqa zulm va zo'ravonlik ham borligini ko'rib, sezib o'sdii, Abdulhamid Jizzaxdagi Norimonov nomidagi maktabni 1918-1923 - yillarda tugatdi.

Boshlovchi 1: Boshlang'ich ta'limdan so'ng 20-yillarning oxirida tahsilni Samarqanddagi pedakademiyada davom ettirgan. "Ko'klam" nomli birinchi she'riy to'plami 1928 - yilda bosilib chiqqan. She'rlarida lirik pafos yetakchilik qiladi. 30-yillarda shodlik va baxt kuychisi sifatida tanildi.

Boshlovchi 2:1923-1928 - yillarda Samarqand o'zbek bilim yurtida o'qidi. Hamid o'zining puxta bilimi, ijodiy salohiyati, jur'atkorligi va odamoxunligi bilan talabalar o'rtasida katta hurmat qozondi. Respublikaning turli shaharlaridan kelgan aksariyat talabalar Hamid bilan tanishish, u bilan o'rtoqlashishga urinardilar. U davrada o'zini quvnoq tutib, qiziq-qiziq ertik va latifalar aytar, ba'zan hayajon va zavqqa berilib, rus va o'zbek tillarida she'rlar o'qir edi. U keskin va bir so'zli edi. Talabalar va hatto muallimlar bilan ham bahs qilar, bunday bahslarda o'z nuqtai nazarini, o'z qarashlarini keskin dalillar bilan asoslay bilardi. Ana shunday qaynoq hayot tarziga qaramay, u asosiy vaqtini o'z ustida mutolaa qilishga qaratdi. U tez vaqt ichida rus tilini yaxshi o'rganib oldi va rus klassik va sovet adabiyoti namoyandalarini zavq bilan o'qishga kirishdi.

Boshlovchi 2: U qayerda bo'lmasin, qo'lidan qalam va qog'oz arimasdi. Ta'tilda ham, majlisda ham ba'zan darsda ham she'riy satrlar unga orom bermay qo'yar va shu zahoti qog'ozga tushurardi. Hamid yozgi ta'til paytlarda Jizzaxga kelganida ham shunday bo'lar edi. U qalam-daftar ko'tarib, hovuz bo'ylariga borar yo dov-daraxtlar tagida maskan topar edi. Uyda ekanida esa nimalarnidir pichirlab yurardi.

Boshlovchi 1: Oradan yillar o'tib bu ko'zlari chaqnoq bola o'zbek folklorining jonkuyarlaridan biriga aylanishi, "Alpomish" dostonini ajoyib so'z boshi bilan nashrga tayyorlanishini va uning rus tiliga tarjima etilishida tashabbuskor bo'lishini kim o'ylabdi deysiz. Baxshining "osmon kabi keng" xayoli o'sha paytlaridayoq Hamidni maftun etgan edi.

Boshlovchi 2 : 1928-1931 - yillarda O'zbekiston pedagogika akademiyasida o'qib,oliy ma'lumotli bo'ldi.

Tabiat Hamid Olimjondan hech narsani ayamagan edi. U yoqimtoy ovozga ham shamshirdek qad-u qomatga ham yana har tomonlama iste'dodga ham ega bo'lgan. Biroq

u o'ziga shafqatsiz darajada talabchan, harakatchan va mehnatchan bo'lmasa iste'dodining o'hu ko'zlari bir umrga yumuq o'tgan bo'lardi.

Boshlovchi 1: 1934 - yil edi. Sobiq “Molodaya gvardiya” kinoteatrni oldida Zulfiya H.Olimjonni uchratib qoladi. Ular bu vaqtga qadar faqat adabiy kechalar orqaligina bir-birlari bilan tanish edilar H.Olimjon bu kutilmagan uchrashuvdan mamnun bo'lib, Zulfiya bilan uzoq suhbatlashdi.

O'sha tasodifiy uchrashuvning bunday shoirona talqin etilishi ham, Zulfiyaning o'sha unitilmas oqshom soatlarida “Olcha gullaganda” she'rini yozishi ham bejiz emas edi. Aftidan, Hamid Olimjon bilan Zulfiya o'rtasidagi do'stlik va muhabbatning muhtasham binosiga xuddi o'sha kuni birinchi g'isht qo'yilgan edi.

Hamid Olimjon “Kechir meni, nozli malagim..”, “Sevgi desam, faqat sen desam...”, “Savol” kabi she'rlarida ham Zulfiyaga bo'lgan muhabbat tuyg'ulari jo'sh urib turadi.

Boshlovchi 2 : 1936 - yil 30 - mart kuni shoir uyining derazasidan o'rik gullari bo'lib navbahor ko'ringan edi. Hamid Olimjon lirikasining eng latif namunasi “O'rik gullaganda” she'ri o'sha kuni tug'ildi va bahorning ana shu ajib mo'jizasidan ob -hayot oldi.

Gul Hamid Olimjon she'riyatida baxt-saodat timsoli. Shoir “Mana senga olam-olam gul” degan misralarida ham aslida baxt chechaklarina ko'zga tutadi.

Boshlovchi 1: Yigirma ikkinchi iyun sahari
Chiqmas kishilikning aslo yodidan.
Qochib qutulolmas hech fashist hali
Ma'sum go'daklarning achchiq dodidan.

1941 - yil 24 - iyunda u “Moskva” mehmonxonasida o'tirib, o'zining “G'alaba qo'shig'i” she'rini yozdi.

She'rxon:
Fashizm – odamzod uchun qora dog' keldi,
Quyosh nuriga qarshi chang bilan to'zon keldi.
O'laksa ustidagi quzg'un bilan zog' keldi,
Yolg'iz mening Vatanim baxt o'stirar bog' keldi.
Kunduzni tun deb o'ylab sarhadga keldi o'g'ri,
Ko'rshapalak oxiri otashga keldi to'g'ri.
Tushar doim esimga – o'zbek maqolidir bu :
Kim avval musht ko'tarsa, albatta, qo'rqqoq keldi.
Gitlarning ichda qilgan qarg'ishini bilardik,
Yer tagida ilonning izg'ishini bilardik;
G'ofil deb o'ylamasin, har ishini bilardik,
O'rmonda bo'ri bilan sher olishar chog' keldi.
Dushmanning tepasida yozib po'lat qulochin,
Kalxat bilan olishgay osmonda zo'r lochin.
Tarixning hukmidir bu : biznikidir zafar chin,

Quturgan selga qarshi osmon bo'yi tog' keldi.
Hozir bo'lsin fashizm yer tagida chirishga,
Mana biz ko'kka uchdik, tepasidan qirishga.
Odamzod guvohimiz, qoyil qolsin bu ishga,
Dushmanlarni yer bilan yakson qilar chog' keldi.

She'rxon: "Misli quyosh"

Ey, muqaddas Vatanimiz – jonimizsan,
Jangda oqqan daryo-daryo qonimizsan.
Muqaddasdir qo'limizda ol bayrog'ing,
Yovni yengan chog'da topgan shonimizsan.
Erka qizdek qonimizda ming bor ziyod
Qilding oxir boajoyib elni bunyod.
Bir dunyoki, bunda odam baxtiyordir,
Bir dunyoki, zulm – vahshat yozmas qanot.
Tog'laringni to'ldiradi chaman gullar,
Tog'laringdan bog'laringga esar yellar.
Katta-kichik daryolardan bir-biriga,
Qo'shiladi senga inoq, ozod ellar.
Sen jahonda yagonasan, misli quyosh.
Ey, muqaddas Vatanimiz – jonimizsan,
Jangda oqqan daryo-daryo qonimizsan.
Muqaddasdir qo'limizda ol bayrog'ing,
Yovni yengan chog'da topgan shonimizsan.

Boshlovchi 2 : Hamid Olimjon urush yillarida ham samarali ijod qildi. «Sevgi», «Sen tug'ilgan kun», «Sharqdan G'arbga ketayotgan do'stga», «Qamal qilingan shahar tepasidagi oy» singari she'rlarida urush davri voqealarini badiiy aks ettirdi. Urush yillarida yozilgan eng yaxshi balladalaridan biri «Roksananing ko'z yoshlari» dir.

Boshlovchi 1 : Hamid.Olimjonning ikkinchi jahon urishi yillarida yozgan she'rlaridan biri "Sevgi" deb atalgan ushbu she'rda oliy janob tuyg'ular favvorasi otilib turganligini ko'ramiz. Bu nafaqat yorga, balki birinchi navbatda taqdiri xavf- xatar ostida qolgan Vatanga bo'lgan muhabbat tuyg'ularidir. She'ning lirik qahramoni yor va Vatan ozodligi yo'lida to'kilajagini o'zi uchun baxt va sharaf deb biladi

H.Olimjon shoir sifatida o'zbek she'riyatida kamolotiga katta hissa qo'shadi. Uning she'rlari musiqiyliigi, o'ynoqiligi, ravonligi va badiiy soddaligi bilan ajralib turadi. Uning "O'zbekiston", "O'rik" gullaganda, "Shodlikni kuylaganimning sababi " singari o'nlab she'rlari, "Zaynab va Omon ", Ikkigizning hikoyasi", "Roksananing ko'z yoshlari " singari dostonlari, "Oygul bilan Baxtiyor" ertagi o'zining badiiy latofati bilan kitobxonni maftun etdi .

(Ashula)

ENG GULLAGAN YOSHLIK CHOG'IMDA...

Eng gullagan yoshlik chog'imda,

Sen ochilding ko'ngil bog'imda.

Shunda ko'rdi ko'zim bahorni,
Shunda qalbim tanidi yorni.

Qushlar sayrar jonimga payvast,
Men sevgining bo'yi bilan mast.

Kuni bilan dalada qoldim,
Lolazorlar ichra yo'qoldim.

Quchoq-quchoq gullar terganim
Va keltirib senga berganim

Kechagiday hamon esimda,
Har soniya, har on esimda.

Shundan beri tilimda oting,
Shundan beri dilimda oting.

Eng gullagan yoshlik chog'imda,
Sen ochilding ko'ngil bog'imda.

Boshlovchi 2: H.Olimjon Muqanna qo'zg'oloniga bag'ishlangan sahna asarini yozishda 1937- yildayoq kirishgan va hatto o'sha yili asarning 1- pardasini yozib tugatgan . To'g'ri, 1937- yilda shoir ustida ham qatag'on bulutlarining to'planishi bilan u asar ustidagi ishini to'xtatib qo'yan va 1942- yilning boshlarida asarga qayta kirishib o'sha yilning 12- fevralida 1-pardasini yangi nusxasini yozib tugatdi. 1942- yil 31- mayda esa asar ustidagi ish uzul- kesil yakunlandi.

Boshlovchi 1: Hamid Olimjon tarjima sohasida ham faoliyat ko'rsatib, Pushkinning «Kavkaz asirasi» dostoni, «Suv parisi» dramasini, bir qator she'rlarini o'zbek tiliga o'girdi.Hamid Olimjon shoir, dramaturg, publitsist, tarjimon, adabiyotshunos va ulkan jamoat arbobi sifatida o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga hissa qo'shgan iste'dodli ijod sohibidir.

2 – sahifa “ Derazamning oldida bir tup
O'rik oppoq bo'lib gulladi...

Boshlovchi 1: 2 – sahifa “Derazamning oldida bir tup
O'rik oppoq bo'lib gulladi...
(She'rxonlik sahifasi)

1 She'rxon: “O'zbekiston”

Quyosh chiqar, to'r yoyar

O'qar oltin tutunlar.
Ko'chalar qizar, kuyar...
Shunday boshlanar kunlar.

G'ijirlar kichik eshik,
Chiqar qizil kashshof qiz,
Yomg'g'ir yuvgan yaproqdek
Jonli, tirik va tetik.
Yayrab, yashnab ketadi
O'ynab nurli ko'zlari;
Maktabiga yetadi,
Porlab anor yuzlari.

Yo'ldoshlarin ko'radi,
So'rashadi; kuladi.
Muallima – yosh xotin,
Uni jondan sevadi.

2 She'rxon Shahr... har yumshoq sahar
Kuylar bilan uyg'onar.
Alamlilar bag'riga
Sevinch tikandek botar.

Shaloladek shag'llab,
Shovqin-suron qaynaydi;
Mashinalar o'ynaydi,
Yonib, porlab, gurillab.

Bukun bayroqlar yana
Qizil karvon kutadi.
Ko'chalarni to'ldirib,
Po'lat otlar o'tadi.

Soqoliga oq tushgan
Dehkon ota minbarda:
Chopgan,
Hovliqqan,
Shoshgan...
So'zlar bir zum
Bir parda:
- “Biz siz bilan birgamiz
Mushtumzo'rlar yo'q bo'lsin.
Biz ko'plashib kelamiz,
Bu ularga o'q bo'lsin”.

Boshlovchi 2: Hamid Olimjon maktabni tugatib, Samarqanddagi Pedakademiya tahsil oldi.

Uning ilk she'rlar to'plami «Ko'klam» nomi bilan 1929- yili bosilib chiqqan.

3 She'rxon: "Baxtlar vodiysi"

Ko'm-ko'k.

Ko'm-ko'k.

Ko'm-ko'k....

Ko'klam quyoshidan

Ko'kargan qirlar,

Po'lat yag'rirlarni

Ko'targan yerlar

Ko'm-ko'k!...

Salqin saharlarda

Uyqudan turgan,

Buloq suvlariga

Yuzini yuvgan,

Marmar havolarning

Qo'yniga cho'mgan,

Zilol bo'shliqlarga

Keng quloq qo'ygan,

Mustaqillik

Ishqi bilan

Yongan dalalar

Ko'm-ko'k...

Ufqimizning hirsilarini

O'ziga tortgan,

Yelkasiga tarix bilmas

G'alaba ortgan.

Ulug' yo'lda toliqmasdan

Tez ketayotgan

Baxmal qirlar,

Keng bo'shliqlar,

Paxtazor yerlar

Ko'm-ko'k....

Boshlovchi 1: Hamid Olimjon lirik she'rlarida umuminsoniy g'oya va tuyg'ularni kuyladi. «Baxtlar vodiysi» balladasi, «O'rik gullaganda» she'rlarida ham insonning go'zalligi qalbidagi tuyg'ulari, uning tabiatidagi fazilatlar bilan belgilanishi, hamda tabiatning go'zal tasviri yuksak badiiy mahorat bilan chizib beriladi. Tabiat tasviri bilan lirik qahramonning baxt-saodati uyg'unlikda sevgi tuyg'ularini yanada ravshanlashtirgan.

1 She'rxon: O'RIK GULLAGANDA

Derazamning oldida bir tup
O'rik oppoq bo'lib gulladi...

Novdalarni bezab g'unchalar
Tongda aytdi hayot otini
Va shabboda qurg'ur ilk sahar
Olib ketdi gulning totini.

Har bahorda shu bo'lar takror,
Har bahor ham shunday o'tadi,
Qancha tirishsam ham u beor
Yellar meni aldab ketadi.

Mayli deyman va qilmayman g'ash,
Xayolimni gulga o'rayman;
Har bahorga chiqqanda yakkash
Baxtim bormi, deya so'rayman.

Yuzlarimni silab, siypalab,
Baxting bor deb esadi yellar,
Etgan kabi go'yo bir talab,
Baxting bor, deb qushlar chiyaillar...

Hamma narsa meni qarshilar,
Har bir kurtak menga so'ylar roz,
Men yurganda bog'larga to'lar
Faqat baxtni kuylagan ovoz.
"Mana senga olam-olam gul,
Etagingga siqqanicha ol,
Bunda tole' har narsadan mo'l,
To o'lguncha shu o'lkada qol.

Umrida hech gul ko'rmay, yig'lab
O'tganlarning haqqi ham senda,
Har bahorni yig'lab qarshilab
Ketganlarning haqqi ham senda..."

Derazamning oldida bir tup
O'rik oppoq bo'lib gulladi...

Boshlovchi 2 : 1935- yili «Zaynab» ocherkini, u asosda «Zaynab va Omon» dostonini kitobxonlarga taqdim etdi.

Boshlovchi 1: Iste'dodli shoir Hamid Olimjonning ko'pchilik asarlari qardosh xalqlar va xorijiy xalqlar tillariga tarjima qilingan.

Shoir 1944- yilda avtomobil halokatiga uchrab vafot etgan. Uning nomi abadiylashtirilgan.

1 She'rxon: Rimma Kazakova
“Hamid Olimjon xotirasiga”
Erta ketgan ulug' shoirlar har vaqt
El – yurti qalbida bitmas jarohat.
.... Davr ruhi, zamon g'ayrati ila
Mahkam tutgan edi shoir qo'llari
Orzu – umidlarga to'lug' yo'llarni.
Tashnalikning ajib harorati – la
Birga tug'ilardi Hamid Olimjon!
Undan so'ng dunyoga keldim-u, shu choq
Meni qarshi oldi shiddat, hayajon.
Mehrli kunlar-u, baxt kuyi qaynoq,
Lahzalar kechardi go'yo bearmon!
Bularning boisi – nafaqat shoir
Umri davomchisi – farzandlaridir.
Vafoli ayolday dilbar, benazir
Mashaqqatli yo'lning balandlaridir.
Garchand ushlab ko'rsa bo'lar marmarni,
Garchand mayin – mayin silashing mumkin.
Lekin uchrashtirdi meni u bilan
O'zbek shoirining g'ururi to'lar
Ufq'larga tutash dalalar, yo'llar!
Oddiygina haykal yonida bu dam
Sukunat hukmron, kenglik muazzam.
Shoir she'rlaridan yod o'qir bola
Ovozida titroq, ko'z o'ngimizda
Satrlar qad kerdi zalvorli, chaqnoq.
Ulkan haqiqatlar ochdilar bag'r –
Hamisha tirikdir Hamid Olimjon!
Singib borar bola har bitta so'zga,
Bu shunchaki eslash, xotirlash emas
Uni tinglardilar chulg'onib hisga,
Haykal tirilganday ko'z ilg'ay olmas
Har bir tomiriga jon kirgan sari
Eshitildi hatto yurak zarblari!
Erta ketgan shoir tilga olinsa
Ta'rifi mushkulday, so'z aytmoq og'ir...
Desalar ishonma, bari – uydirma!
Ular yashayotir satrma-satr,
Ular qoldirmishi – dillarni kechib,

Dillarga kuyilmish daryo – daryo so'z.
Endi senikidir – bu yurak, bu So'z!
Shoirilar o'lmaydi, sodiq do'st kabi
Ko'klamda gullagan o'rikni kutar.
Dunyolarga sig'mas bebaho qalbi.
Eng uzun muhabbat yo'lini tutar.
Muhabbatki, quvonch, qayg'ularida
Dunyoning eng go'zal, pok ayolini
Boshida ko'tarib, mukarram etar.
Har onda, har bir kun, har bir bayramda
Shoir she'rlarida uyg'otib tongni
Yoniq ko'ngillarni larzaga solib,
Mehri –la ardoqlab, kuchmish Vatanni!..
Istirobdan kuyib ketsa-da yurak
Shoirdan so'z ochgum hech o'lim bilmas-
Yashab o'tdi shunday Hamid Olimjon!

FOR AUTHOR USE ONLY

**O'zbek xalqining sevimli shoiri Hamid Olimjonga bag'ishlangan «Sen
elimning yuragida yashaysan» deb nomlangan adabiy kecha**

Guruh a'zolari 4 ga bo'linib, davra stoli atrofida o'tirishadi. Kuy chalinadi. Slaytlar Vatanimiz O'zbekiston tasviri: bog'lar, tog'lar, shaharlar, turli go'zal manzaralar. Oxirida Hamid Olimjon rasmi. (1909-2013) degan yozuv ko'rsatiladi. Bu vaqtda «O'zbekiston» qo'shig'i ijro etiladi.

1. Assalomu alaykum aziz va mo'tabar, munis, fidoyi ustoz-u, murabbiylar!
2. Assalomu alaykum, davramizga fayz va tarovat baxsh etayotgan aziz mehmonlar, qadrlı do'stlar!

1. Aziz do'stlar! Bugun biz siz bilan kutlug' bir kunda uchrashib turibmiz.
2. Bu bayram shodiyonimiz o'zbek xalqining asil farzandi, o'zbek adabiyotining yorqin yulduzlaridan biri Hamid Olimjon tavalludiga bag'ishlanadi.

1. Shodlik yo'lga boshladi meni,
Baxtiyorlik bo'ldi odatim
Shoir bo'lib shodlik va baxtni
Kuylamaslik zo'r saodatim
2. Xa, shoir Hamid Olimjon o'zining jozibasi, takrorlanmas ijodi bilan o'zbek xalqining qalbidan chuqur joy oldi.

1. Uning nomini Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Fitrat, Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Kahhor kabi o'lmas siymolar qatorida hurmat bilan tilga olamiz.
2. Endi ulug' shoir hayotining muhim sanalariga nazar tashlasak.

1. Biz shoir hayotini ramziy ma'noda 4 guruhga bo'ldik. «Bolalik» ostonasi», «O'rta yoshlik durdonalari», «Vatan va baxt kuychisi» va «Mangulikka dahldor»

2. Hamid Olimjon «Bolalik» she'rida shunday yozadi.

Bola edik,
Tanlar olov
Qalb qaynok
Ko'zlar o'tkir
Dillar sof
Erkin erkin o'ynardik

1. Hayot bilan qaynar edi.
Kuy qishloq
Bir yonda tog'
Bir yonda bog'
Sevimli shoirimiz jonajon O'zbekistonimizning ko'hna shaharlaridan bo'lgan Jizzaxda tavallud topdi.

- 1909-yil 12-dekabr Hamid Olimjon Jizzaxda mehnatkash oilasida tavallud topdi.
- 1918-yil Hamid Olimjon Jizzax shahridagi Narimonov nomli to'liqsiz o'rta maktabga o'qishga kiradi.
- 1923-yil Hamid Olimjon to'liqsiz o'rta maktabni bitirib, Samarqanddagi o'zbek bilim yurtiga o'qishga kirdi.
- 1925-yil bilim yurtining “Yosh kuch” devoriy gazetasi va “Uchqun” qo'l yozma jurnalida Hamid Olimjonning daslabki she'r va maqolalari bosiladi.
- 1928-yil oktabr Hamid Olimjon O'zbekiston oliy pedagogika institutining iqtisod fakultetiga o'qishga kirdi.
- 1929-yil Hamid Olimjonning birinchi she'rlar to'plami «Ko'klam» bosilib chiqadi.

She'r: «Bolalik kunlarimda», «Oygul bilan Baxtiyor», «Uchrashuv» she'ri.

1. Ulkan shoir, nodir insoniy fazilatlar sojibi Hamid Olimjon 30-yillarda yonib ijod qildi.
2. Shoir «Ilhom vodiysi» da turib shunday yozadi.
Ehtiroslar, hislar, yonishlar
O'lkasini kezardi xayol
Hokim edi mening ruhimda
Shunday latif ilhomiy bir holl

1. Hurmatli kasbdoshlar! Endi iste'dodli shoirimizning o'rta yoshlik durdonalari bilan tanishamiz.

II. guruh

- 1930-yil shoirning “Tong shabadasi” hikoyalar to'plami nashr etildi.
- 1931-yil shoirning “Olov sochlar” she'rlar to'plami e'lon qilindi.
- 1932-yilning bahor oylari shoirning “Baxtlar vodiysi” she'ri vujudga keldi.
- 1932-yilning bahor oylari shoirning “Baxtlar vodiysi” she'ri vujudga keldi.
- 1932-yil shoirning “Poyga” va “O'lim yovga” she'riy to'plamlari bosmadan chiqdi.
- 1935-yil, 23- iyul Hamid Olimjon shoira Zulfiyaga uylandi.
Hamid Olimjon she'rlari kuyga solib aytiladi.
She'rlar:
«Xayolimda bo'lding tun-u kun», «Rozimasman», «Meni kutgil», «Vafo».

Qo'shiq«Eng gullagan yoshlik chog'imda»

1. Davramizning hurmatli ishtirokchilari va aziz mehmonlari! Biz endi «Vatan va baxt kuychisi» Hamid Olimjon ijodiy faoliyatini varaqlashda davom etamiz.
2. Shoirning bu davr ijodini «Yulduzli daqiqalarga o'xshatamiz. Zero, muallif shunday yozgan edi.
Muhit uzra qanotingni yoz

Ok qushlarning o'lkasida yur.

Marhamat ustozlar.

III gurux

- 1936-yil Hamid Olimjon Chimyonda A.S.Pushkinning 'Kavkaz asiri' va "Suv parisi" asarlarini tarjima qildi.
- Shu yili shoirning "Daryo kechasi" she'rlar to'plami nashr etiladi.
- 1937-yil Hamid Olimjon va Zulfiyaning to'ng'ich farzandi- Hulkar dunyoga keldi.
- 1936-1937-yillar Hamid Olimjon N.Ostrovskining "Po'lat qanday toblandi" romanini tarjima qildi.
- 1938-yil "Zaynab va Omon" dostoni yaratildi.
- 1939-yil 27-aprel Hamid Olimjon O'zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasining raisi qilib saylandi.
- 1939-yil Hamid Olimjon Katta Farg'ona kanali qurilishidagi madaniy xizmatlari uchun "Hurmat belgisi" ordeni bilan mukofotlandi.

She'r: Shodlikni kuylanganimning sababi».

«Zaynab va Omon» poemasi Hamid Olimjon ijodida muhim ahamiyatga ega asardir. Bu asar hayotiy materiallar asosida, o'z davrining mashhur kishisi dongdor paxtakor Zaynab va Omonova bilan uchrashuv natijasida yaratiladi.

2. Asarning badiiy qimmatini juda katta. Shoirning tili ravon, sodda, badiiy-ta'siriy vositalarga boy. Unda mehnat, vatanparvarlik, sof va samimiy muhabbat ulug'lanadi.

«Zaynab va Omon»dan parcha

Beqasam (galdir) qo'shig'i.

«Na bo'lg'ay» g'azali.

2. Aziz do'stlar! Endi e'tiboringizni o'zbek musiqa madaniyatining go'zal qo'shiqlaridan biri «O'rik gullaganda»ga qaratmoqchimiz.

1. Odatda, bahor kelganda hammadan avval bodom gullaydi. Keyin o'rik, olma, shaftoli gulga kiradi. O'rik guli boychechakdek ilk bahor ramzidir.

2. Shuning uchun bo'lsa kerak, Hamid Olimjon uchun eng tansiq gul o'rik guli edi. Olmaotadan qaytgan shoir o'rikning chaman bo'lib ochilganini ko'rdi, undan ta'sirlandi.

1. Shu kuni 1937-yil 30-mart kuni tabiat lirikasining eng latif namunasi- «O'rik gullaganda» she'ri yaratildi.

Go'zallikning tarannum etay,

Hur diyorim madhini qo'shib.

Kuyla torim, dildan, yurakdan

Kuyla jonim, dilrabo qo'shiq.

«O'rik gullaganda» qo'shig'i

2. Yana kimki, Vatan uchun jang qilsa,

Yana kimki, yov holini tang qilsa,

Yana kimki, yovni quvlasa Vatandan,
Mening chehram ko'rinadi o'shandan.

1. Qadrli davra ahli, aziz ustozlar! Shoir Jamid Olimjon hayotining so'nggi davri Ulug' Vatan urushi yillariga to'g'ri keladi.

2. U o'zining butun hayotini va ijodini xalqimizning fashistlar Germaniyasi ustidan g'alabasiga bag'ishladi.

Marhamat ustozlar, So'z sizlarga!

IV guruh

- 1939-yil shoirning "O'lka", "Oygul bilan Baxtiyor" she'riy kitoblari nashr etiladi.

- 1941-yil 24-iyun Hamid Olimjon Moskvada "G'alaba qo'shig'i" she'rini yozadi. Shu yil 27-dekabrda Toshkent intellegensiyasining fashizimga qarshi umumshahar yig'inida nutq so'z'ladi.

- 1942-yil shoirning "Qo'lingga qurol ol" hamda "Ona va o'g'il" she'riy to'plamlari bosilib chiqdi.

- 1943-yil Hamza nomidagi O'zbek Drama teatrida "Muqanna" spektaklining premyerasi bo'lib o'tdi.

- 1943-yil shoirning "Ishonch" she'riy to'plami nashr etiladi.

- 1944-yil 3-iyul Hamid Olimjon avtomobil halokati natijasida vafot etadi.

Zamondoshlar xotirasida «Sen tug'ilgan kun» she'ri, «Jangchi Tursun» balladasi.

1. Aziz do'stlar! Sizga ma'lumki, 1944-yil 3-iyul kuni shoir Uyg'un, Hamid Olimjon va boshqa shoirlar Toshkentda o'zbek yozuvchilarning Do'rmondagi ijod uyida bo'lishadi.

2. Ular maroqli dam olishgach uylariga qaytishadi. Ming afsuski yo'lda ular mingan yuk mashinasi halokatga uchradi.

1. Shuni aytish joizki, bundan 11 oy ilgari 1943-yil 24- avgustda Hamid Olimjonning kenja farzandi Omonning tug'ilgan kuni nishonlangan edi.

2. Kecha nihoyasida shoir shunday degan edi. Aziz do'stlar, men 4 yoshga to'lganimda otamdan judo bo'lganman. Men uning muhabbatiga to'ymay o'sdim. Mana bugun o'g'lim ham 4 yoshga to'ldi. Uning ota-onasi bor. Ota-ona bag'rida o'sish esa farzand uchun katta baxt. Men farzandlarimning uzoq vaqt shunday baxtli bo'lishini tilayman, deydi.

1. Taassufki, taqdir taqazosi bilan Omon ham hali 5 yoshga to'lmay turib otasiz qoladi. O'zbek she'riyatining jo'shqin chashmasi, o'zbek xalqining yangroq bir sadosi o'zining avj pardasida tindi.

2. Endi shoir zamondoshlarining Hamid Olimjon haqidagi xotiralarini tinglaymiz.

1. Hamid Olimjon o'z she'rlarining uzoq umr ko'rishini orzu qilib yozgan edi.

Tushmasa yuzga hech ajindan iz

Yana bir muddaoki hal bo'lsa

Baxtimiz barho yoyib ildiz,
Umrimiz bir asr tugal bo'lsa.

2. Shoirning baxti shundakki, shoirning o'zi ko'rmagan asrni, asrlarni uning asarlari ko'radi.

Xalqqa ayting, men aslo o'lganim yo'q,
Yov qo'liga taslim ham bo'lganim yo'q,
Men elimning yuragida yashayman
Erk deganning tilagida yashayman.

1. Shuning bilan o'zbek xalqining sevimli shoiri Hamid Olimjonga bag'ishlangan «Sen elimning yuragida yashaysan» deb nomlangan adabiy dasturimiz o'z nihoyasiga yetdi.

2. Ozigina bo'lsada sizning qalbingizga iliqlik olib kirgan bo'lsak o'zimizni baxtiyor his qilgan bo'lardik.

Yurt e'zozlagan shoira

(O'zbekiston xalq shoirasi Zulfiya tavalludiga bag'ishlangan adabiy kecha ssenariysi)

1-boshlovchi: Assalom, davramizning eng aziz mehmonlari,
Assalom, ilm-u fanning sohib-u davronlari.

2-boshlovchi: Salom, mening aziz dugonalarim,
Azizim, lo'barim, chevarim qizlar.
Ey toza qalbmning oshnolari,
Kuylarim ilhomi, sevarim qizlar!

1-boshlovchi: Assalom aleykum aziz va muhtaram ustozlar, qadrli mehmonlar va o'quvchi-yoshlar. Mana, o'lkamizga go'zal bahor tashrif buyurdi. Bahorning ilk kunida o'zbek she'riyatining porloq yulduzi, vafo va sadoqat timsoliga aylangan shoira Zulfiyaxonim tavallud kuni mamlakatimizda juda katta va keng miqyosda nishonlanadi. Shu munosabat bilan bugun shoira Zulfiya tavalludining bah'ishlab, «Yurt e'zozlagan shoira» mavzusida tayyorlangan adabiy-badiiy kechamizga xush kelibsiz, azizlar!

2-boshlovchi: O'zbek ayol she'riyati haqida o'ylaganimizda, beixtiyor ko'z o'ngimizda ikki ayol siymosi namoyon bo'ladi, yuragimizda iftixor tuyg'ulari mavjlanadi. Bularning biri Nodira-yu, ikkinchisi esa Zulfiyaxonimdir.

1-boshlovchi: Ayol dardlarini tinglamoq, ayol amlarini anglamoq mushkul. Vafo osmonining

oqqushlari, oppoq qushlariga aylangan Zulfiyaxonim ayol dardlarini tingladilaru, uning tarjimoniga aylandilar, ko'zlaridagi yoshlarini she'riyatdan gul tikilgan ro'molchalari bilan astagina artib qo'ydilar. Goh so'zlari, goh she'rlari bilan ayol bardoshiga aylandilar.

2-boshlovchi: Ijodlari ila muzayyan shoira Zulfiyaxonim yaratgan san'at asarlaridagi ayol timsoli hijron azobining o'txonalaridagi ko'ngil og'riqlarini bayon etdilar, goh ona bo'libmehr-muhabbatni, poklikni, insonparvarligu mehnatkashlikni farzandlariga – yosh avlod diliga jo etdilar, qizlarimizning pokdomanligi, hayosi haqida qayurdilar.

1-boshlovchi: Zulfiyaxonim bir farishtakim, qanotlari muhabbat va vafodandir. Poklik ma'budasikim, vafoning uzun-uzun yo'llarida sabr, bardosh, matonat bilan bosgan qadamlarining tuproqlarini ko'zlarga surtmoqlikni, hijronning zil-u zambil yuklariga nozik yelkalarini tutib bergan sadoqatning oyoqlari ostiga sajda etmoqlikni ko'plar xo'p orzu qilgaylar.

1-boshlovchi:

Salqin saharlarda, bodom gulida,
Binafsha labida, yerlarda bahor.
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor...

2-boshlovchi:

Qancha sevar eding, bag'rim bahorni,
O'rik gullarining eding maftuni.
Har uyg'ongan kurtak hayot bergan kabi
Ko'zlaringga surtib o'parding uni...

1-boshlovchi: Darhaqiqat, Azizlar, bugun bahor keldi shoira Zulfiyaxonimni so'roqlab... Qani endi, shoira Zulfiya bugun davramizda bo'lsalar...

(Shu payt sahnaga Zulfiya timsolidagi o'quvchi kirib keladi)

O'quvchilar: Xush kelibsiz, Zulfiya opa! Marhamat, davramizning to'ri, qalbmizning qo'ri sizniki.

Boshlovchilar: Biz sizning bolalik yillaringiz, hayotingiz haqida ko'p ma'lumotlarga ega bo'lmoqchimiz. Shuningdek, o'quvchilarimiz sizning she'rlaringizdan namunalar aytib bermoqchilar.

Marhamat, so'z sizga!

Zulfiya:

Bu oqshom porillar dil nuringizda,
Diydor baxti nasib yana siz bilan.
Turibman, azizlar, huzuringizda
Hamon o'tli ko'ngil, yorug' yuz bilan.

Hamon mulkimdagi siym-u zarim – she'r,
Sochimda, chehramda yillardan nishon,

Sajdagohim tanho Vatan, Ona – Yer,
Orzularim – karvon, Sarbonim – ishonch.

Azizlarim, she'riyat mulkinging sohib-u sohibalari! Avvalambor, siz-la uchrashganimdan behad baxtiyorman. Bugun mening izdoshlarim mustaqil O'zbekiston shuhratiga shuhrat qo'shib, jamiyatning har bir sohasida mardonavor mehnat qilib kelayotgani meni mamnun etadi, albatta.

Men 1915-yil 1-mart kuni Toshkentda tavallud topganman. Otamni Isroil degrez, bobomni esa Muslim degrez der edilar. Men bolalagimda otamning og'ir va mashaqqatli, ammo juda qiziqarli mehnatini ko'rib, ko'nglim allanechuk zavq-shavqqa to'lardi. Onam xalq og'zaki ijodini juda yaxshi bilar, menga tunlari bilan aytgan alla-yu xalq qo'shiqlari, qiziqarli ertak-u dostonlari meni adabiyot olamiga boshlagani ayni haqiqatdir. To hanuz onajonim aytgan she'r-u qo'shiqlar, seyr-sinoatga to'la voqealar xayolimda, xotiramda yashab kelmoqda.

Adabiyotga qiziqishim va ishtiyoqim ortib, kichik-kichik she'rlar mashq qila boshladim. 18 yoshimda 1-she'riy to'plamim nashr etildi. Shosha-pisha unga «Hayot varaqalari» deb nom beribman.

Dastlab Xotin-qizlar bilim yurtini tugatdim, so'ngra Til va adabiyot institutida o'qidim. Turli jamoat ishlarida faol qatnashdim. Shunday kunlarning birida taqdir menga ajoyib umr yo'ldoshi, talabchan murabbiyni nasib etdi. Garchi birgalikda juda qisqa vaqt umr kechirgan bo'lsak-da, bu davr mening hayotimdagi eng ajoyib va osuda damlar edi. Men bu insondan juda ko'p narsalarni o'rgandim...

Hayotning beshafqat zarbasidan lol qolganimda farzandlarim qo'limdan tutdilar, she'riyat meni hayotga qaytardi. Men ko'ngil dardlarimni, tuyg'ularimni nazmga soldim. Xalqimning dardiga malham bo'lishni, ayollar dardiga darmon bo'lishni o'z oldimga maqsad qildim.

Hijroning qalbidam, sozing qo'limda,
Hayotni kuylayman, chekinar alam.
Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda
Men hayot ekanman, hayotsan sen ham.

Qo'shiq ijro etiladi.

1-boshlovchi: Rahmat, Zulfiya opa! Endi esa sizning she'riyatingiz asosida qizlarni mushoiraga taklif etamiz.

Go'zal tuproq uzra quyilar oqshom
Kunduz olar dam.
Jo'shqin mushoira etadi davom,
Do'stim, kel sen ham!

O'quvchi:
Yana ko'k tubida sayraydi qushlar,
Yana yerda ko'hna yam-yashil ko'rpa.

Yana tandan ketdi mudrash-u tushlar,
Yana yoshday dilda o'ylar ming turfa.

O'quvchi:
Kel, bahor, qurigan sahroga
Ilk yomg'ir berar gulsimon, kel.
Aylanmay qon dilda safroga
Jonlansin, eng qodir hayot ber!

O'quvchi:
Sindi qish to'qigan muz hisli qafas,
Mana, yana qushlar chug'urlab qoldi.
Ona nigohiday muloyim nafas
Zamin-u osmonni bag'riga oldi,
Demak, bahor keldi.

O'quvchi:
Shoir sevgan o'lka ko'ksida
Xushbo'y bahor kezib yuradi
Ne bo! Hatto qoya ustida
O'rik oppoq bo'lib gulladi.
Do'st-u yorlar jamuljam bu kun
Aziz noming mehr nurida.

Ming bor uzr bugun sen uchun
Men o'ltirdim to'ying to'rida.
Ne-ne go'zal yoshliklar kelar,
Umri boqiy hayot yo'lida.
O'shanda ham o'riklar gullar,
Sen bo'lasan dillar to'rida.

O'quvchi:
Yashash aziz hissi tanda kezganda,
Umr ko'pi kechib, armon dilni ezganda,
Hatto o'zni xasta, zaif sezganda,
Og'ir, benaf o'ydan yurak bezganda
Seni kuylayman, hayot!

Qo'shiq ijro etiladi.

1-boshlovchi: Xalqimiz, millatimiz hamisha buyuk farzandlarini e'zozlab, ular bilan faxrlanib kelgan. Bunday iste'dodlarning xizmatlari hamisha munosib taqdirlangan. Ana shunday tarixiy e'tirof mustaqillik sharofati, Prezidentimiz tashabbuslari bilan bugun davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligini Zulfiyaxonim misolida ko'rishimiz mumkin.

Bu birinchidan, mamlakatimizdagi odil siyosat natijasi bo'lsa, qolaversa, shoiraga xalqimiz qalbidagi e'zozning yorqin timsolidir.

2-boshlovchi: Hamon e'tiqodim – haqiqat, haqdir,
So'zlayman yuzimni tutib Ka'baga,
Yemira olmaydi o'tkinchi taqdir,
Osuda o'tadi ruhim abadga.
E'zozlar, ardoqlar uchun tashakkur
Asli siz oftobim, men ziyosiman.
Tonglaringiz kulsin dorilomon, hur,
Baxtim shul – o'zbekning Zulfiyasiman.

FOR AUTHOR USE ONLY

KAFTINGDA TUT, ASRA AYOLNI!

(8- mart - Xalqaro Xotin-qizlar bayramiga bag'ishlangan tadbir ssenariysi)

Maktab zali bayramona bezatilgan. Bayramga bag'ishlangan devoriy gazetalar, «Sen baribir muqaddassan, muqaddas ayol» mavzusida kitob-illyustrativ ko'rgazmasi tashkil etilgan.

Magnitofon tasmlarida xonanda Ravshan Komilovning «Sen baribir muqaddassan, muqaddas ayol» qo'shig'i yangramoqda.

Davraga ikki boshlovchi chiqib keladi..

1- boshlovchi: Assalom , ey davramizning eng aziz mehmonlari,
Assalom , ey ilm-u fanning sohib-u davronlari.
Assalom muallimlar va munis onajonlar
Davramizga xush kelibsiz, barcha aziz mehmonlar.

2-boshlovchi: Assalom onajon, jondan azizim,
Bag'ringiz beg'ubor, mehringiz quyosh.
Sizga dildan hurmat, tahsin-u, ta'zim,
Qalbimga hamohang mehribon, sirdosh.

1-boshlovchi: Assalomu alaykum hurmatli murabbiylar, aziz mehmonlar, mehribon opa-singillar, munis onajonlar. Biz bugun Sizga ehtirom ila ta'zim bajo etishga yig'ildik.Chunki bugun sizlarning eng qutlug', eng ulug', eng sharaflil bayramingizdir.

2-boshlovchi: Assalomu alaykum qalbi quyosh, mehri daryo insonlar. Bugun ana shu muborak kuningiz munosabati ila qalbimiz to'ridagi qaynoq mehrimizni, muhabbatimizni gulzorning chiroyli gullari misol guldastalarimizni Sizga, sizga hadya etmoqchimiz.Ana shu guldastalarimiz bilan Sizni xushnud etsak, boshimiz ko'kka yetardi.

1- boshlovchi: Ayol – nazokatdan yaralgan ma'vo,
Ayol - yuraklarda sevgi-sadoqat.

2- boshlovchi: Ayol – bu dunyoning bor mo'jizasi,
Ayolda jam erur borki latofat.

(«Onajon» qo'shig'i ijro etiladi).

O'quvchi: Qadim Buxoroda yangi tong otar,
Zarrin nurlarini sochmoqda quyosh
Tun bo'yi to'londi bechora ayol,
Tongga qadar berdi azoblarga dosh.

Yuragi ostida yangi bir vujud,
Yangi qalb yaratib ayladi e'zoz.
To'qqiz oy ko'tarib uni rahmida

Mehr ummonida ayladi parvoz.

O'quvchi: Subhidam qalbingning bir parchasini
Dunyoga keltirgan sen eding, onam.
Yurak qo'ring bo'lib dunyoga kelgan
Sening bir bo'laging men edim, onam.

Rivoyat qilmishlar: Momo Havodan
Yaralgandir olam Dunyoi azim,
Dunyoning gultoji Siz onalarga
Qo'llar ko'ksimizda etamiz ta'zim.

1-boshlovchi: Ha, aziz ayollar, mehribon onajonlar. Sizlarni qancha e'zozlasak,
ardoqlasak, kamlik qilur. Zeroki,
Ayol poklikdan yaralgan ma'vo
Bir qo'lida beshik, birida dunyo.

2-boshlovchi: Ayol... Tabiatning nozik va nafis guli. Tiriklikning davomchisidir.

1-boshlovchi: Ayol... Bu dunyodagi eng sehrli, eng jarangli, eng pokiza so'z.

2-boshlovchi: Ayol... Boqiy yaratuvchi, Ayol – mangu yashnatuvchi, Ayol –
go'zallik, nafosat-u nazokat timsoli.

1-boshlovchi: Beshikdadir bir qo'li
Dunyo tebratar biri
Barcha go'zallik siri
Sizda asli ayollar.

Qalbin tafti quyoshli
Metindayin bardoshli
Qorako'z qalam qoshli
Hurlar nasli ayollar

2-boshlovchi: Ayol... Hayrat malikasi. Ayol – muhabbat ma'budasi. Ayol – eng
avvalo mehribon onadir. Bobokalonimiz A.Navoiy aytganlaridek,

Anolarning oyog'i ostidadir,
Ravzai jannatu jinon bog'i.
Ravza bog'in visolin istar ersang,
Bo'l onalar oyog'in tufrog'i.

1-boshlovchi: Onajon! Bir parcha etdan bizni avaylab, katta qilgan, oq sutingiz
bilan bizga insoniylikni, mehr-muhabbatni, odamgarchilikni, oqibatni singdirgan,
kechalari tonggacha ko'z yummasdan beshigimiz quchoqlab allalar aytgan Siz emasmi,
Onajon!? Bu bebaho xizmatlaringiz oldida biz farzandlar umrbod sizga bosh egib
ta'zindamiz.

2-boshlovchi: Bulbullar xonishni sizdan o'rgansin, hofizlar kuy sehrini sizning allangizdan izlasin, Onajon!

O'quvchi: O'rikzor ichidan oy nurin to'kar
Oq o'rik guliga shodlik baxsh etib.
Qaydadir bir inson so'z qo'shiq kuylar
Umidbaxsh dillarga orzu naqsh etib.

Olamga taralar bu mas'um qo'shiq,
Maysalar talpinar ushbu qo'shiqqa.
Bu qo'shiq yurakka atalgan tortiq,
Ona allasi bu kuylanmish ko'kdan.

(«Alla» qo'shii ijro etiladi).

1-boshlovchi: Bu go'zal ayyomning ilk bahor kunlarida bayram qilinishi bejiz emas. Chunki Bahor va Ayol tushunchalarini bir-biridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu ikki so'z zamirida hayot abadiyligiga ishonch, mehr-muhabbat, pokiza orzu-umidlar, yaratish va yashnatish mujassamdir.

2-boshlovchi: Ayol zoti Olloh Taolloh yaratgan tabiatning eng buyuk mo'jizasidir. Avvalo, ayol o'zining betakrorligi bilan, go'zalligi bilan mo'jizadir. Hatto Odam Atoni ham go'zalligi bilan lol qoldirib, o'ziga chorlagan ham Ayoldir.

O'quvchi: Gul nozik, guldanda nozikdir ayol,
Yo'g'imiz bor qilib yurgan ham ayol
Dunyoni tebratib turgan ham ayol
Dunyo betayindir, ayol bo'lmasa.

Yuz yil bahor bo'lsin, gullar gullasin,
Bulbul sayrayversin, mayli tinmasin.
Daryo qo'shiq bo'lib aytib to'ymasini,
U chaman cho'l bo'lur, ayol bo'lmasa.
Bola o'ksib-o'ksib emak izlaydi,
Hayot kula olmas, hayot yig'laydi.
Bu dunyo xor bo'lar ayol bo'lmasa,
Mehrga zor bolar, ayol bo'lmasa.

(«Munojot» qo'shii ijro etiladi.)

1- boshlovchi: Ayol go'zalligi va latofatini tasvir etmoqqa har qanday ta'rif-u tavsiflar ozlik qiladi. Ayol o'zining nozik yelkalarida nafaqat o'z oilasi, balki butun olam tashvishlarini ko'tarib yuribdi, desak mubolag'a bo'lmas. Oila farovonligini el-u yurtning tinchligini ta'minlovchi ham ayoldir.

2-boshlovchi: Bugun biz ona ta'rifi zaminida, go'zal ayol zaminida shu yerda o'tirgan aziz o'qituvchi-muallimalarimizni ham go'zal chehralarini ko'ramiz. Obod va ozod Vatanimizga sodiq, yurtimiz shuhratiga shuhrat qo'shadigan barkamol insonlarni tarbiyalashdek sharaflı vazifani o'zlarining umr mazmuni deb biladigan bu fidoyi insonlarga ham bir umr ta'zindamiz. Zero, xalqimizda «Ustoz – otangdek ulug'» degan purma'no hikmat bor.

(«Ustozlar» qo'shih'i ijro etiladi.)

1- boshlovchi: Quyoshsiz yorug'lik yo'q, sevgisiz baxt-saodat yo'q, ayolsiz muhabbat yo'q, onasiz qahramon ham yo'q.. Ha, onajonlarimiz har birimiz siinadigan ma'budalardir.

2- boshlovchi: Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'birlari bilan aytganda, «Oqila, go'zal ayollar o'zlarining g'amxo'rligi, mehribonligi, qalbi daryoligi bilan oiladagi, qolaversa, butun jamiyatdagi, muvozanatni, poklik, halollik, samimiyat va adolat muhitini saqlab turadilar».

(«Onajon» qo'shig'i yangraydi)

1-boshlovchi: Dunyoda onalar mehridan kuchliroq tuyg'u yo'qdir. Ona shunday ulug' zotki, u o'z yuragidan yangi yurak ko'chiradi.

2-boshlovchi: Haqiqatdan ham, erkaklar bilan barobar tarix g'ildiragini aylantirayotgan munis, jafokash onajonlarimiz muhabbatidan ham muqaddas va beg'ubor tuyg'u yo'qdir.

O'quvchi: Quyoshdan so'rdilar: «Ey nurli quyosh,
Sening ham taftingdan bormi hech kuchli?»
Quyosh javob qildi: «Mendan ham otash
Onalar mehridir, mendan ham nurli».

O'limdan so'rdilar: «Ayt-chi, ey o'lim,
Sening vahimangdan bormi haybatli?»
O'lim javob qildi: «Lol qolgan tilim,
Onalar mehridir mendan qudratli».

(«Tanovar» raqsi ijro etiladi)

1-boshlovchi: Ona – ulug' zot. Ona borki, olam bor, Ona borki, Vatan bor. Ona borki, hayot bor. Ona borki, odam bor.

2-boshlovchi: O'z farzandiga jonini bergan onaning mashaqqatli mehnatlarini unutmaylik. Onalar hurmatlarini saqlaylik, ko'ngillarini olaylik.

O'quvchi: Ko'zingizning ko'zgusida
Faqat farzand aksin ko'rdim.
Hayotingiz yog'dusida
Bolam degan aksin ko'rdim.

Shu o'y bilan baxtga yorsiz
Dard-u hasrat chekingusi.
Garchi kimlar bersa ozor,
Vale farzand kuch bergusi.

(«Onadir ul» qo'shig'i ijro etiladi)

1-boshlovchi: Muhtarama onajonlar, qadrlı opa-singillar, dilbar ayollar! Siz
azizlarga har qancha tashakkur aytsak, har qancha ta'zim qilsak kamdir

2-boshlovchi: Onajonlarimiz, go'zal ayollarimizni ta'riflab, sharaflab, adiblarimiz
ham o'z ash'orlarini bitganlar. Tinglang, ular sizlarga baishlangan.

1- o'quvchi: Boshni fido ayla ato qoshig'a
Jismni qil sadqa ano boshig'a

2-o'quvchi: Istagim bir umr ortsin baxt-u iqboli,
So'zlasa tilidan to'kilar boli.
Barchinoydek suluv, juda iboli,
O'z qadrini bilgan, iffat- hayoli.
Bu yuksak baholi – o'zbek ayoli.

3- o'quvchi: Tabiat in'omi undagi chiroy,
Malohatda tengsiz, latofatga boy.
Bahslasholmas hatto unga to'lin oy.
Ona sayyoramiz ko'rki misoli
Go'zallik timsoli – o'zbek ayoli

4- o'quvchi: Go'yo o'z borlig'i bergandek falak
Soch – qora tun, qoshlar – egik kamalak..
Unga teng kelolmay Zuhro jon halak,
Goh shom malikasi, goh tonggi malak,
Barchani lol etgan oydek jamoli
Husni mahliyoli – o'zbek ayoli.

5- o'quvchi: Mehridan bahramand barcha do'st-u yor,
Yurtda har jabhada, har ishda ilg'or.
Oilada esa mudom tadbirkor,
Umr yo'ldoshiga sadoqatli yor,

Farzand-u yorida fikr-u xayoli
Saodat timsoli – o'zbek ayoli..

6- o'quvchi: Singilsiz, opamsiz, onaizorsiz
Go'zal qiz, go'zal yor – quvvat -madorsiz.
Sizlar bor maftunkor, so'lim diyorim,
Shoirlga ilhom bergan dildagi torim.
Qalbi pok xilqatsiz, ajib dunyoli,
Oh, o'zbek ayoli, o'zbek ayoli.

1-boshlovchi: Muhtaram onaxonlar, aziz opa-singillar. Sizlarni go'zal ayyomingiz bilan yana bir bor chin dildan muborakbod etamiz.

2-boshlovchi: Sizlar uchun bayram lahzalari yana davom etadi. Hamisha baxtingiz, iqbolingiz ziyoda bo'lsin. E'tiboringiz uchun tashakkur.

FOR AUTHOR USE ONLY

«AYOL ZIYNATI»
tok-shousini o'tkazish ssenariysi

(«Muqaddas ayol» qo'shig'ining musiqasi sadosi ostida)

1-boshlovchi: Rivoyat qilishlaricha, Qodiri mutlaq mukammal dunyo yaratishga ahd qilibdi. Tundan kunni ajratib, suv, yer, o'simlik, jonivorlarni, oxirgi kuni esa odamni yaratibdi. Ular bir-biriga shunchalik munosib ekanki, bu mukammallikka Ollohning havasi kelibdi. Keyin qarasaki, ayol yo'q, baxtga qarshi loy ham tugab qolganmish. Shunda u oydan bir chimdim jamolini, tundan qoshu ko'zini, majnuntoldan sochini, kamalakdan rang, gullardan ifor, tongdan musaffolik, xullas, hammasidan oz-ozdan qo'shib ayolni yaratibdi.

2-boshlovchi: Assalomu alaykum, shundayin ilohiy inoyatning sohibalari bo'lmish muhtarama onalar, munis ayollar, lobar opa-singillar hamda hurmatli mehmonlar! Ayol – bu olamning tengsiz mo'jizasi, deyilar. Darhaqiqat, ayol madhiga doston tugamas. Ammo olamning ziynati bo'lmish ayolning ziynati nimada?! Keling, bugungi davra suhbatimizda ana shu savolga imkon darajasida javob izlab ko'rsak.

1-boshlovchi: Insonni kamolotga yetkazish uchun, avvalo, ayolni tarbiyalamoq zarur, deydi faylasuflarimiz. Azaldan kamolot bobida tengsiz bo'lib kelgan Sharqning, jumladan, o'zbek ayollarining ta'rifiga til ojiz. Milliy qadriyatlarimiz sirasida aziz momoyu onaxonlarimizdan me'ros bo'lib kelayotgan o'zbekona hayo, latofat, nafosat, umuman, o'zbekoyimlik an'analari bugungi tengdosh qizlarimiz hayoti va yurish-turishida qay darajada namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy o'zbek qizini tarbiyalashda qaysi jihatlarga e'tiborni qaratishimiz haqida fikr almashish uchun Sizlar bilan diydorlashdik.

2-boshlovchi: Keling, tadbirimizni ochib berish uchun davraga xotin-qizlar qo'mitasi raisi _____ ni taklif etsak.

1-boshlovchi: (tadbir ochilgandan so'ng) Uchrashuvimizga yanada fayz kiritish maqsadida hamda qizlarimizga qimmatli maslahatlarini berish uchun mahallamizdagi el-yurt hurmatiga sazovor bo'lgan onaxonimiz _____ ni davramizga taklif etganmiz, marhamat.

1. Odamga libos

1-boshlovchi: Sizga bir savol bilan murojaat qilsam...

2-boshlovchi: Marhamat.

1-boshlovchi: Bir qiz bilan tanishib, dugona bo'lmoqchisiz. Birinchi navbatda, uning qaysi jihatlariga e'tiboringizni qaratasiz?

2-boshlovchi: Dastlab, uning tashqi ko'rinishi, ya'ni kiyinish odobi va o'zini tutishiga e'tibor bersam kerak.

1-boshlovchi: Menimcha ham shunday. Ayol latofatining eng birinchi ajralmas jihati uning o'ziga xos, yarashiqli kiyina olishidadir. Bu esa bevosita madaniyatlikning muhim belgilaridan hisoblanadi. Kimning qanday kiyinganligiga qarab, uning did-farosati, ma'naviy darajasini, hattoki, kasbini aniqlab olish mumkin. Psixologlarning ta'kidlashicha, kiyim kishining nafaqat tashqi qiyofasini, balki ichki ma'naviy dunyosini, qaysi millatning farzandi, qaysi zamonning qanday saviyali odami ekanligini ham ko'rsatib turadi.

1-boshlovchi: Shundan kelib chiqqan holda, har bir mamlakatning, millatning o'ziga xos milliy liboslar kolleksiyasi shakllanib kelmoqda.

Savol:

- Zamonaviy o'zbek qizi qanday kiyinishi kerak deb o'ylaysiz?
- Qizlarimizning bugungi kiyinish madaniyati milliy qadriyatlarimizga mos keladimi?

2-boshlovchi: Bu borada davramiz mehmonlarining fikrini bilish foydadan xoli bo'lmaydi. So'z navbatini _____ ga bersak.

(Liboslar namoyishi)

2. Muomala madaniyati

1-boshlovchi: Bejizga o'zbek qizlarini husn-u latofatda oyga qiyoslashmaydi. Bunday liboslarni kiygan har qanday qiz malikaga aylanishi turgan gap.

2-boshlovchi: Ayolga zeb beradigan yana bir xislat uning xushmuomalasidir. Muomalaning asosiy vositasi so'z, u ayolning tilida gavharga aylanadi. Ayolning shikasta ovozi bilan aytilgan har bir so'z misoli kuydir.

1-boshlovchi: Ammo so'z aytganda ham topib so'zlash, har kimning ko'ngliga qarab muomalada bo'lish kishidan alohida ziyraklik talab etadi.

(Sahna ko'rinishi)

Savol:

- Yosh qizlarimizning muomala madaniyati haqida nimalar deya olasiz?
- Muomala madaniyatini shakllantirishda nimalarga e'tibor qaratish lozim?

2-boshlovchi: Bu haqda davramiz mehmonlarining fikrlarini tinglasak. So'ng ishtirokchilar fikri so'raladi.

Raqs ijro etiladi.

3. Sihat-salomatlik

1-boshlovchi: Sizdan dunyoda kimni ko'proq yaxshi ko'rasiz, deb so'rashsa...

2-boshlovchi: Shubhasiz, onamni yaxshi ko'raman, deb aytaman.

1-boshlovchi: Bir donishmanddan so'rashibdi: «Dunyoda eng go'zal ayol kim?». Donishmand:

«Onalik saodatiga erishgan ayol dunyodagi eng go'zal ayoldir», deb javob bergan ekan. Ayolning ulug'ligi uning onaligidadir. Vatanning yorug' kelajagiga munosib avlodni voyaga etkazishlari uchun, avvalo, ayollarimiz sog'lom bo'lmoqlari kerak. Jamiyat ma'nan va jisman sog'lom farzandlari bilan qudratlidir. Ayollarni asrasak, demak, farzandlarimizni ham, ozod davlatimiz kelajagini ham asragan bo'lamiz.

2-boshlovchi: Oilada qiz bola dunyoga keldi. Uning kelajakda ona bo'lib jamiyatga sog'lom avlod yetishtirib berishida unga chaqaloqligidan alohida parvarish, e'tibor zarur bo'ladi. Shu o'rinda qizlarimiz va ayollarimizning tibbiy madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Savol:

- Ayollarda tibbiy bilimni shakllantirish uchun qanday tadbirlarni amalga oshirish kerak deb o'ylaysiz?
- Ayol sihat-salomatligining oila va jamiyatga ta'siri qanday?
- Qizlarimizning sog'lom bo'lishlari uchun nimalarga e'tibor berish zarur?

1-boshlovchi: Ushbu masala yuzasidan mutaxassislar nima deyisharkin?

Davrarga taklif etilgan tibbiy mutaxassislarga so'z beriladi va boshqalar fikri ham tinglanadi.

(Musiqiy tanaffus)

4. Hunari borning baxti bor

2-boshlovchi: Hunarli xor bo'lmas, deydi donno xalqimiz. Qadimdan bizning madaniy me'rosimiz hunarmandchilik bilan bog'liq. Avloddan-avlodga o'tib kelayotgan zargarlik, do'ppido'zlik, kashtachilik, kosibchilik kabi o'nlab hunarlarimiz bor. Xalqimizda «Bir yigitga qirq hunar ham oz» degan naql bejiz aytilmagan, ammo qizlarimiz ham hunarmandchilikda yigitlardan qolishmaydi. Ayollarimiz qaysi hunar boshini tutishmasin, shu sohaning gullab-yashnayotganining guvohi bo'layapmiz. Kishining muayyan kasb-hunarga mohir bo'lib kamol topishi uchun birinchi navbatda, kerakli shart-sharoitlarni yaratib berish juda muhimdir.

1-boshlovchi: Hunar va tadbirkorlik bir-biriga bog'liq tushunchalar. Har qanday hunar borki, tadbirkorlikni talab etadi. Tadbirkorlik avvalo oiladan boshlanadi.

Savol:

- Qizlarga hunarni kim o'rgatishi kerak? Hunar maktabi avvalo qayerdan boshlanadi?

Mehmonlar va ishtirokchilar fikrlari tinglanadi.

(Musiqiy tanaffus)

5. Ayollarning jamiyatdagi o'rni

2-boshlovchi: Qadimdan milliy an'analarimiz sirasida oilada ayollarimizga alohida e'tibor bilan qaralgan. Shuning uchun jamiyat hamda davlatchiligimiz tarixida chuqur iz qoldirgan qator nomlar bor. Bu esa o'z navbatida ayolning ijtimoiy jabhadagi tutgan o'rnini belgilaydi.

1-boshlovchi: Ayollarning ijtimoiy hayotdagi maqomini oshirishga qaratilgan barcha imkoniyat va sa'y-harakatlarni birlashtirish, ularning turmush sharoitini yaxshilash, jamiyatning yangilanishida ayollar ishtirokini kuchaytirish uchun sharoit yaratish davlatimiz siyosatining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ammo ayol salohiyatidan kelib chiqqan holda o'zi uchun imkoniyatlar eshigini ochmog'i darkor.

Savol:

- Ayol o'z imkoniyatlarini qanday yarata olishi mumkin?
- Jamiyatning ilg'or ayoli qanday bo'lishi kerak?

Davradagi mehmonlar va ishtirokchilar fikri tinglanadi.

2-boshlovchi: O'zlarining qimmatli vaqtlarini ayamadan muloqotimizga tashrif buyurganlari uchun barcha mehmonlarga, shu bilan birgalikda, barcha ishtirokchilarimizga ham o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Doimo har bir xonadonda ro'zg'orimiz sarishtasi, xonadonimiz farishtasi - oqila ayollarimiz bor bo'lsinlar va sog' bo'lsinlar. E'tiboringiz uchun rahmat. Omonlikda uchrashaylik.

«Assalom, Navro'zi olam!»

Bayram ssenariysi

Bayram o'tkaziladigan joyda karnay, surnay ovozlari yangramoqda. «Assalom Navro'zi olam!», «Har kunning qadr bo'lubon, har kunning bo'lsin Navro'z!», «Ezgulik timsoli, xush kelding, Navro'z!», «Chun keldi bahor oyi, yuz ochdi bu dam Navro'z», «Navro'z bayramingiz muborak!» kabi shiorlar osig'liq

Jarchi chaqiradi.

Odamlaru odamlar,

Bog'da bitgan bodomlar.

Eshitmadim demanglar,

Eshitganlar jilmanglar.

Navro'z sayliga marhabo. Ehe-he-e-ey...

«Bahor valsi» yangraydi.

Boshlovchilar chiqib keladilar.

1-boshlovchi: Salom, bahorim, nuri jahonim,
Salom, ellarni yashnatgan ohim,
Salom olib keldim qushlar elidan
Bahorning sayroqi shodon tilidan.

2-boshlovchi: Bahor keldi o'ynoqi yellar
Tog' sayliga yetaklar yana.
Navro'z bilan saxovat kelar
Zamin bo'ylab yangrar tantana.

1-boshlovchi: Assalom, fasli bahor, assalom ey ahli davra,
Xushu xursandlik bugun, yangraydi shodiyona.
Marhabo ey azizlar, xush kelibsiz davramizga
Bahor va shodlik ayyomi
– Yangi kun muborak sizga.

2-boshlovchi: Assalomu aleykum aziz va qadrlı ustozlar, muhtaram mehmonlar!
Davramizning aziz ishtirokchilari! Yangilanish va poklanish bayrami – Navro'zi olamga bag'ishlangan shodiyonamizga xush kelibsiz, aziz do'stlar!

1-boshlovchi: Mana, bugun diyorimizda o'zgacha bir bayram, bahor tarovati bilan yashargan yurtimiz go'shalarida o'zgacha shodiyona. Buning sababi shundaki, ona zaminimiz yam-yashil libosga burkanib, o'zining betakror ko'rk-u jamolini namoyon qilayotgan ushbu kunlarda biz orziqib kutgan Navro'zi olam yurtimizga kirib kelmoqda.

2-boshlovchi: Ana shu uyg'onish va yasharish, go'zallik va nafasat, muruvvat va saxovat ramzi – Navro'zi olam bilan barchangizni chin yurakdan samimiy muborakbod etamiz. Sizlarga mustahkam sog'llik, oilaviy tinchlik-xotirjamlik, xonadoningizga fayz-u baraka, kelgusi ishlaringizda omadlar yor bo'lishini tilaymiz.

1-boshlovchi: Bu tong egnida atlasdan ko'ylak,
Shafaqqa o'ralgan qizlarday gulgun.

Ilk bora ko'z ochib chiqqan boychechak,
Sanamlar qo'liga intizor bu kun.

2-boshlovchi: Bu kun go'zallikning qutlug' ayyomi
Qizlarning ko'klamga mosligidir bu.
Yurakda limmo-lim muhabbat jomi
Bahor kelganining rostligidir bu.

Bahoroy kirib keladi.

1-boshlovchi: Xush kelibsan, bahorim,
Bu diyorga marhabo!
Shuhrati olamga ketgan
Gul diyorga marhabo!

Bahoroy:

Assalomu aleykum meni intiq bo'lib kutgan azizlarim, mehribonlarim!
Barchangizga qorli tog'lardan, qir-adirlardan, keng dalalar-u chaman bog'lardan salom
keltirdim. Sizlarni shodlik va mehnat bayrami, nafosat va go'zallik ayyomi – Navro'zi
ayyom bilan chin qalbdan tabriklayman va huzuringizga Navro'zoyni chorlayman.

1-boshlovchi: Quyosh tegrasida aylanib falak,
Tabiat bezanib mishli kelinchak.
Bugun yuz ochibdi turfa xil chechak
Assalom, Yangi kun, assalom Navro'z!

2-boshlovchi:
Yana tenglashibdi kecha va kunduz
Ko'kda nur taratar yarqirab yulduz.
Lablarda tabassum, aytib shirin so'z
Assalom, Yangi kun, assalom Navro'z!

1-boshlovchi:
Assalom, ey Navro'z, yilimiz boshi,
Kunlar va tunlarning tarozi-toshi.
Xalqimning tabarruk sumalak oshi,
Quchog'ing gul bilan xush kelding, Navro'z!

2-boshlovchi:
O'riklar gullari bolga aylanar,
Qorong'ulik chekinib, nurga aylanar,
Yurtimning tuprog'i durga aylanar,
Bosgan izlaringda gul undi, Navro'z!

1-boshlovchi:

Momolar duosi bo'lsin ijobat,
Nogoh yiqilmasin yuksak adolat,
Do'stga do'st qilmasin hech ham xiyonat,
Yo'qolsin g'am-alam, kel endi, Navro'z!

2-boshlovchi:

Ona –O'zbekiston, shoirlaring ko'p,
Ularning safida borman, balki yo'q,
Kimlardir qalbingga otgan edi o'q,
Avjida kuy-qo'shiq shod endi Navro'z!

1-boshlovchi:

Olam ham o'zgacha, go'zal tus oldi,
Bu kunga yetganlar ko'ngli quvondi,
Boqiyning qalamin tongda uyg'otdi,
Yo'llaring oq bo'lsin, xush kelding, Navro'z!

«Kel, Navro'zim» qo'shig'i ijro etiladi. Sahnaga Navro'zoy o'ynab-quvnab kirib keladi.

Navro'zoy: Salom, mening qadrdonlarim! Ollohga shukronalar bo'lsin siz-la diydor nasib etganiga. Mana, 4 ming yil bo'layaptiki, sizlar bilan birgaman. Yovuz niyatlilar meni yo'qotmoqchi, yo'q qilmoqchi bo'ldilar. Ammo ezgulik doimo g'alaba qiladi. Mustaqillik sharofati bilan men yana qad rostladim va bugun huzuringizda turib, ezgulik va poklanish bayrami bilan sizni qutlash baxtidan mamnunman.

Bahoroy:

Dimoqqa yalpizlar nafasi urar,
Yurakda muattar chechaklar kular.
Bir suluv kelinchak salomga kelar.
Qadaming qutlug' bo'lsin, aziz mehmonim,
Navro'zing muborak, O'zbekistonim!

1-boshlovchi:

Yurtim, gullayotgan dalalaringda
Sumalakning xushta'm bo'yolar kezar.
Go'daklarga aytgan allalaringda
Momolarning qadim kuylari kezar.
Ertadan umidvor, boshi osmonim,
Boshing omon bo'lsin, O'zbekistonim!

2-boshlovchi:

Turnalar yurtiga qaytgani kabi
Bag'ringga qaytmoqda alyor baytlaring.
Moziydan xayolchan ko'rinish berar,

Ming shukur, tabarruk, ulug' zotlaring.
Buyuk daholarni bergan bo'stonim
Yangi yiling qutlug', O'zbekistonim!

Navro'zoy:
Istiqlol tongida dillar chulg'ondi,
Yuraklar to'lg'onib, dillar uyg'ondi.
Navro'z navolari jonni yayratib,
Ona yurt og'ushi gulga burkandi.
Hurlik Navro'zida aytingiz alyor,
Alyorlarga jo'r bo'lsin soz ila ash'or.

«Sen bahorni sog'inmadingmu?» qo'shig'i ijro etiladi

1-boshlovchi: Milliy qadriyatlarimiz va an'alarimiz madaniyatimizning eng yuksak namunalari hisoblanadi. Ana shunday milliy qadriyatlarimizni o'zida aks ettiruvchi «Kelinsalom» marosimini e'tiboringizga havola etamiz, Marhamat.

«Kelinsalom» sahna ko'rinishi.

1-boshlovchi:
Navro'zginam, to'ylaringdan o'rgilayin,
Yalpizginam, bo'ylaringdan o'rgilayin,
To'rt mucha sog', ko'ngillar to, kayfiyat chog',
Yaxshi niyat, o'ylaringdan o'rgilayin.

2-boshlovchi:
Doshqozonda, sumalakjon, qaynayvergin,
Gul bahorning qo'shiqlarin kuylayvergin,
Men ham senga jo'r bo'layin to tonggacha,
Navro'zimiz baxtlaridan so'ylayvergin.

1-boshlovchi: Navro'z ayyomi - xayr-u sahovat, ezgulik va tanisihatlik bayramidir. Qadimiy odat va udumlarimiz bo'yicha Navro'zda turli tansiq taomlar pishirilgan. Qani, ko'raylik-chi, davramizga tashrif buyurgan oshpazlar Navro'z ayyomida qanday taomlar pishirishni maslahat beradilar. Ularni sahnaga taklif qilamiz, Marhamat.

Davruga kirib kelgan oshpaz timsolidagi o'quvchilar sumalak, halim, ko'ksomsa va turli dorivor o'simlik hamda ko'katlarning foydali xususiyatlari haqida so'zlaydilar.

2-boshlovchi:
Xalq laparlari – yigit va qizlar ijrosida.

1-boshlovchi: Dunyoda chegara bilmaydigan, millat, til, din tanlamaydigan sehrli va orombaxsh bir qo'shiq bor. Bu – ona allasidir.

Olamga taralar bir ma'sum qo'shiq.

Maysalar talpinar ushbu qo'shiqqa.
Bu qo'shiq yurakka atalgan tortiq.
Ona allasi bu kuylanmish ko'kdan.

Marhamat, alla haqida tayyorlangan sahna ko'rinishini e'tiboringizga havola etamiz.

1-boshlovchi:

Navro'zim - dildagi armonim mening,
Olis yo'ldan kelgan karvonim mening,
Sen bois yurt obod, ellar omondir,
Ming yillik dardlarga darmonim mening.

2-boshlovchi:

Quyosh ko'k sahnida go'yo bir malak,
Tollar kokilida o'ynar jamalak.
Shukronalar aytib madhingga xalqim
Qaynoq qozonlardan suzgay sumalak

1-boshlovchi:

Sayotu sabolaring muborak bo'lsin,
Xushbo'y havolaring muborak bo'lsin,
Ey, Navro'z atalgan ulug' ayyomim,
Nazm-u navolaring muborak bo'lsin!

2-boshlovchi: Milliy xalq o'yinlaridan namoyish etish uchun pahlavon yigitlarni sahnemizga taklif etamiz.

1-boshlovchi: Milliy xalq qo'shiqlari va raqslaridan namunalar tinglab, tomosha qiling, marhamat.

Xorazm «Lazgi»si .

1-boshlovchi: Tabrik uchun so'z _____ ga

2-boshlovchi: Azizlar! Barchangizni yana bir bora nafosat va go'zallik ayyomi bilan chin dildan samimiy qutlaymiz. Yangi yil barchamizga olam-olam quvonch va shodlik, yurtimizga to'kinlik va farovonlik olib kelsin. Sog'salomatlikda uchrashishni Olloh nasib aylasi

NAVRO'Z – YANGILANISH VA POKLANISH BAYRAMI!

(Bayram ssenariysi)

Bayram o'tkaziladigan joyda karnay, surnay ovozlari yangramoqda.
«Assalom Navro'zi olam!», «Har kunning qadr o'lubon, har kunning o'lsin Navro'z!»,
«Ezgulik timsoli, xush kelding, Navro'z!», «Chun keldi bahor oyi, yuz ochdi bu dam
Navro'z», «Navro'z bayramingiz muborak!» kabi shiorlar osiliq

Jarchi chaqirig'i:

Odamlar-u odamlar,

Bog'da bitgan bodomlar.

Eshitmadim demanglar,

Eshitganlar jilmanglar.

Navro'z sayliga marhabo. Ehe-he-e-ey...

«Bahor valsi» yangraydi.

Boshlovchilar chiqib keladilar.

1-boshlovchi: Salom, bahorim, nuri jahonim,
Salom, ellarni yashnatgan ohim,
Salom olib keldim qushlar elidan
Bahorning sayroqi shodon tilidan.

2-boshlovchi: Bahor keldi o'ynoqi ellar
Tog' sayliga yetaklar yana.
Navro'z bilan saxovat kelar
Zamin bo'ylab yangrar tantana.

1-boshlovchi: Assalom, fasli bahor, assalom ey ahli davra,
Xushu xursandlik bugun, yangraydi shodiyona.
Marhabo ey azizlar, xush kelibsiz davramizga
Bahor va shodlik ayyomi
– Yangi kun muborak sizga.

2-boshlovchi: Assalomu aleykum aziz va qadrli ustozlar, muhtaram mehmonlar!
Davramizning aziz ishtirokchilari! Yangilanish va poklanish bayrami – Navro'zi olamga
baishlangan shodiyonamizga xush kelibsiz, aziz do'stlar!

1-boshlovchi: Mana, bugun diyorimizda o'zgacha bir bayram, bahor tarovati bilan
yashargan yurtimiz go'shalarida o'zgacha shodiyona. Buning sababi shundaki, ona
zaminimiz yam-yashil libosga burkanib, o'zining betakror ko'rk-u jamolini namoyon
qilayotgan ushbu kunlarda biz orziqib kutgan Navro'zi olam yurtimizga kirib kelmoqda.

2-boshlovchi: Ana shu uyglonish va yasharish, go'zallik va nafosat, muruvvat va
saxovat ramzi – Navro'zi olam bilan barchangizni chin yurakdan samimiy muborakbod

etamiz. Sizlarga mustahkam sogʻlik, oilaviy tinchlik-xotirjamlik, xonadoningizga fayz-u baraka, kelgusi ishlarigizda omadlar yor boʻlishini tilaymiz.

1-boshlovchi: Bu tong egnida atlasdan koʻylak,
Shafaqqa oʻralgan qizlarday gulgun.
Ilk bora koʻz ochib chiqqan boychechak,
Sanamlar qoʻliga intizor bu kun.

2-boshlovchi: Bu kun goʻzallikning qutlugʻ ayyomi
Qizlarning koʻklamga mosligidir bu.
Yurakda limmo-lim muhabbat jomi
Bahor kelganining rostligidir bu.

Bahoroy kirib keladi.

1-boshlovchi: Xush kelibsan, bahorim,
Bu diyorga marhabo!
Shuhrati olamga ketgan
Gul diyorga marhabo!

Bahoroy: Assalomu aleykum meni intiq boʻlib kutgan azizlarim, mehribonlarim!
Barchangizga qorli togʻlardan, qir-adirlardan, keng dalalar-u chaman bogʻlardan
salom keltirdim. Sizlarni shodlik va mehnat bayrami, nafosat va goʻzallik ayyomi –
Navroʻzi ayyom bilan chin qalbdan tabriklayman va huzuringizga Navroʻzoyni
chorlayman.

1-boshlovchi: Quyosh tegrasida aylanib falak,
Tabiat bezanib misli kelinchak.
Bugun yuz ochibdi turfa xil chechak
Assalom, Yangi kun, assalom Navroʻz!

2-boshlovchi: Yana tenglashibdi kecha va kunduz
Koʻkda nur taratar yarqirab yulduz.
Lablarda tabassum, aytib shirin soʻz
Assalom, Yangi kun, assalom Navroʻz!

1-boshlovchi:
Assalom, ey Navroʻz, yilimiz boshi,
Kunlar va tunlarning tarozi-toshi.
Xalqimning tabarruk sumalak oshi,
Quchogʻing gul bilan xush kelding , Navroʻz!

2-boshlovchi:
Oʻriklar gullari bolga aylanar,
Qorongʻulik chekinib, nurga aylanar,

Yurtimning tuprog‘i durga aylanar,
Bosgan izlaringda gul undi, Navro'z!

1-boshlovchi:
Momolar duosi bo'lsin ijobat,
Nogoh yiqilmasin yuksak adolat,
Do'stga do'st qilmasin hech ham xiyonat,
Yo'qolsin g'am-alam, kel endi, Navro'z!

2-boshlovchi:
Ona –O'zbekiston, shoirlaring ko'p,
Ularning safida Borman, balki yo'q,
Kimlardir qalbingga otgan edi o'q,
Avjida kuy-qo'shiq shod endi Navro'z!

1-boshlovchi:
Olam ham o'zgacha, go'zal tus oldi,
Bu kunga yetganlar ko'ngli quvondi,
Bo'qiyning qalamin tongda uyg'otdi,
Yo'llaring oq bo'lsin, xush kelding, Navro'z!

«Kel, Navro'zim» qo'shig‘i ijro etiladi. Sahnaga Navro'zoy o'ynab-quvnap kirib keladi.

Navro'zoy:Salom, mening qadrdonlarim! Ollohga shukronalar bo'lsin siz-la diydor nasib etganiga. Mana, 4 ming yil bo'layaptiki, sizlar bilan birgaman. Yovuz niyatlilar meni yo'qotmoqchi, yo'q qilmoqchi bo'ldilar. Ammo ezgulik doimo g'alaba qiladi. Mustaqillik sharofati bilan men yana qad rostladim va bugun huzuringizda turib, ezgulik va poklanish bayrami bilan sizni qutlash baxtidan mamnunman.

Bahoroy:
Dimoqqa yalpizlar nafasi urar,
Yurakda muattar chechaklar kular.
Bir suluv kelinchak salomga kelar.
Qadaming qutlug‘ bo'lsin, aziz mehmonim,
Navro'zing muborak, O'zbekistonim!

1-boshlovchi:
Yurtim, gullayotgan dalalaringda
Sumalakning xushta'm bo'yolar kezar.
Go'daklarga aytgan allalaringda
Momolarning qadim kuylari kezar.
Ertadan umidvor, boshi osmonim,
Boshing omon bo'lsin, O'zbekistonim!

2-boshlovchi:

Turnalar yurtiga qaytgani kabi
Bag‘ringga qaytmoqda alyor baytlaring.
Moziydan xayolchan ko‘rinish berar,
Ming shukur, tabarruk, ulug‘ zotlaring.
Buyuk daholarni bergan bo‘stonim
Yangi yiling qutlug‘, O‘zbekistonim!

Navro‘zoy:
Istiqlol tongida dillar cho‘lg‘ondi,
Yuraklar to‘lonib, dillar uyg‘ondi.
Navro‘z navolari jonni yayratib,
Ona yurt og‘ushi gulga burkandi.
Hurlik Navro‘zida aytingiz alyor,
Alyorlarga jo‘r bo‘lsin soz ila ash‘or.

«Sen bahorni sog‘inmadingmu?» qo‘shig‘i ijro etiladi

1-boshlovchi: Milliy qadriyatlarimiz va an‘analarimiz madaniyatimizning eng yuksak namunalari hisoblanadi. Ana shunday milliy qadriyatlarimizni o‘zida aks ettiruvchi «Kelinsalom» marosimini e‘tiboringizga havola etamiz, Marhamat.

«Kelinsalom» sahna ko‘rinishi.

1-boshlovchi:
Navro‘zginam, to‘ylaringdan o‘rgilayin,
Yalpizginam, bo‘ylaringdan o‘rgilayin,
To‘rt mucha sog‘, ko‘ngillar tog‘, kayfiyat chog‘,
Yaxshi niyat, o‘ylaringdan o‘rgilayin.

2-boshlovchi:
Doshqozonda, sumalakjon, qaynayvergin,
Gul bahorning qo‘shiqlarin kuylayvergin,
Men ham senga jo‘r bo‘layin to‘tongacha,
Navro‘zimiz baxtlaridan so‘ylayvergin.

1-boshlovchi: Navro‘z ayyomi - xayr-u saxovat, ezgulik va tanisihatlik bayramidir. Qadimiy odat va udumlarimiz bo‘yicha Navro‘zda turli tansiq taomlar pishirilgan. Qani, ko‘raylik-chi, davramizga tashrif buyurgan oshpazlar Navro‘z ayyomida qanday taomlar pishirishni maslahat beradilar. Ularni sahnaga taklif qilamiz, Marhamat.

Davrage kirib kelgan oshpaz timsolidagi o‘quvchilar sumalak, halim, ko‘ksomsa va turli dorivor o‘simlik hamda ko‘katlarning foydali xususiyatlari haqida so‘zlaydilar.

2-boshlovchi:
Xalq laparlari – yigit va qizlar ijrosida.

1-boshlovchi: Dunyoda chegara bilmaydigan, millat, til, din tanlamaydigan sehrli va orombaxsh bir qo'shiq bor. Bu – ona allasidir.

Olamga taralar bir ma'sum qo'shiq.
Maysalar talpinar ushbu qo'shiqqa.
Bu qo'shiq yurakka atalgan tortiq.
Ona allasi bu kuylanmish ko'kdan.
Marhamat, alla haqida tayyorlangan sahnako'rinishini e'tiboringizga havola etamiz.

1-boshlovchi:
Navro'zim - dildagi armonim mening,
Olis yo'ldan kelgan karvonim mening,
Sen bois yurt obod, ellar omondir,
Ming yillik dardlarga darmonim mening.

2-boshlovchi:
Quyosh ko'k sahnida go'yo bir malak,
Tollar kokilida o'ynar jamalak.
Shukronalar aytib madhingga xalqim
Qaynoq qozonlardan suzgay sumalak

1-boshlovchi:
Sayotu sabolaring muborak bo'lsin,
Xushbo'y havolaring muborak bo'lsin,
Ey, Navro'z atalgan ulug' ayyomim,
Nazm-u navolaring muborak bo'lsin!

BIR KELIB KETING, QISHLOG'IMIZGA

Boshlovchi so'zi:

1. Assalom, ey ilm- u urfon bog'ining bog'bonlari
Assalom, ey ma'rifatning sohibi davronlari.

2. Assalomu alaykum buyuk O'zbekistonimizning kelajagi ulug' yo'llarga boshlovchi, qalbi ezgulik yaratish, yashnatish ishq bilan yongan mo'tabar kasb sohiblari- aziz ustozlar, bilimga chanqoq tinglovchilar va tengdoshlar!

1. Mana bugun dillarda ajib bir tuyg'u. Bugungi dilkash suhbatimizdan asosiy maqsad milliy an'ana va qadriyatlarimizni yana bir bor eslash, «Bir kelib keting qishlog'imizga» deya tarixiy an'alarimiz, milliy o'zligimizga bo'lgan hurmat va e'tiborni yanada oshirishdir. Zero, bu biz ustozlarning eng asosiy vazifamizdir.

2. Agar insonning niyati pok bo'lsa, e'tiqodi mustahkam bo'lsa, dili va tili bir bo'lsa, barcha orzu-umidlari albatta yetgay. Adabiyot ana shu e'tiqodni, go'zal ma'naviyatni shakllantirishdagi eng mo'jizakor sanaladi.

3. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I. A. Karimov 2009- yil «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» deb e'lon qildilar. Kecha ketmon chopib biri ikki bo'lmagan dehqon istiqlol bergan baxt tufayli bugun yer olib, bola- chaqasi bilan uni gullatmoqda, el rizqini butun qilmoqda.

3. Kecha kichkina xonada tiqilib yashagan, «eskilik sarqiti» - beshik va sandiq yasagani uchun soliqchidan bolaga qolgan hunarmand ishi bugun e'zoz va qadr topmoqda.

4. Onajon vatanim o'zingsan,
Qishlog'im, sendadir bor sehr.
Nurafshon yuzingda mehr jam.
Sen uchun bitayin ming satr.

4. Qishlog'im, dilbarsan bir ajib
Sen ezgu tilaklar makoni
Yashagin, dilkashim, munisim
Kamoling tilayman har oni.

«Bir kelib keting qishlog'imizga» deya bizni o'z saltanatiga chorlayotgan Romitan, Shofirkon, G'ijduvon, Vobkent tumanlaridan so'zni eshitsak. Marhamat!

Qo'rako'ldan so'z ochsam gar
Daholar kirar tilga
Jondor, Olotning ta'rifin
Suhbat aylaylik dildan.

Qishlog'imiz – o'zligimiz tarixi mavzusida so'zni Qorako'l, Jondor, Olotliklardan tinglasak. Marhabo azizlar!

Buxorom chiroy shahrim
Bemisl makon shahrim
Kogon bilan hamnafas
Go'zallikka kon shahrim.

Endigi so'zni viloyatimiz yuragi sanalmish Buxoro shahri, Buxoro va Kogon tumani a'zolaridan tinlasak

O'zligim anglayman mehringdan
Uruflaring har biri ma'rifat
Udumlar gar tilga kirganda
Otashda yonadi har yurak.

Suhbatimiz mavzusini milliy urf-odat va qadriyatlar tomon yo'naltirsak. Zero, o'zbekligimiz, o'zbekligimizga ayni shu go'zal urf-odatlarimiz zeb beradi, millat ekanligimizni isbot aylaydi. Demak, ilk so'zni Romitan, Shofirkon, G'ijduvon, Vobkentlik ustozlardan tinglasak.

Tug'ilmoq aslida bir baxtdir
Chaqaloq dunyoning ertasi.
O'zbekim, har bitta xonadonida
Yangrasin chaqaloq ingasi.

Jondor, Olot, Qorako'llik kasbdoshlarimiz chaqaloqni bog'lash an'anasini namoyish etmoqchilar. Marhamat!

To'yingda yangrasin yor- yoring
Chimildiq baxtini kelinlar tuysin
Kuyovlar bu baxtdan sarmastdir.
O'zbekim , to'ylaring muborak bo'lsin.

O'n uch yosh muborak
Ey go'zal singilcham- sanamim.
Bo'ylari bir savr- u sanobar
Pokizam aslo ko'z tegmasin

Biz uchun Buxoro va Kogonlik kasbdoshlar muchal urf- odatlarini namoyish etmoqchilar. Marhamat!

Suhbatimizning oxirgi mavzusi «Qishlog'im ertasi» deb nomlanadi. Bunda barcha guruh a'zolari tasavvurlaridagi qishloqlarni ta'riflamoq bilan birga qalb tug'yonlarining she'r, raqs,yoki qo'shiqdagi aksini ham namoyish aylashlari mumkin. So'zni Romitan, Shofirkon, G'ijduvon, Vobkentliklardan tinglangiz.(she'r, qo'shiq, o'yin).

Davra ahli muntazirdir

Jondorliklar marhabo
Qorako'l- u Olotlarning
Ertasi bo'lar yakto
Marhamat, so'z sizlarga

Buxoroning ertasidan
So'ylar bugun Buxoro
Kogon unga jo'r bo'ladi
Har jonga berib oro
Marhamat so'z navbati sizga!

I-shart

a) Qorako'l, Olot, Jondor.

She'r:

O'zbekning- Qoroko'lin
Dunyocha g'ururi bor
Tunlari ham yulduzin
Oftobday mo'l nuri bor.
Do'ppidek doim uning
Hilol turar boshida
Bamisli Alpomishdek
Yurtim yigit yoshida.

She'r:

Qorako'l qizlarining
Yuzi yoxud qunduzdan
Kuydirar nigohlarini
Ikki ko'zi yulduzlardan.
Qorako'l yigitlarin
Barii polvon, sher quchog'.
Bunda tog', yoq rost, lekin
Har o'g'li erur bir tog'.

She'r:

Guli so'lmas bu yutrning
Doim ko'klamday qishi
Kuylar kun deb tunini
Unda Boboqul baxshi.
Mahtumquli nafasi
Bu yerda yelday yelar
Jayxunning sho'x sadosi
Nur ustiga nur tilar.

She'r:

Tavob et Qorako'lni
Ko'kday g'ururi, ko'rki.
Bu yurt o'zbek nozimi
Tilak jo'raning yurti.
Bag'rinda yashasam ham,
Sog'inch- O'zbekistonim
Mehrnga hech to'ymagayman
Tug'ilgan yerim- jonim.

I-shart b) Shoir a Jondor haqida qo'shiq.
Ona yurt bag'rda gullagan diyor
Hamisha qo'yingda yashnagan bahor
Sen- shon-u sharaf-u faxr-u iftixor
Ey go'zal maskanim- jonajon Jondor.
G'ulom Shomurodov she'ri.

Jondor aholisi orasidan 20 nafar fan doktorlari va 60 nafardan ko'proq fan nomzodlari yetishib chiqdilar.

Bugun Tohir Boymurodov, Aminjon Sulaymonov, Shavkat Salimov, Rahim Vohidov, Mustafo Murodov, Oltin Yoriev, Zokir Shodiev singari Jondorlik allomalarni Respublikadan tashqarida ham yaxshi bilishadi.

II-shart. Jondor tuman.
«Beshik to'yi», «Sallabandon» marosimi.

Qo'shiq
Xush omadet, xush omadet,
Mehmono xush omadet.
Tayi sabat yak kosa qaymoq
In mehmono bodomqovoq

Naqarot
Dasturxonba qand- u mayiz,
In mehmono erka, aziz
Naqarot
Dar boli bom yak bog' beda
In mehmono nuridiyda.
Naqarot

Shu qo'shiq aytilib, mehmonlar beshik ko'tarib davraga chiqishadi. Bu yoqdagilar ularni kutib olishadi. So'ng chaqaloq beshikka belanib, rasm- rusmlar o'tkaziladi. Chaqaloqqa Alla aytiladi.

Alla
Qaro- karo ko'zingdan- e

alla-yo alla
Qaraganda aylanay- e
alla- yo alla

Alla aytilgandan so'ng, kelinging sallasi bog'lanadi. So'ng yana «xush omadet» qo'shig'i bilan mehmonlar kuzatiladi.

II- shart b) shofirkon, Romitan, Vobkent.

Milliy urf- odatlar.

Biz hozir eng go'zal udumlarimizdan biri kelintushurdi. Marosimini e'tiboringizga havola etmoqchimiz. Yor- yor qo'shig'i.

Insonning eng baxtiyor va sirli lahzalaridan biri kelin yoki kuyovlik baxtiga Musharraf bo'lgan ondir. «Kelintushurdi» tuydan keyingi marosim bo'lib, unda kelin kuyov uyiga paranji-yu chachvonda keltiriladi va kuyov bilan chimildiqqa kiritiladi va chiroyli muxammaslar o'qiladi.

«Xush omadet» muxammasi.

2) Kelin nondek aziz bo'lsin uchun boshiga non, umrlari shamdek yorug' bo'lsin uchun oldinda sham bilan salomnoma o'qilib chimildiqqa kiritiladi.

Salomnoma o'qiladi.

Chimildiq ichida o'ltirgan kelin-kuyov uchun turmushlari shakardek bo'lsin deb shakarchoy undan so'ng, kelin va kuyov qarindoshlari tomonidan tuxum, shirinliklar, yong'oq, mayiz, somsalar tortiladi. Ularning har biri bir ramziy ma'noga ega. Hammadan oldin qaynonasining patnisi chimildiqqa kiradi.

Kelintushurdi marosimida shirguruch, kabob kabi taomlar dasturxonda tortiladi. Marosim oxirida kelin tomonidan yig'ilgan seplar dorga yoyib tashlanadi.

Marosim so'ngida kelin kuyov qarindoshlarga salom uchun chimildiqdan paranjisiz chiqariladi va kelin salom- kelin ko'rdi marosimlari o'tkaziladi.

Kelin salom.

Marosim oxirida chiroyli duolar o'qilib kelin tomon yangalar kelinni kuyov uyida qoldirib xayrlashadilar.

III-shart. Qishlog'im kelajagi.
Bugunidan dil quvnaydi shubhasiz
Tarovati uzgachadir begumon
Kelajakka yuz tutadi u mag'rur
Oltin qo'lli dehqon, fidoyi bog'bon.
Baland binolari ko'kni quchadi
Ilmu ziyo farzandlari qalbida
Qishlog'imning bog'laridan sharbat bor
Dalasidan gul teramiz osuda
Butun jaxon izidan u boradi

Farovonlik, baxt- iqbolga to'ladi
Mehr bog'i chamanidan gul terib
Asl millat o'zligida qoladi
Hur qishlog'im albatta yuksaladi

III- shart a) Shofirkon.

1) Har ahling bitta yulduz kavkabistonsan o'zin
To hayotdirman charog'im shulai manim senga
Yoru do'stlar jam bo'libdur yangrar qo'shiq va kuylar
Men degayman xush kelibsan do'stu mehmonim senga.

2) O'zbekiston deb atalmish jannatmakon diyorning ajoyib go'shalaridan biri Shofirkondir. «Shofirkon» so'zining kelib chiqishi vardonze qo'rg'onining paydo bo'lishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu haqda X asrda yashabo'tgan mashhur tarixchi olim Narshaxiyning «Buxoro tarixi» kitobida shunday zikr etilgan.

«Sosoniylar sulolasidan bo'lgan Kirsoning farzandlaridan bir oz otasiga achchiq qilib, bu viloyatga kelgan, uning nomi «Shpur» edi. «Pur» Eron tilida «o'g'il» demakdir. Uning nomi tumanimiz Shofurkon deb atalgan.

III- shart b)

Go'zal, dildor yurt bo'lagi Shofirkondir shubhasiz. Tarixdan so'zlaylik tinglangiz marhabo siz.

Shofirkon. Olloh nazari tushgan yurt. Azaldan allomalar, fozillar yurti. Buyuk zotlardan biri Xoja Orif Mohitobon hazrat Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniyning to'rtinchi xalifasi bo'lib, hazrat Buhouddin Naqshbandning tariqat, ma'rifat, haqiqat osmonida parvoz qilishlarida bir qanot bo'lgan. Hoja Orif Revgar qishlog'ida tavallud topib, yuz yildan ziyodroq umr ko'rgan.

«Orifnoma» nomli mo'tabar kitobini avlodlarga meros qilib qoldirgan. Hoja Orif 1259 yilda vafot etgan.

III- shart. s)

Qishlog'im, nechog'lik suluvsan bugun
Yashilga burkanib, yashnabsan shuncha
Nechog'lik to'kinssan, nechog'lik to'kin,
Meni o'rab oldi xayol- tushuncha

Mirtemir.

Shofirkon ilm- u hikmat ila alohida e'tiborga ega tumandir.

Uning bag'ridan ko'plab ilm bulog'lari ko'z ochib jahonga yuz tutmoqda. Jumladan: Sharofiddin Buxoriy, Pirmastiy, A. Donish, Rahimiy, S. Jo'ra, I. Mo'minov, J. Kamol, A. Xasan, Gulchehra Jo'raeva, Toshpo'lat Ahmad, Ozunjon Safarov, Ibrohim Haqqulov, S. Vohidov.

Yurtimaro katta karvon sh-li;
Jo'ra karvonga yetuk sarbon sh-li

Ahli donish, ahli irfon sh- li
Asrlarkim norlar chunon sh- li
Ham nurafshon, ham durafshon sh- li

Buxoro
Buxoroning o'z qo'shig'i bor,
Obidalar kuylaydi bedor.
Obidalar – ajib musiqa,
Ohanglari nafis, betakror.
Bu qo'shiqni tinglamoq uchun,
Til bilmog'ing aslo shart emas.
Bo'lsa agar imoning butung
Go'zallikni his etolsang, bas.

Buxoro tumani 1926 yil 16 dekabrda I chaqiriq O'zbekiston Markaziy Ijro Qo'mitasining V sessiyasi qarori bilan tuzildi.

Buxoro tumani viloyat markazi shaxrini shimol, g'arb va janub tomondan o'rab turibdi. Tuman shimoldan Vobkent, shimoliy-g'arbdan Romitan, G'arbdan Jondor, g'arbiy-janubdan Olot, shimol va shimoliy-sharqdan Navoiy viloyatidan Qiziltepa, sharqdan Kogon tumani bilan chegaradosh. Buxoro shaxri uchun “yuragi”da yashaydi.

Tumandan umumiy yer maydoni 1,32 ming km, aholisi 101 ming kishidan iborat.
Ey, go'zal tuman Buxoro, ish bilar dehqonlaring,
Texnikasin ishga soldi, yashnaydi maydonlaring
Mehnatu ijod tufayli yuksalibsan ofarin
Kengayib mavjud urdi, toddi paxta qaynar konlaring.

Miri arab.

Men Kobdin qishlog'ida yashayman. Qadimgi zamonlarda Zarafshon daryosining tarmoqlaridan biri hisoblangan. Zariro'd daryosi Kobdin qishloqlarining sharqiy tomonidan Buxoro shahridagi Ark va Minorai kalon orasidan oqib o'tgan. Daryo suvining loyqasi toshqin bo'lgan tuproq unumdorligini oshirgan. Aholi suv toshqinlarining saqlanish uchun tuproqdan tepalik yasashgan.

Tuproq tepalar eni 100m, balandligi 20m, uzunligi 200m atrofida bo'lgan. Suv toshqinlarining xavfning qolishi natijasida tepalik atrofida kichik qishloqlar hosil etgan. Tepalikdagi “Xo'jakoniddin qishlog'i” deyilgan. Keyinchalik Xo'ja so'zi tushib “Konidin” so'zi “Kobdin” so'ziga aylandi.

Kogon
(Shavon)
Quyosh qo'shig'idan uyg'onar shodon,
Mening ishchi shaxrim navqiron Kogon.
Uchqur poyozdlarga tilab oydin yo'l
Mehmon kutar, ko'ksi uzra qo'yib qo'l.

Baxtliman, bag'ringga yashayman shodon,
Sening farzandingman, sen otash bag'rim.

Kuylagayman seni, to bor tanda jon
Ey, aziz, onajon, munavvar Kogon.

Kogon tumani tarixi

Kogon Buxoro viloyatining sharqiy qismida joylashgan tuman sanaladi.

Kogon deb nomlanishiga sabab, qadimgi uni Koh-kon – Samon koni, ikkinchi varianti “Kondon” ma'nolarini anglatadi. Kogonda 5600 aholi yashaydi. Kogon Buxoroning sanoat, ishlab chiqarish, savdo va madaniyat markazi sifatida nom qozongan. Kogondan shoiru ulamolar, tarjimon, professorlar yetishib chiqqan.

Ming bor eshitgandan ko'ra bir bor ko'rgan afzal, degan maqolimiz bejizga aytilmagan. Shunday ekan, bir kelib keting qishlog'imizga, o'zingiz ko'rib lol qoling...

Muchal

Bu yil farzandlarimizning muchal to'yi. Barchangiz xush kelibsiz, buvijonlar, kelinglar, qizimizga sarpo qilgan edim, shuni qizimizga kiydiring. Sizlardek, badavlat, serfarzand bo'lsin.

Buxoro

Buxoro desalar olam yuziga yog'du qo'ngaydurlar,
Buxoro desalar toshda tajassumin topar tillo,
Buxoro desalar qishda yax uzra lola kelgaydur,
Buxoro quvvati islom degan hikmat emas bejiz.
Musulmon olami mashhargacha hargiz egilgaydur
Uning har zarra xokida valiylarning izi boqiy
Shu bois ham Buxoroni xudoning o'zi qo'llaydur.

Qadim – qadim zamonlardan buyon bizning Buxoroda chet mamlakatlar o'ziga mahliyo qilib kelgan.

Buxoro shahar aholisi 240 ming kishi bo'lib, Samarqand va Xiva kabi ko'hna Shaxarlardan biridir.

Buxoro xalqi azaldan hunarmandchilik bilan shug'ullanib kelgan. Jumladan: zardo'zlik, patdo'zlik, kulolchilik, misgarlik, o'ymakorlik, kandakorlik ishlari kelgan sayyoxlarni hayratda qoldirmoqda. Ayniqsa, zardo'zlarimiz tikkan narsalar butun dunyoga mashhur.

Buxoro haqida gap ketganda uning tarixiy obidalarini sanab o'tmasak bo'lmaydi. Bular: Ark, Minorai Kalon, Chashmi Ayub...

1-boshlovchi: Buxoroda bir udum bor, necha asrlar oshib, ne-ne odamlar bilan yuzlashib, yomonlardan chetlashib, yaxshilar bilan birlashib, shu kunimizga yetib kelmoqda.

2-boshlovchi: Uni 13 yoshlilar yoki muchal bayrami deb ataydilar.

Qanday yaxshi bu ko'klam

Ochilganda lolazor

13 ga qo'ydi qadam

muchal oshgan bolalar.

13 yoshlilar qo'shig'i
Shamoldayin shoshib keldi, bahorjon
Muzliklardan oshib keldi, bahorjon
Muchal to'yin muborak deb bizlarga
Qutlagani shoshib keldi, bahorjon
Bahor sizga muborak, muchal bizga muborak.

Durkungina qizchalarmiz, qizchalar
Binoyidek yigitchalar, bo'zchalar
Mustaqillik tengdoshimiz, yo'l ravon
Bahor sizga muborak, muchal bizga muborak.

Muchal yoshdagi o'quvchilarni sarposini kiyintirish sahnasi.

1-boshlovchi: Buvijon, bizning sinfimizda ham muchal yoshdagi bolalar bor. Shu bolalarni sarposini siz kiydirasiz deb niyat qilgan edik.

Buvi: Voy buviginang o'lgirib ketsin sizdan, mayli jon bolalarim. Qani bo'lmasa, qizim sen mening oldinga kel. O'g'lim sening sarpolaringni buvang kiydiradilar.

Bobo: Bismillohir-rahmonir rahim. Boshlari toshdan bo'lsin, davlati ziyoda bo'lsin. O'g'limning shu aziz boshi yana kamida 8 muchalni ko'rsin. Sallasini ham bog'laydi.
Sallasi ham ho'p yarashar o'ziga
Yigitmisan, yigit bo'lar ertaga
Ota-ona, qo'ni-qo'shni hammaga
Ta'zim aylang jonim o'g'lim, muchal muborak.

Buvi: Do'ppini kiygizadi: Bosh davlat, do'ppi unga toj hisoblanadi.
Kalapo'shi kundali yak dasta nozbo'yam shimo
Abro'yi payvasta, du chashmi mujgonam shimo
Az xudo doram umid yak didani ro'yi shimo
Sham i rangnin shavam, shinam ba suhbat shumo.

Bobo: Belbog'ni bog'laydi.
Belbog'ing belingga yarashar biram
Bel quvvati, bosh davlati shunda mujassam
Jonim o'g'lim, buvang aylansin sendan
Ko'p yashagin, 13 yoshing muborak.

Buvi: Ko'ylak kiydiradi.
Parichehru pari ro'y
In duxtari xushro'y
Kurtahosh az marvarid
13 bahora in didit.

Bobo: Chopon kiydiradi.
Boshda do'ppi, belda kamar zarizevar muborak
Anna qomad, manna qomad zardo'zi to'n muborak
Endi yashang, mingga kiring 13 bahor muborak
Mana o'g'lim, sizga bugun muchal yoshing muborak.

Buvi: Chopon kiydiradi.
Kamzo'lakash yak duhtar
Istodanash sad duxtar
Ta'zim kunad duhtari man
Shumo bined, man yak binam.

Ustlaridan shirinliklar sochadilar.

Buvi: Qaranglar sarpolar biram yarashdi. Muborak bo'lsin, nasib qilsin.

Bobo: Ilohi omin, qadam yetti balo yetmasin, yurtimiz ting osmonimiz musaffo bo'lsin, xonadonimiz serfayz bo'lsin. Duoga qo'l ochib o'tirganlarning har biri kamida o'n muchalni ko'rsinlar. Yomon so'zdan, yomon ko'zdan xudoyimning o'zi asrasin. Shu muchal yoshdagi bolajonlarim ham sog'-salomat bo'lishsin. Omin ollohu akbar.

Qo'shiq “Duo qiling onajon”
Oq niyatli bola bo'lay
Duo qiling onajon
Yurtga nafli inson bo'lay
Duo qiling onajon
Olloh menga qanot bersin
Duo qiling onajon
Samolarga parvoz qilay
Duo qiling onajon
Qo'llarimga gullar bo'lsin
Duo qiling onajon
Va quyoshga yozib qo'yay
“O'zbekiston” – Onajon.

MUHAMMAD YUSUF - EL ARDOQLAGAN SHOIR

“Zor – zor yig‘lab turar Andijon” qo‘shih‘i ijrosi tugallanishida 2 olib boruvchi chiqib keladi.

1-boshlovchi:

Bashoratchi deyishadi shoirlarni,
Shuning uchun suyishadi shoirlarni.
Suyib turib suyishadi shoirlarni,
Qizg‘aldoqlar qirlarda zor yig‘lar bu kun.

2-boshlovchi:

Bashoratlar yoh‘on chiqsa bo‘lmasmidi,
Yolglon chiqsa, tole' nima kulmasmidi.
Qaro yerning bari sizsiz to‘lmasmidi,
Boychechaklar bag‘rimda qon yig‘lar bu kun.

1-boshlovchi:

Talpingani ko‘klammidi ko‘ngilchamning,
Ko‘k kiygani ko‘klammidi ko‘ngilchamning.
Kiyay desa ko‘k kammidi ko‘ngilchamning,
Kapalaklar kaftimda zor yig‘lar bu kun.

2-boshlovchi:

Kuylamasman endi sira muhabbatni,
Kuylasam ham o‘ylamasman muhabbatni.
Esga olib har zamonda Muhammadim,
Erka kiyik xumor -xumor yig‘lar bu kun.

1-boshlovchi:

Assalomu alaykum hurmatli ustozlar, aziz o‘quvchilar. Muhammad Yusufning yorqin hayoti va ijodiga bag‘ishlangan “Muhammad Yusuf – el ardoqlagan shoir” mavzusidagi kechamizga xush kelibsiz, azizlar.

2-boshlovchi:

Bevaqt o‘lim adabiyotimiz gulshanida barq urib ochilib, yashnab turgan bir chechakni uzdi-yu, ketdi.

1-boshlovchi:

Muhammad Yusuf adabiyotimizga chaq nab kirib kelgan, qisqa vaqt ichida eng yosh “O‘zbekiston xalq shoiri” sifatida tanilgan xalq shoiri edi.

2-boshlovchi:

Uning xalqona ohanglardagi misralari o‘zbekning chin ma‘nodagi ma‘naviy mulkiga aylandi.

1-boshlovchi:

Agar Muhammad Yusuf she‘rlarini jamlab, bir nom bilan umumlashtirsa, uni “O‘zbek xalqiga qasida” deb atash mumkin bo‘lar edi. Chunki har bir she‘r misrasi

ortida O'zbek , uning dardi, quvonchi, tashvishi, mehri, orzu-umidlari, qo'ying-chi, butun hayoti gavdalanadi.

1-boshlovchi:

Dillarni titratib sovuq shum xabar
She'r ahlini etdi dilgir va ma'yus
Safar tez qaribdi nechun bu qadar
Siz qayga ketdingiz, Muhammad Yusuf.

2-boshlovchi:

Atrofni kuzatib besabr, beshavq,
Qalbida qo'zg'alib bor amri ma'ruf.
Osmonday yurakni biz uchun to'shab,
Siz qayerga ketdingiz, Muhammad Yusuf.

Muhammad Yusufga bag'ishlab yozilgan she'rlar

Muhammad Yusufning "Uzr she'ri".
Biz bahorga oshiq bo'ldik, kuzdan uzr,
Xazonlarda qolib ketgan qizdan uzr,
Har ne o'tsa bizdan o'tdi, bizda gunoh,
Tug'ilmagan qo'shiqlarim sizdan uzr.

Dili borga dardim dildan to'kkanim rost,
So'z boshida bosh egib tiz cho'kkanim rost.
Gohi jonni avaylagan-qo'riqchim rost,
Tug'ilmagan qo'shiqlarim sizdan uzr.

O'ksimasin zardob to'la ko'ngilchangiz.
Daryo-daryo ko'z yoshim bor cho'milsangiz,
Men ham mashhur bo'larmidim , tug'ilsangiz,
Tug'ilmagan qo'shiqlarim sizdan uzr.

Yuragimning tagidasiz yalpizdan past
Goh o'ylayman –shundoq qo'lim uzatsam bas!
Yuzingiz bir ko'rmay sira o'lgim kelmas.
Tug'ilmagan qo'shiqlarim sizdan uzr.

Qo'shiq.

1-boshlovchi:

Shoir O'zbekiston atalmish yurt farzandi ekanligidan cheksiz g'ururlanardi. U millatning chinakkam fidoyi farzandi edi. Mehr va samimiyat bilan "Muhammad Yusufman O'zbekistondan" deya o'zbekligidan faxrlanar, boshqalarni ham shunga undar edi.

2-boshlovchi:

Aziz vatanimiz va xalqimizning armonli ohiga aylangan Mirzo Ulubek, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi zotlarning qismati, Amir Temur, Alisher

Navoiy kabi siymolar taqdiri shoir qalamidan she'r bo'lib emas, hasrat bo'lib to'kiladi.

1-boshlovchi:

Xalqni ozod ko'rish istagida shahid ketganlarning bezovta ruhlari shoirni qiynaydi.

Shuning uchun bo'lsa kerak, qatah'onlik davrining jirkanch manzaralari va bevaqt xazon bo'lgan vatandosh ma'rifatparvar ajdodlarimiz ruhini shod etish maqsadida jo'shib yozardi.

2-boshlovchi:

O'zbekning ardoqli shoiri Muhammad Yusuf ko'plab jadid adabiyotining namoyondalariga bag'ishlab madhiyalar yozgan. Ular tilidan so'zlaydi, orzu-istaklarini namoyon qiladi.

1-boshlovchi:

Bir arsloni o'tdi O'zbekning,
Ohi ko'kka yetdi O'zbekning.
Quyosh ila, osmon, aza tut,
Muhammadi ketdi O'zbekning.

2-boshlovchi:

Baland ketdi, shoniga ketdi,
Jannatning ayvoniga ketdi.
Turk yukini yelkalashay deb,
Yassaviyning yoniga ketdi.

Sahnada tarixiy shaxslar siymosi gavdalanadi.

Amir Temur siymosi

O'shal kuni qayda eding, bolam derman,
Qulog'ingga yetmadimu nolam derman.
Meni qo'zg'ab nima topdi olam, derman,
Yurtdoshlarim so'rog'iga bering javob.

Tirik ersam tinmasdi-ku yarog'im,
O'lik jondin na istarlar, qarog'im.
Qo'lim qayda deyman, bosh chanog'im.
Farzandlarim so'rog'imga bering javob.

Bu qandayin ko'rgulik, yo rabbano,
Yovuz yotdan yer ostida yo'q panoh.
Mirzo Bobur qayda, qayda Mironshoh,
Yurtdoshlarim so'rog'imga bering javob.

Dunyo topdim deydi, dunyo yig'ladim,

Men el uchun ot ustida uxladim,
Nahot endi o'z go'rimga sig' madim,
Farzandlarim so'rog'imga bering javob.

Men ne qilay,
Men bir ojiz bandaman,
Ruhlar bilan bir jonu bir tandaman.
Uzr so'rab har kun samarqanddaman,
Ulug' naslim so'rog'imga bering javob.

Mirzo Ulug'bek so'zlaydi.
Bag'rimda bo'y yetgan bo'z bolam,
Mergan bolam, lochin ko'z bolam.
Bo'g'zimga tih' urgan o'z bolam,
Men dardimni kimga aytaman.

Sezmay qoldim..O'shanda chog'im,
Yulduzlarda ekan nigohim.
Bilmadim ne ekan gunohim,
Men dardimni kimga aytaman.

Qancha g'amga botmagan edim,
Qancha og'u yutmagan edim.
O'z bolamdan kutmagan edim!
Men dardimni kimga aytaman.

Tanim muzlab, goh tosh qotaman,
Men shoh emas , axir otaman,
Go'rimda ham o'ylab yotaman,
Men dardimni kimga aytaman.

Mirzo Bobur
Toqatim topdi oqibat,
Taxtni yov oldi oqibat,
O'z yurtim qoldi oqibat
Afg'on ketdim daryo kechib.

Omad kelar ketar ekan
Jon do'sting ham sotar ekan
Ortingdan tosh otar ekan,
Hayron ketdim daryo kechib.

Ikki ko'zim elimdadur,
Cho'g'dek so'zim tilimdadur.
Dilim yonib, dilimda bir
Armon, ketdim daryo kechib.

Boglishamol sayr endi-
Qilay chiqib ayr endi.
Boburing yo'q , xayr endi,
Anjon, ketdim daryo kechib.

Qo'shiq: "Unutmoq osonmas ularni"

1-boshlovchi:

Muhammad Yusuf she'rlari orqali nafaqat o'zini, balki qancha - qancha hofizlarni, xonandalarni elga tanitdi. Shoirning har bir so'zi she'r edi. U inson qalbining tub-tubidagi dardini topib yoza olardi. Shoirning yuragi xalq yuragi bilan hamohang urardi.

2-boshlovchi:

U kishi barcha mavzularda: muhabbat, Vatan, ona, shaharlar madhiyasi, tarixiy shaxslar, tabiatga bag'lashlab ijod qilardi. Hatto "peshonasi yo'q qizg'aldoq..." dan tortib "ko'zi to'la yosh jayron" gacha barcha-barchani sevardi.

She'rlar. Sahnaga o'quvchilar kirib keladilar.

1-o'quvchi:

Erka kiyik, maylimi bir erkalasam.
Majnun bo'lib sahrolarga yetaklasam
Bu dunyoda birday g'arib men ham, sen ham.
Erka kiyik, maylimi bir erkalasam.

Shamol emas , izing quvib yurdi kamon,
Sayyod mening kulbamni ham qildi vayron,
Sening joning, mening jonim- omonat jon
Erka kiyik, maylimi bir erkalasam.

2-o'quvchi:

Gulim, mehr ko'zda degani yolg'on
Mening dilimda hech o'chmas yolqinsiz,
Qancha korishmasak shuncha qadrdon,
Qancha olis bo'lsak shuncha yaqinsiz.

Siz shirin dardimsiz, shirin azobim.
Siz mening ko'klardan topgan oftobim
Yerlarda yo'qotgan ko'zmunchog'imsiz.
Siz o'sha ko'zimning kiftida yurgan
Siz o'sha ko'nglimga ko'nglini qurgan

To'kilay deb tilim uchida turgan,
She'rimsiz, bir umr bitmas ohimsiz.

3-o'quvchi:

Belbog'
Pahlavon yigitcha polvon yigitcha,
Dimoi osmonni olg'on yigitcha.
O'zbek ekaningiz yolg'on, yigitcha,
Belbog'ingiz qani belingizdagi?

Uzr, og'ir olmang achchiq so'zimni,
Qoq yuragingizga sanchiq so'zimni.
Nega yashnatmaydi boqsam ko'zimni,
Belbog'ingiz qani belingizdagi?

Asli-ku siz tinim bilmas dehqonsiz,
Ter to'kib, hech minnat qilmas dehqonsiz.
Dunyoni gullatib qo'ygan xoqonsiz,
Belbog'ingiz qani belingizdagi?

Tovoningiz o'psa arzir bu tuproq,
Qancha o'psa shuncha qarzdor bu tuproq.
Ammo g'urur kerak insonga ko'proq,
Belbog'ingiz qani belingizdagi?

Ulkan paxtazordir yurtning to'rt yog'i,
Yerni oqqa o'rab bo'ldingiz chog'i.
O'sha paxtangizdan tikilgan shohi,
Belbog'ingiz qani belingizdagi?

Dehqoni, cho'poni, boboni bari,
Turkiyning to'qson olti qabilalari.
Ey, Mirzo Boburning nabiralari,
Belbog'ingiz qani belingizdagi?

Sahnaga Abdulla Qodiriy qahramonlari chiqishadi.

Zaynab:
Tengim boshqa, dedi yor,
Topdim desam tengimni.
Marglilonlik bir dildor
Tortib oldi begimni.
Kulgi ketmay ko'zimdan
Yog'ar bo'ldi ko'z yoshim
Ko'z-ko'z qilib baxtini

Yoqar bo'ldi kundoshim.
Nima bo'ldi, bek yigit,
Bekangizga qarash yo'q?
Kumushdan ming o'rgilib,
Zaynabdan hol so'rash yo'q.
Taqdir derdim, shum taqdir,
Ko'nglim ko'nsa kuymasdim.
Begim, Sizni men axir,
Kumushdan kam suymasdim.
Qolsam dardim bir dunyo,
Ketsam – bir uy ko'chim bor,
Kumushoyini keltirgan
Aravada o'chim bor!

*** **

Sen Shirin-u men ham Farhod emasman,
Sen achchig'-u men ham novvot emasman.
Zaynab, Zaynab, menga aytma zoringni
Sen dilxun-u men ham dilshod emasman.
Boshga neki tushsa ko'pdan atamish,
Biz bir qafas aro giryon bir juft qush.
Bir go'shada sen xomushsan, men xomush,
Sen vayron-u men ham obod emasman.

Qo'shiq: “Marg‘ilonda Kumushni ko‘rdim”

1-boshlovchi:

Vatanparvarlik g‘oyalari Muhammad Yusuf she'riyatining o'zagini, tub mohiyatini tashkil etadi.

2-boshlovchi:

Vatanni har kim o'zicha suyadi, o'zicha ardoqlaydi. Muhammad Yusuf O'zbekistonni alohida bir mehr bilan alqaydi.

1-boshlovchi:

Xalq uchun, Vatan uchun, Mustaqillik uchun yonib yozardi. Uning “O'zbekiston” she'rini bir eslang-a. Qanday go'zal, jozibali, kuchli qo'shiq bo'ldi. Hatto yoshlar madhiyaga aylanib ketdi. Shunday she'rni bitgan shoir o'lishi mumkin-mi? Yo'q also! U hamisha tirik. U biz bilan.

1-boshlovchi:

Vatan haqida juda ko'p yozilgan. Biroq yozmoq bilan yozmoqning farqi bor. Muhammad Yusuf bir she'rida “Yurtim seni iddaolar qilmay sevaman” deb aytganida qanchalar haq edi. Darhaqiqat, u o'z elini, xalqi, vatanini chin farzandday, beg‘araz, sitqidildan yaxshi ko'rar edi. Shu mehrining natijasi o'laroq, uning she'riyati ham xuddi shundoq beminnat va beg‘araz she'riyat sifatida maydonga keldi.

She'rlar:

- “Vatan”
- “Vatan madhi”
- “Ulug‘imsan, Vatanim”

Barcha birgalikda “Yoshlar madhiyasi”ni baralla ijro etishadi.

Qushday uchib quchog‘ingda dunyo kezdim,
Kechib-kechib topganlarim sog‘inch bo‘ldi.
Qancha oils ketmay shuncha qadring sezdim,
Qayda yursam yod-u mehring ovunch bo‘ldi.

Aylanayin qora qosh-u ko‘zingdan-a,
O‘zingdan qo‘ymasin xalqim, o‘zingdan-a! ...
Erk vodiysi – zahmatlarga siylovdir bu,
Toy qoqilib ot bo‘lguvchi yaylovdir bu.

Ranj chekmasang nurli – nurli tonglar qayda,
Sinovdir bu, balki buyuk sinovdir bu,
Bosh ketsa ham qayta so‘zingdan – a,
O‘zingdan qo‘ymasin xalqim, o‘zingdan-a! ...

Boldan shirin tatir qora bug‘doying ham,
O‘zingdan bo‘lsa gar shoh-u gadoying ham.
Bir tan-u jon, bir-biringdan rozi yursang,
Xudoyim ham sendan rozi, Xudoyim ham.
Gohi ipak, gohi yaktak bo‘zingdan-a,
O‘zingdan qo‘ymasin xalqim, o‘zingdan-a! ...

Er boshiga ish tushsa o‘t kechguvchidir,
Chidaymiz-da, bu zahmatlar o‘tkinchidir.
Hurliging haq qolgan bari o‘taversin,
Bu dunyoda eng yorug‘ baxt-el tinchidir! ...

Ayirmasin beminnat non tuzingdan-a,

O‘zingdan qo‘ymasin xalqim, o‘zingdan-a! ...Hatto yoshlar madhiyaga aylanib ketdi.

Shunday she‘rni bitgan shoir o‘lishi mumkin-mi? Yo‘q also! U hamisha tirik. U biz bilan.

1-boshlovchi:

Vatan haqida juda ko‘p yozilgan. Biroq yozmoq bilan yozmoqning farqi bor. Muhammad Yusuf bir she‘rida “Yurtim seni iddaolar qilmay sevaman” deb aytganida qanchalar haq edi. Darhaqiqat, u o‘z elini, xalqi, vatanini chin farzandday, beg‘araz, sitqidildan yaxshi ko‘rar edi. Shu mehrining natijasi o‘laroq,

uning she'riyati ham xuddi shundoq beminnat va beg'araz she'riyat sifatida maydonga keldi.

She'rlar:

- “Vatan”
- “Vatan madhi”
- “Ulug'imsan, Vatanim”

Barcha birgalikda “Yoshlar madhiyasi”ni baralla ijro etishadi.

Qushday uchib quchog'ingda dunyo kezdim,
Kechib-kechib topganlarim sog'inch bo'ldi.
Qancha oils ketmay shuncha qadring sezdim,
Qayda yursam yod-u mehring ovunch bo'ldi.

Aylanayin qora qosh-u ko'zingdan-a,
O'zingdan qo'ymasin xalqim, o'zingdan-a! ...
Erk vodiysi – zahmatlarga siylovdir bu,
Toy qoqilib ot bo'lguvchi yaylovdir bu.

Ranj chekmasang nurli – nurli tonglar qayda,
Sinovdir bu, balki buyuk sinovdir bu,
Bosh ketsa ham qayta so'zingdan-a,
O'zingdan qo'ymasin xalqim, o'zingdan-a! ...

Boldan shirin tatir qora bug'doying ham,
O'zingdan bo'lsa gar shoh-u gadoying ham.
Bir tan-u jon, bir-biringdan rozi yursang,
Xudoyim ham sendan rozi, Xudoyim ham.
Gohi ipak, gohi yaktak bo'zingdan-a,
O'zingdan qo'ymasin xalqim, o'zingdan-a! ...

Er boshiga ish tushsa o't kechguvchidir,
Chidaymiz-da, bu zahmatlar o'tkinchidir.
Hurliging haq qolgan bari o'taversin,
Bu dunyoda eng yorug' baxt-el tinchidir! ...
Ayirmasin beminnat non tuzingdan-a,
O'zingdan qo'ymasin xalqim, o'zingdan-a! ...

**«INSON AZIZ, XOTIRASI MUQADDAS»
(Adabiy-badiiy kechanning ssenariysi)**

(Kecha o'tkaziladigan joy shinamgina bezatilgan)
(Tanburdan «Cho'li iroq» kuyi past ovozda chalinib turadi)

1-boshlovchi

Ohim yetsin desang agar Ollohga,
Qo'l urmoqchi bo'lsang haq ish, savobga,
Mayli, bormasang xam Makkatullohga
Mehr ko'rsat, o'zing mehr ko'rgaysan,
Ikki dunyong obod inson bo'lgaysan.

2-boshlovchi

Mehrdan yaralgan bu yorug' jaxon,
Oqibat bor ekan ko'ngillar yashar.
Diydor g'animatdir, g'animat inson,
Sog'inchga tayanib odamzod yashar.

1- boshlovchi

Assalomu alaykum, ko'ngil saltanati ichra mehr-oqibat bog'ini yashnatgan, ezgulik nuri ila qalblar qasrini yoritgan, buyuklik egalari! Ma'rifatning mo'tabar karvonlari, sanoqsiz shogirdlarning sarbonlari!

2- boshlovchi

Assalomu alaykum, ming bir ganj ila murg'k niholdan azim daraxt kutgan ilm-fan bog'bonlari, tafakkur sultonlari, zamonamizning benazir hazrati insonlari, davrimiz donolari «Inson aziz, xotirasi muqaddas» deb nomlangan «Xotira va qadrlash kuni» munosabati bilan tayyorlangan tadbirga xush kelibsizlar!

1- boshlovchi

O'tkanlarni xotirlash va ularning ruhini shod etish, tiriklarni e'zozlash va qadriga yetish insonga xos fazilat. Bunday savobli va xayrli ishlarga qo' urmoqlik esa yuksak oliyjanoblikdir.

2- boshlovchi

Muhtaram birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning farmonlariga binoan 9-may «Xotira va qadrlash kuni» deb e'lon qilinishi jammani bejad quvontirdi.

Qutlug' zamin uchun, baxt zafar uchun,
Yigirma million mard jonini berdi
Birov oyog'ini, birov qo'lini
Birov kaftidagi nonini berdi.

Mana oradan 75 yil o'tibdi. Lekin urush jarohatlari bitar ekan-u, yurak jarohati bitmas ekan.

(Qo‘shik «Unutmoq osonmas sizlarni O.Adizov ijrosida »)

1- boshlovchi

Azizlar! Ko‘pchilikka a‘yonki, ilgari 9-mayda ikkinchi jahon urushi qatnashchilarni eslash odat tusiga aylanib qolgandi. Bugun esa bu masalaga yangicha munosabat bilan qaralmokda.

Hukumatimiz olib borayotgan siyosatda inson omili bosh me‘zon bo‘lib, uning qadr-qimmatini, e‘zozlanishi va ulug‘lanishdan ko‘nglimiz tog‘dek ko‘tariladi.

2-- boshlovchi

Prezidentimiz iborasi bilan aytganda «Biz nafaqat o‘tganlarni xotirlashimiz, balki bugun hayot bo‘lganlarni qadrlashimiz, hurmatini joyiga qo‘yishimiz zarur». «Qadrlash» deganda faqat urush qatnashchilariga emas, qariyalarimizga, ota-onalarimizga, barcha ustoz-u muallimlarimizga, yaqinlarimizga ehtiromni tushunaylik. Shu ma’noda bu kun o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi, -degan dilga yaqin so‘zlarni eshitarkanmiz, beixtiyor qalbimiz faxr va iftixor tuyg‘ulariga to‘lib ketadi.

1- boshlovchi

G‘animat olamda aziz naqadar,
Sevinch bormi do‘stni ko‘rmoqlik qadar.
Davramizda kimlar bo‘lmasa hozir,
Qalbimiz ul zotga intiq, muntazir.

2- boshlovchi

Ey Olloh, tilayman sendan umrbod,
Dillarni yig‘latma, mutlaqo abad.
Yoshlarga umr ber, insofi birla,
Hech kimning dillari bo‘lmasin yara.

(She‘rlar: 6 kishi)

1- boshlovchi

Xotira - o‘zlikni anglash.

2- boshlovchi

Xotira - o‘tmishni yodda tutish.

1- boshlovchi

Xotira – muqaddas tuyg‘ular ila ko‘ngillarga ezgulik uyg‘otuvchi olam. Biz «millat», «vatan», «istiqlol» kabi so‘zlarni muqaddas sanaymiz.

Ana shu tushunchalar zahirida xotira, xotiralanish tuyg‘usi mavjud emasmi?

2- boshlovchi

Darhaqiqat, xotira insonni kelajakka ochiq ko‘z bilan qarashga chorlaydi. Xotira-yaxshilar yodi, yaxshilar chirog‘i. Qadrlash esa bir-birimizni izzatlash, ko‘z ustiga qo‘yib ardoqlash, mehr ko‘rsatish, oqibatni unutmaslikdir.

1- boshlovchi
Olis ufqlarni ko'zlaydi inson,
Qo'shiqlar bir umr inson hamrohi.
Mehr bor, qo'shiq bor, hayot charog'on
Quyoshga nur berar inson nigohi.

Endigi navbat qo'shiqqa – «Mejr qolur».

1- boshlovchi
Azizlar ! O'tayotgan g'animat umrimizaro siz kabi ustozlarni shoh-u sultonlar yanglig' e'zozlab, bisotimizdagi bor ehtiromimizni, mehrimizni armug'on etmoqqa oshiqamiz.

2- boshlovchi
Bugun-diydor onlari, bugun qadrlash onlari, xotirlash onlari. Qalblardan qalblarga faqat mexr-muhabbat ulashmoq chog'laridir. Ana shu dilkash fursatlarda ko'nglimizda go'zallik, shodlik, e'zoz, g'urur kabi tuyg'ular oshno bo'lishdan qalblarimiz yuksaladi.

1- boshlovchi
Azizlar! Yillar o'taveradi, zamonlar o'zgaraveradi, odamlar o'zgaradi, dunyoqarashlar o'zgaradi.
Biroq, biroq . . . qalbimizda ajib bir qutb borki, u yillar o'tsada o'zgarmaydi. Bu qutbning nomi sog'inch, mehr deb ataladi!
Bu sog'inch tuyg'usi, diydorlashish shukuhi barchamizga muborak bo'lsin!

2- boshlovchi
Oqibat quyoshdek socha olar nur,
Siz mo'jaz yurakda yo'qolgan ilm
Mehr yashaguvchi, go'zal oshyonsiz,
Sizni xotirlaymiz, ustoz-muallim.

1- boshlovchi
Azizlar! O'zlarining bor umrini ilm-fan ravnaqi, yurt kelajagi, shogirdlar kelajagi va istiqloli uchun baxshida etgan, bugungi kunda boqiy dunyoga rixlat qilgan, biz shogirdlar qalbida o'chmas iz qoldirgan, muhtaram ustozlar xotirasini yod aylamay o'tolmaymiz.

2- boshlovchi
Bular orasidan 2-jahon urushi jangohlarida jasorat ko'rsatgan, urushdan keyin bu ulug' dargohda ilm-fan rivojida o'zining beminnat xizmatlarini alohida hurmat va ehtirom bilan yodga olsak arziydi.

1- boshlovchi
Bular.....

2- boshlovchi

Sizga intilgandir murg'ak ko'ngillar,
Dur izlab maqsadga intilgan har on.
O'sha dur sizdadir, siz unga monand.
Eng buyuk me'rossiz, ey aziz ustoz!

1- boshlovchi

Duolarga ochgandiz qo'lni,
Nurafshonlar etgandiz dilni
Ko'rsatardiz bizga haq yo'lni
Qadrimizdir, aziz ustozim,
Faxrimizdir, aziz ustozim.

2- boshlovchi

Gulshanlar bitdingiz yaproqlari zar,
O'qidim hayratga tushib sarbosar.
Tarix nomingizni dillarda yozar.
Ey aziz ustozim, ulug' ustozim.

1- boshlovchi

Yechilmagan tugun, sizda yechildi.
Buloqning qadrini tashnalar bildi,
Siz ulug' ustozsiz, buyuk ustozsiz.

2- boshlovchi

Barg chiqargan kichik nihollardan,
Azim daraxt kutgan ham o'ziz.
Shu daraxtning mevasin ko'rib.
Zahmatin ham unutgan o'ziz.

1- boshlovchi

Ko'ngillar ziyosi, ey aziz ustoz
Ilmda ko'k uzra qildingiz parvoz
Shogirdlar qalbida topdingiz e'zoz
Ey aziz ustozim, buyuk ustozim.

2- boshlovchi

Donishmandlar aytib ketishgan,
Dunyoga kelganlar bir kun ketadi.
Birov xazon etsa gullagan bog'ni,
Birov taqir yerni gulzor etadi.

1-boshlovchi

Bor endi ruhingiz, nomingiz dilda

Ezgu ishlaringiz, yod erur tilda.
Kamtarin edingiz, doimo elda
Siz aziz muallim, mehribon, ustoz.

2- boshlovchi
Donodan yaxshi soʻz qoladi.
Olimdan ilm-u kashfiyot
Yaxshi ish qoladi birovdan
Ustozdan qoladi yaxshi nom.

1- boshlovchi
Mehr bilan qurilgan bino
Ustasini eslatib turar,
Yaxshilardan olgan har sabok
Qalbimizda manguga qolar

2- boshlovchi
Oʻtkanlar yodni yoʻqlamoq sharaf,
Insonning umriku bir oniy fursat.
Kel, ruhing shu'lasin sohib har taraf
Boʻlsin deb oʻtkanlar joylari jannat.

1 boshlovchi:
Yakun yetsa umriga xamki,
Mangu kolar yaxshilar yodi.
Nishonadir, kalbimizdadir.
Yaxshilikla eslanar nomi.

2 boshlovchi:
Ildam bosar ekan umr karvoni,
Goh ortga qaraysan qayda u ziyo
Yuraging ezilar nahotki hayot.
Ketarsan, qoladi bu yolgʻon dunyo.

Yolgʻon bu dunyoni tark etmoq qanchalar ayanchli boʻlmasin, baribir bunday ogʻir kunlar borligi aʼyon. Shunday ekan ortimizda faqat nurli izlar qolmogʻi hammamizga nasib etsin. Oʻz umr karvonida oʻchmas iz qoldirgan buyuk qalb sohiblarini yodga olamiz va ular nomini hech qachon unutmaymiz.

1 boshlovchi:
“Ezgulik qarimas, soʻnmas qanoti,
Umr uzun boʻlar, buzmas oti.
Oʻzidan faqat ezgu ishlar qoldirgan marhum ustozlarimizni esga olamiz.

2 boshlovchi:

Mazkur ma'rifat bo'stoniga uzoq yillar davomida ishlagan, uning obodligi yo'lida tinmay mejnlat qilgan marhumni yodga olamiz.

1 boshlovchi:

Ul zot o'lsa hamki izlari qolgan,
Yog'ni cho'g' deydilar, yog'duni yog'du.

O'zidan uchmas yog'du, ilm yog'dusini qoldirgan marjum ustozlarimizni yodga olamiz.

2 boshlovchi:

Hotam zotlar shunday bo'larlar asli,
Tashlab ketadilar baxt tilsimini
Hayot durlarini, yoshlik faslini
Go'zal xotirotlar, qadr ismini.

O'zlaridan go'zal xotirotlar qoldirgan, xotami zot insonlar marhum ustozlarimiz xotiralarini hamisha uyg'oqdir. Bu aziz ustozlarimiz yodi hamisha qalbimizdadir.

Muallimning umri abadiy
Bergan ilm-u ziyosi o'lmas
Qalbga sohib ketgan ezgulik
Ezgulikning zavoli bo'lmas.

O'zidan faqat ezgu ishlarni me'ros qoldirgan, fan ravnaqig beminnat xizmatini qo'shgan aziz ustozlarimizni yodga olamiz.

Ha, azizlar! Biz bugun 1941-1945 - yillar ikkinchi jahon urushi qurbonlari, mash'um Afg'on shahidlari, yana qanchadan - qancha marjum ustozlarimizni yod aylaymiz va ularning aziz xotirasi uchun bir lahzalik sukut saqlaymiz.

GUKUT!

1 boshlovchi:

Qay mijjada nogohonda siltilladi nam,
Ko'z yoshi bu - omadsizlik qayg'uning kori.
Lekin yillar o'tib, sekin unutildi g'am
Har qanday dil yarasiga vaqt erur malham.

2 boshlovchi:

Hech kimning ko'nglini qilmayin vayron,
Hech kimni yig'latib qo'ymagin biyron.
Hech kimga yaqinini dog'ini solma
Yoshin yashamasdan o'tmasin inson.

2 boshlovchi:

Sahna ko‘rinishi. Endigi navbat sahna ko‘rinishiga. Ijro etadi kursimiz tinglovchilari.

1. Qo‘shiq "Ona"
2. Sher'lar
3. Raqs: Muslaxzod
4. Qo‘shiq

1 boshlovchi:

Bizga diydor kerak, dunyo kerakmas,
Bizga ma'no kerak, da'vo kerakmas.
Biz uchun qadr kechasidir bu kecha
Tinchlik kerak, urush aslo kerakmas.

2 boshlovchi:

Aziz do‘stlar, muhtaram ustozlar! Shuning bilan tadbirimiz nihoyasiga yetdi. 9-mayni "Xotira va qadrlash" kuni sifatida nishonlanishini butun xalqimiz va millatimizga bo‘lgan yuksak ehtirom ramzi deb bilgaysiz. Ilohim bizga hamisha madadkor bo‘lsin!

1 boshlovchi:

Hammangizga sabr-bardosh, mustahkam iroda tilaymiz. Bu dunyoda hammamiz g‘animatmiz. Har bir bandaga Olloh bergan umrni musaffo osmon ostida, g‘am-qayg‘ulardan yiroq, farovon va tinch yashab o‘tish nasib etsin.

Ey inson! Tug‘ilding, yashading, demak,
Insondek ezgu ish qilganing yaxshi.
Hayot gumbazida neki ish qilsang
O‘zingga qaytishin bilganing yaxshi.

2 boshlovchi:

Sahna

Ona! Tabiatning buyuk xilqati. Tabiatning har bir mavjudoti borki, bu ulug‘ zotga talpinib yashaydi. Ayniqsa, inson hayotida onaning o‘rni beqiyosdir. Biroq inson hayotida shunday vaqtlar bo‘ladiki, bu ulug‘ zotning hurmati va qadrini o‘z o‘rniga qo‘ya olmaymiz. Hayot tashvishlari bilan bo‘lib, onamizni, sog‘initirib, farzandini yo‘llariga ko‘z tikib, intiq bo‘lib yashashiga, bilib bilmay sababchi bo‘lamiz. Ba'zan biz o‘zimizni hamma sohada aqli, dono deb bilamiz-u onaning qadriga yetishda aqlimiz yetmay qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш ва соҳани ривожлантиришни янги босқичга кўтариш тўғрисида”ги Қарори // Халқ сўзи, 2017 йил, 29 июль.
2. Каримов И.А. Юсак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.
3. Каримов И.А. Она юртимиз бахту икболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015.– 304 б.
4. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз//Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – 56 б.
5. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.
6. Мирзиёев Ш.М. Танкидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак.– Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.
7. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 48 б.
8. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. – 276 b.
9. Boychechak. Bolalar folklori. Mehnat qo'shiqlari. Ko'p tomlik. Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchilar O.Safarov va K.Ochilov. – T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984. – 336 b.
10. Oy oldida bir yulduz. O'zbek xalq marosimi qo'shiqlari. To'plab, nashrga tayyorlovchi, kirish so'zi va izohlar muallifi M.Jo'raev. –T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000. – 160 b.
11. Ostonasi tillodan. To'y qo'shiqlari. Nashrga tayyorlovchilar: M.Mirzaeva, A.Musaqulov. – T.: Fan, 1992. – 112 b.

12. Oq olma, qizil olma. O'zbek xalq qo'shiqlari. Ko'p tomlik. To'plovchi M.Alaviya. T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. – 232 b.
13. Воҳидов Э. Шеър дунёси. Сайланма. Иккинчи жилд. –Т.: Шарқ, 2001. –352 б.
14. Воҳидов Э. Умрим дарёси. Сайланма. Учинчи жилд. –Т.: Шарқ, 2001. –400 б.
15. Орипов А. Танланган асарлар. Тўрт жилдлик. 1-жилд. –Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. –Б. 371-389.
16. Орипов А. Танланган асарлар. Иккинчи жилд. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2001.
17. Орипов А. Танланган асарлар. Тўрт жилдлик. Учинчи жилд. Таржималар. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – 384 б.

MUNDARIJA

1. Mustaqillik eng oliy ne'mat
2. "Birinchii qo'ng'iroq" bayrami
3. Ta'zim sizga ustozlar
4. Til - ma'naviyat ko'zgusi
5. Ona tilim - sen ruhimning qanoti
6. Yurtlarni zabt etgan hazrat Navoiy, Qalblarda naqsh bitgan hazrat Navoiy
7. Dunyoni qalam bilan olgan shoir
8. Ajdodlar mardona ruhi senga yor
9. Seni kuylayman hayot
10. Sen elimning yuragida yashaysan
11. Yurt e'zozlagan shoira
12. Kaftingda tut, asra ayolni
13. Ayol ziynati
14. Assalom, Navro'zi olam
15. Navro'z - yangilanish va poklanish bayrami
16. Bir kelib keting, qishlog'imizga
17. Muhammad Yusuf - el ardoqlagan shoir
18. Inson aziz, xotirasi muqaddas

Zaripova Aziza Kahramonovna -

- 1996-yil 25-mayda Buxoro viloyati Buxoro shaxrida tug'ilgan.
- U hozirda Buxoro davlat universiteti filologiya fakultetining 2 kurs talabasi.
- 4 ta maqolasi xalqaro nufuzli jurnallarda chop etildi. Jumladan, "International Scientific Journal Theoretical & Applied Science ", "International Multilingual Journal of Science and Technology", "Progressivnaya nuka".
- 5 ta tezisi xalqaro va respublika ilmiy anjumanlar to'plamida nashr bo'lgan.
- " Актуальные проблемы языкознания" deb nomli monografiyasini (dotsent G.Toirova hamkorligida) chop ettirdi.
- "Ilm-fan, kelajak poydevori" shiori ostidagi Qizlar forumi va "Yil talabasi -2019" tanlovida "Yilning eng faol ixtirochi-innovator talabasi" yo'nalishida faol ishtirok ishtirokchisi, "Yoshlarning Starup tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash dasturi" viloyat miqyosidagi tanlovda "uztil@mobil.ilova" deb nomlangan loyihasi muallifi.

MUSTAQILLIK – ENG OLIY NE'MAT	3
"BIRINCHI QO'NG'IROQ" BAYRAMI	7
TA'ZIM SIZGA USTOZLAR!	11
TIL - MA'NAVIYAT KO'ZGUSI	19
ONA TILIM – SEN RUHIMNING QANOTI	24
DUNYONI QALAM BILAN OLGAN SHOIR	38
AJDODLAR MARDONA RUHI SENG YOR	47
SENI KUYLAYMAN HAYOT (HAMID OLIMJON)	49
KAFTINGDA TUT, ASRA AYOLNI!	70
«AYOL ZIYNATI»	76
NAVRO'Z – YANGILANISH VA POKLANISH BAYRAMI!	84
BIR KELIB KETING, QISHLOG'IMIZGA	90
MUHAMMAD YUSUF - EL ARDOQLAGAN SHOIR	100
«INSON AZIZ, XOTIRASI MUQADDAS»	109
Foydalanilgan adabiyotlar	116
MUNDARIJA	117

FOR AUTHOR USE ONLY

**More
Books!**



yes
I want morebooks!

Buy your books fast and straightforward online - at one of world's fastest growing online book stores! Environmentally sound due to Print-on-Demand technologies.

Buy your books online at
www.morebooks.shop

Kaufen Sie Ihre Bücher schnell und unkompliziert online – auf einer der am schnellsten wachsenden Buchhandelsplattformen weltweit! Dank Print-On-Demand umwelt- und ressourcenschonend produziert.

Bücher schneller online kaufen
www.morebooks.shop

KS OmniScriptum Publishing
Brivibas gatve 197
LV-1039 Riga, Latvia
Telefax: +371 686 204 55

info@omniscryptum.com
www.omniscryptum.com

OMNIScriptum



FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY